

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI  
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

SARVARJON G'AFUROV

**MARKAZIY OSIYO:  
MINTAQAVIY TAHDIDLAR, INTEGRATSIYA,  
ZAMONAVIY SIYOSIY JARAYONLAR**

**Toshkent–2023**

UO‘K: 581.5+581.8

*Ilmiy-ommabop nashr*

**G‘afurov S.M.**

Markaziy Osiyo: mintaqaviy tahdidlar, integratsiya, zamonaviy siyosiy jarayonlar [Matn] / S.G‘afurov. – Toshkent: «MERIT PRINT», 2023. – 108 b.

SARVARJON G‘AFUROV

**Mas‘ul muharrir:**

*Olimjon Davlatov – Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti direktori*

**Taqrizchilar:**

**Mansur Musayev** – Siyosiy fanlar doktori

**Xayrulla Umarov** – Siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Siyosiy fanlar doktori, professor Sarvarjon G‘afurovning ushbu risolasida Markaziy Osiyodagi mintaqaviy tahdidlar, integratsiya, zamonaviy siyosiy jarayonlar atroflicha tahlil qilinib, muhim xulosalar qilinadi. Markaziy Osiyo davlatlaridagi hududiy, iqtisodiy, transchegaraviy, etnik kabi zamonaviy muammolarning ildizlari chuqur bo‘lib, ular sovet davri boshqaruv tizimi o‘tmishiga borib taqalishi, ushbu muammolar bugungi kunda ham mintaqaning rivojlanish bosqichlariga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatishda davom etishi mumkinligi haqida tahliliy ma‘lumotlar beriladi. Risolada bir davlat doirasidagi yoki mintaqaviy darajadagi muammolarni hal etilishida ishtirok etish, yordam qo‘lini cho‘zish, qonuniy hukumatlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jahon hamjamiyatchiligi davlatlarining umumiy vazifasi bo‘lishi kerakligi xususidagi mulohazalar ham o‘rin olgan. Risola keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

**MARKAZIY OSIYO:  
MINTAQAVIY TAHDIDLAR, INTEGRATSIYA,  
ZAMONAVIY SIYOSIY JARAYONLAR**

Noshir: Zayniev F.

Muharrir: Axmedova M.

Dizayner: Zayniev M.

Kompyuterda tayyorlovchi Shodmonov S.

Nashriyot litsenziya raqami № 005073-06 08.02.2016 y.  
«MERIT PRINT» nashriyoti

100000, Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,  
Sh.Rustaveli ko‘chasi 91-uy  
Tel.: +998 90 000 06 63

Bosishga 07.12.2023-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108. <sup>1</sup>/<sub>16</sub>  
«Times New Roman» garniturasida. Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog‘i 6.68, Buyurtma № 46  
Adadi 500 nusxa.

© G‘afurov S.M.

© MERIT PRINT

© Toshkent, 2023

**MARKAZIY OSIYO: MINTAQAVIY TAHDIDLAR,  
INTEGRATSIYA, ZAMONAVIY SIYOSIY JARAYONLAR..... 3**

<b>1. Markaziy Osiyo mintaqasi – zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida .....</b>	<b>3</b>
<b>2. Markaziy Osiyoda geosiyosiy kuchlar muvozanati va mintaqaviy xavfsizlikka asosiy tahdidlar .....</b>	<b>33</b>
<b>3. “Afg‘on tuguni” va Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash masalalari .....</b>	<b>42</b>
<b>4. Shanxay hamkorlik tashkilotining Markaziy Osiyo mintaqasi taraqqiyotidagi o‘rni .....</b>	<b>54</b>
<b>5. Markaziy Osiyo integratsiyasi – O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi .....</b>	<b>72</b>
<b>6. Markaziy Osiyo respublikalarida ijtimoiy-ma’naviy hayot va yoshlar tarbiyasi .....</b>	<b>91</b>
<b>Xulosa .....</b>	<b>98</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar .....</b>	<b>102</b>

**MARKAZIY OSIYO: MINTAQAVIY TAHDIDLAR,  
INTEGRATSIYA, ZAMONAVIY SIYOSIY JARAYONLAR**

*Inson o‘z tabiatiga ko‘ra siyosiy mavjudotdir,  
uning asosida hatto o‘zaro yordamga muhtoj  
bo‘lmagan odamlar ham doimo jamoa bo‘lib  
yashashga intiladilar.*

*Aristotel*

**1. Markaziy Osiyo mintaqasi – zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida**

Zamonaviy davr – bu dinamik dunyoning o‘zgarish vaqti. Bugungi kunda zamonaviy siyosiy jarayonlar, uning ijtimoiy tizimlari va mazmuni o‘zgarib bormoqda. XX asrning aksariyat voqeligi qonli urushlar, qadriyatlarining antagonizmi, o‘zaro yopiq va qarama-qarshi bo‘lgan ikki mafkuraviy tizim o‘rtasidagi ziddiyatli to‘qnashuv davri sifatida tavsiflangan bo‘lsa, yangi asrda insoniyat yangicha dunyo tartibini yaratishga intilmoqda.

XXI asr yangilanayotgan dunyo tartibida turli mafkuraviy yo‘nalishlar: ko‘p qutblilik, ko‘p madaniyatlilik, ko‘ppartiyaviylik, diniy bag‘rikenglik, va shubhasiz, globallashuv va integratsiya jarayonlari barcha mamlakatlarni o‘z ichiga qamrab oldi. Zamonaviy xalqaro munosabatlar dialektikasi o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalqaro hamjamiyat davlatlarini davr chaqiriqlariga javob berishni talab qilmoqda.

Sovet Ittifoqining parchalanishi bilan Markaziy Osiyo Moskvaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazorati doirasidan chiqdi va amalda xalqaro maydonda kuchli siyosiy guruhlarining turli manfaatlari to‘qnashgan ochiq mintaqaga aylandi. Markaziy Osiyo Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston respublikalarini o‘z ichiga olgan holda, 1991-yilda xalqaro munosabatlarning mustaqil subyekti sifatida jahon siyosiy maydonida paydo bo‘ldi.

Endigina mustaqillikni qo'lg'a kiritgan respublikalarni AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, shuningdek, boshqa bir qator siyosiy kuchlar markazlari (*Turkiya, Islom dunyosi, Yevropa Ittifoqi*) o'z ta'sir zonasiga kiritishga harakat qila boshladi.

Shu bilan birga, zamonaviy xalqaro tendensiyalar va nodavlat siyosiy o'yinchilar – yirik transmilliy korporatsiyalar, nodavlat xalqaro tashkilotlar, transchegaraviy jinoiy guruhlarning mintaqaviy vaziyatga ta'siri ortdi.

Markaziy Osiyo davlatlaridagi hududiy, iqtisodiy, transchegaraviy, etnik kabi zamonaviy muammolarning ildizlari chuqur bo'lib, ular sovet davri boshqaruv tizimi o'tmishiga borib taqaladi. Ushbu muammolar bugungi kunda ham mintaqaning rivojlanish bosqichlariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi G'arbda Kaspiy dengizi, Sharqda Xitoy, Shimolda Rossiya, Janubda Afg'oniston va Eron bilan chegaradosh.

Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston respublikalarini o'z ichiga olgan mintaqaning umumiy maydoni 4 million kvadrat kilometr teng. Bu yerda 80 mlndan ortiq odam istiqomat qiladi.

Turkmaniston aksar cho'l va yarim cho'l yerlar, Qozog'iston dashtlar, O'zbekiston unumdor vodiylar (*Farg'ona, Zarafshon*), Qirg'iziston va Tojikiston esa asosan tog'li hududlardan iborat.

Markaziy Osiyoning tabiiy-iqlimiy, geografik, ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xususiyatlarini e'tiborga olib, uni submintaqa sifatida ta'riflash mumkin.

Markaziy Osiyo – boy tabiiy xomashyo zaxiralariga ega mintaq. Mintaqada tasdiqlangan neft zaxiralari (*Qozog'iston, Turkmaniston, O'zbekiston*) umumjahon neft zaxiralari hajmining taxminan 3 foizini, gazning 7 foizini tashkil etadi. Kaspiy dengizi akvatoriyasida

34. [www.kun.uz//Тожикистондаги](http://www.kun.uz//Тожикистондаги) музликларнинг эриб кетишининг олдини олиш мумкинлиги маълум қилинди//09/09/2022 й.

35. [www.kun.uz//“Толибон”ни](http://www.kun.uz//“Толибон”ни) Ўзбекистон учун фожиали канални қуришдан тўхтатиб бўладими?//10/02/2023 й.

36. [www.Интернет](http://www.Интернет) портал СНГ. Пространства интеграции, 2022 г.

37. [www.oriens.uz//](http://www.oriens.uz//) Муҳаммадсиддиқов М.М. Хитойнинг Ўрта Шарқдаги сиёсий-иқтисодий дипломатияси//Журнал “Uzbekistan-China: development of cultural, scientific and economic relations”, 669-677 бетлар, 2021 й.

38. [www.uz.a//Шанхай](http://www.uz.a//Шанхай) ҳамкорлик ташкилотида стратегик ҳамкорлик масаласи//15/09/2022 й.

39. [www.Народное](http://www.Народное) слово. online//Выпуск исключительно профессионалов: В современном Узбекистане высшее образование – одна из самых быстроразвивающихся сфер//25/07/2022 г/№1120.

21. Коргун В.Г. Афганистан: политика и политики//из-во «Восток», Москва, 1999 г.

22. Син Гуанчен. Шанхайская организация сотрудничества: приоритетные направления//Журнал «Мировая экономика и международные отношения», Москва, 2002 г.

### III. Internet manbalari:

23. www.UN Department of Economic and Social Affairs//World Population Prospects, 2017.

24. www.Central Asia Analytical Network: CAAN//caanetwork.org//Демография Центральной Азии к 2100 году.

25. www.DKN. World News// Перспективы Центральной Азии до конца не осмыслены.

26. www.Eurasian Research Institute//Трудовая миграция и дипломатизация миграции в Центральной Азии.

27. www.Review.uz//Центральная Азия в приоритете внешней политики Узбекистана.

28. [www.Review.uz/Ўзбекистон](http://www.Review.uz/Ўзбекистон) ёшлари: муаммо ва истикболлар//15/02/2021 й.

29. [www.Xabar.uz/Геосиёсий](http://www.Xabar.uz/Геосиёсий) вазиятнинг Марказий Осиёдаги мамлакатларга қандай таъсири бор?//06/09/2022 й./№1329

30. [www.aniq.uz/Шанхай](http://www.aniq.uz/Шанхай) ҳамкорлик ташкилоти доирасидаги иқтисодий ҳамкорликнинг устивор йўналишлари//13/09/2022 й.

31. [www.aniq.uz/Ўзбекистон](http://www.aniq.uz/Ўзбекистон) Марказий Осиё давлатлари орасида энг хавфсиз давлат деб топилди//22/07/2022 й.

32. [www.aniq.uz/ШХТ](http://www.aniq.uz/ШХТ) Афғонистон муаммоларини ҳал қилишни ўз зиммасига олиш ниятида//12/09/2022 й.

33. [www.kun.uz/Сувдан](http://www.kun.uz/Сувдан) нотўғри фойдаланиш Ўзбекистонга хатарлар туғдиради//04/09/2022 й./№7132

tasdiqlangan gaz zaxiralarining yarmidan ko'pi Qozog'iston va Turkmaniston hududida joylashgan.

Eksperlar tomonidan O'zbekiston neft va gaz resurslari 1 trln dollardan ortiqqa baholangan. O'zbekiston dunyodagi eng yirik oltin (dunyoda umumiy zaxirasi bo'yicha 4-o'rin, ishlab chiqarishda 7-o'rin), kumush, boshqa qimmatbaho va noyob metallar zaxira resurslariga ega mamlakatlar qatoriga kiradi.

Qozog'iston dunyodagi temir zaxiralarining 8 foiziga ega. Qozog'istonda, shuningdek, O'zbekiston va Tojikistonda uran rudalarining salmoqli zaxiralari mavjud bo'lsa, O'zbekiston uran rudasini qazib olish bo'yicha dunyoda 7-o'rinda turadi.

O'zbekiston va Qirg'izistonda ko'mir, Turkmanistonda oltingugurtning yirik konlari mavjud. Qirg'iziston va Tojikiston tog'li hududlarda joylashganligi, yirik daryolar mavjudligi sababli salmoqli gidroenergetika salohiyatiga ega.

Markaziy Osiyoning yana bir tabiiy boyligi paxta xom-ashyosini yetishtirish hisoblanadi. Mintaqada har-yili umumiy hisobda 6 million tonnaga yaqin paxta xom-ashyosi yig'ib olinadi, bu esa MDHda paxta yetishtirishning 95 foizini tashkil etadi. Asosiy paxta yetishtiruvchi davlat – O'zbekiston bo'lib, paxta tolasini ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda to'rtinchi, uni eksport qilish bo'yicha esa ikkinchi o'rinda turadi.

Boy mineral tabiiy xomashyo resurslariga ega bo'lsada, Markaziy Osiyo davlatlari ushbu geostrategik potensialdan foydalanish uchun geografik jihatdan xalqaro suv transport yo'llariga chiqishga nisbatan noqulay hududda joylashgan. Ushbu mintaqa davlatlari xomashyo va tovar mahsulotlarini asosiy xaridori bo'lgan jahon bozori mamlakatlariga uzoq logistik masofalar orqali yetkazib berishga majbur.

Markaziy Osiyo davlatlari orasida faqat Qozog'iston va Turkmaniston dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'lib, bu davlatlarni g'arbiy qismidan Kaspiy dengizi yuvib turadi. Boshqa respublikalar jahon suv transport yo'llariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatiga ega emas. O'zbekiston hududi eng yaqin dengiz portidan 3 ming km uzoqlikda joylashgan.

### ***Suv resurslari***

Tabiiy suv resurslari Markaziy Osiyoda muhim geografik va geostrategik ahamiyatga ega omil hisoblanadi. Mintaqada suv resurslari iste'mol talablariga nisbatan kam miqdorni tashkil etib, nomutanosib taqsimlanganligi bilan xarakterli.

Markaziy Osiyoda eng yirik va transchegaraviy daryolar Amudaryo va Sirdaryo —yiliga 78 kub.km suv tashiydi, Chuy va Talas daryolari (*Qirg'iziston, Qozog'iston*), Tarim daryosi (*Qirg'iziston, Tojikiston*), Ili daryosi (*Xitoy, Qozog'iston*), Irtish daryosi (*Xitoy, Qozog'iston, Rossiya*), Ural, Ishim, Tobol daryolari (*Qozog'iston, Rossiya*) mintaqaga ma'lum miqdorda suv yetkazib turadi.

Eng yirik tabiiy suv omborlari: Kaspiy dengizi (*Qozog'iston, Turkmaniston*) va Orol dengizi (*O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston*), Balxash ko'li (*Qozog'iston*), Issiqko'l (*Qirg'iziston*).

Tabiiy suv omborlari geostrategik va geoiqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, mintaqaning tog'li qismida, umumiy maydoni 4 ming kv.kmdan ortiq bo'lgan to'rt mingdan ortiq katta va kichik muzliklar mavjud. Orol dengizi havzasining yuqori qismida 10 mlrd kub.m miqdorida umumiy oqimni tartibga solishni ta'minlaydigan 30 dan ortiq yirik suv omborlari mavjud.

Katta miqdordagi chuchuk suv (*taxminan 20 kub.km*) Tojikistonning Pomir tog'larida 1911-yilda 3 km balandlikda zilzila natijasida hosil bo'lgan Sarez ko'lini o'z ichiga oladi. Bugungi kunda ushbu tog' ko'li tabiiy to'g'onining qulashi ehtimoli mintaqaga jiddiy ekologik xavf tug'diradi.

Markaziy Osiyoda suv resurslari bilan bog'liq asosiy ekologik muammolarga quyidagilar kiradi:

- 1) Orol dengizining qurishi;
- 2) yerusti va yerosti suvlari sifatining yomonlashishi;
- 3) botqoqli yerlar va daryo ekotizimlari maydonlarining qisqarishi;
- 4) tuproqning sho'rlanishi;
- 5) Afg'onistonda Amudaryo o'zanida 300 kmlik yangi kanalning qurilishi.

### **Ingliz tilidagi adabiyotlar:**

10. Goble Paul. Central Asian Political Block//RLE-RL, Research report, July, 1990
11. Jasjit Singh. Reshaping Asian Security. /The Institute for Defence Studies and Analyses, India, New Delhi, 2001.
12. UN Population Division. World population prospects. /USA, New York, 2020.
13. Dilip Hiro. Inside Central Asia//Overlook Press Duckworth, London, 2009.
14. Malikov Yuriy. Modern Central Asia//Lexington Books, London, 2019.
15. Barnett Rubin. The Fragmentation of Afghanistan. State formation and collapse in the International System//Tale University Press, USA, 1995.

### **II. Rus tilidagi adabiyotlar:**

16. Максименко В.И. Расширенные тезисы к дискуссии на форуме геостратегического значение Средней (Центральной) Азии в международных отношениях начала XX века//Журнал "Восток", Москва, №3, 2003 г.
17. Милославский Г.В. Интеграционный потенциал региона//из-во «Восток», Москва, 1996 г.
18. Голунов С. Постсоветские границы Центральной Азии в контексте безопасности и сотрудничества// Журнал «Россия и мусульманский мир», Москва, №1, 2002 г.
19. Гафуров С.М. Национальная, региональная и глобальная безопасность: роль и место арабских государств Персидского залива и Республики Узбекистан//из-во «Зар-калам», Ташкент, 2005 г.
20. Богатырев В. Оценка транснациональных угроз региональной безопасности//Центральная Азия XXI веке: Сотрудничество, партнерства и диалог//из-во «Шарк», Ташкент, 2004 г.



## Foydalanilgan adabiyotlar:

### I. O'zbek tilidagi adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон: тараққиёт стратегияси/“O`zbekiston” нашриёти, Тошкент, 2022 й.
2. Мирзиёев Ш.М. Шанхай ҳамкорлик ташкилотининг Самарқанд саммити: ўзаро боғлиқликдаги дунёда мулоқот ва ҳамкорлик//www.president.uz//12/09/2022 й.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон: демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда./“O`qituvchi” нашриёти, Тошкент, 2021 й.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз./“Ўзбекистон” нашриёти, Тошкент, 2017 й.
5. Янги Ўзбекистон: демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда.// “O`qituvchi” нашриёти, Тошкент, 2021 й.
6. “Yangi O`zbekiston – yangi renessans sari”//Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari// “Zarvaraқ” nashriyoti, Toshkent, 2021 у.
7. “Маънавият – асосий тушунчалар луғати”/“Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, Тошкент, 2021 й.
8. Гафуров С.М. Туркий давлатлар ташкилоти – Ўзбекистон ташқи сиёсатининг устивор йўналиши/“Янги Ўзбекистон” газетаси/228-сон, 8-ноябрь, 2022 й.
9. Гафуров С.М. Хавфсизлик стратегияси: Марказий Осиё республикалари ва Форс кўрфази араб давлатлари амалиёти/Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Тошкент, 2007 й.

Markaziy Osiyo hududi Orol va Kaspiy dengizi havzasida keng drenajsiz maydonni egallaydi va bu xususiyat daryolarning maxsus rejimini belgilaydi. Qishloq xo'jaligi bilan bog'liq faoliyat va iqlimning beqarorligi ekologiyaning o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Oxirgi-yillarda iqlimning keskin isib borishi natijasida mintaqada tabiiy suv resurslarining sezilarli kamayishiga olib keldi, va natijada, mazkur o'lkada ijtimoiy vaziyat va iqtisodiy o'sish dinamikalariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu haqda O'zbekiston rahbari Sh.Mirziyoyev o'z chiqishlaridan birida “...*Tuproq, suv va havoning haddan ziyod ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, o'simlik va hayvonot dunyosidagi tashvishli o'zgarishlar ekologik muammoni taraqqiyotga yuz tutayotgan mamlakatlarning xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgan omillardan biriga aylantirmoqda*”, deya ekologik tahdidlar haqida to'xtalgan edi.

Orol dengizining qurib borishi bilan bog'liq ekologik falokat yagona muammo emas, mintaqa hududida tabiiy suv resurslarining kamayishi cho'llanish, yerlarda tuz konsentratining ortishi va iqlimning o'zgarib borishi bilan bog'liq global darajadagi ekologik halokatlarni sababchisi bo'lishi mumkin. Davlatimiz rahbari bu haqda “*O'zbekistonda ham ekologik muammolar jiddiy tashvish tug'dirmoqda. Aksariyat hududlarimizda tuproq tarkibi buzulib, unumdor yerlar qisqarib bormoqda, cho'llanish, suv yetishmasligi, qurg'oqchilik, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda*”, deb jiddiy munosabat bildirgan edi.

Markaziy Osiyoda daryolar gidrologik tizimining o'zgarishi, shunga mos ravishda suvdan muvozanatli foydalanish bo'yicha kelishilgan tartibning yo'qligi, tabiiy suv resurslari uchun raqobatning ortishi – mintaqa davlatlarining umumiy strategik qarorlarni qabul qilishining muhimligini ko'rsatdi. Yer va suv resurslaridan unumli foydalanish, kompleks boshqaruv, kategoriyalangan suv iste'moli me'yorlarini ishlab chiqish, suvni tejash texnologiyalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan infratuzilmani yaratish hamda ushbu sohaga xorijiy ekspertlar va investitsiyalarni jalb etish bugungi kunda muhim vazifalardan hisoblanadi.

Mavjud muammolarni hal etishda davlatlararo kelishuvlarga erishish, suvdan optimal foydalanish, daryolar havzalarini ifloslanishdan himoya qilish, iqlim o'zgarishiga moslashish – mintaqada ekologik barqarorlikni ta'minlashni anglatadi. Har bir mamlakatning kelajagi va iqtisodiy rivojlanish istiqbollari uchun tabiiy suv resurslaridan oqilona foydalanish, ushbu sohada mintaqaviy hamkorlik muhim rol o'ynaydi.

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan birga bir qator siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarga duch keldi. Ushbu muammolarni hal etish ulkan sa'yi-harakatlar, o'zaro hamkorlik va salmoqli mablag'larni sarflashni talab qiladi.

Aholi sonining o'sishi va iqtisodiy rivojlanish suvga bo'lgan ehtiyojni sezilarli darajada oshirdi. Markaziy Osiyo davlatlarida yer usti va yer osti suvlarining-yillik olinishi suv zaxirasining 20 foizidan (*Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston*), 80-90 foizigacha (*O'zbekiston, Turkmaniston*) to'g'ri keladi.

Bugungi kunda suvga bo'lgan ehtiyoj asosan ekotizim (*daryolar va suv omborlari*) hisobiga qondirilmoqda, ammo suv tanqisligi allaqachon ijtimoiy-iqtisodiy falokat holatiga kelib qolgan. Masalan, so'nggi-yillarda Amudaryoning quyi oqimida suv ta'minoti davlatlararo kelishilgan suv olish chegarasining yarmidan kamini tashkil etmoqda. Mutaxassislarining aytishicha, Markaziy Osiyo aholisi sonining tez o'sishi, Afg'oniston tomonidan suvdan foydalanish miqdorining ortishi, mintaqada cho'llanish jarayonlarining ko'payishi hamda iqlim o'zgarishini hisobga olgan holda kelajakda suv defitsiti keskin ortadi.

Markaziy Osiyo hududida suv resurslari yil fasllari bo'yicha o'ta nomutanosib taqsimlanishi, iqlimning quruqligi ushbu submintaqada suvdan foydalanish tizimiga qo'shimcha talablar qo'yadi. Hidroenergetika va irrigatsiya manfaatlari, mavsumiy suv sarfining notekisligi suv iste'molchilari bilan transchegaraviy suvlar manbalariga egalik qiluvchi mamlakatlar o'rtasida ziddiyatlarning keskinlashuviga sabab bo'ladigan omillarga ega.

Suv resurslariga boy Qirg'iziston va Tojikiston (*mavjud munosabatlar doirasida*) o'z davlatlari hududlarida nafaqat mintaqa

Yetishib kelayotgan avlodni yoshlik chog'idan tarbiyalashga, ularga milliy g'urur, xalqimiz urf-odatlarini, an'analarini singdirishga e'tibor qaratish lozim. Zamon tez o'zgarmoqda. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlarini qo'lga kiritgan yosh avlod jahon xalqlari mafkuralari, qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oyalar, zamonaviy ma'nisiz trendlar ta'siriga tushib qolmasligi uchun ularning ongini, avvalo, milliy ma'naviy-ma'rifiy bilimlar bilan egallagan bo'lishimiz muhim. Millatini, buyuk o'tmishini, e'tiqodini, qadriyatlarini hurmat qiladigan yoshlargina vaqti kelganda, xalqini, Vatanini, davlatini himoya qilishga tayyor bo'ladi. Bu juda ham muhim va murakkab vazifa.

Hayotni to'xtatib bo'lmaydi, buni anglash ongli mavjudotning yutug'i. Shunday ekan, bir jamiyatda, bir davlatda yuzaga kelgan ziddiyat, hox u siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy tamoyillarga, millatlararo, diniy qarama-qarshiliklarga xos bo'lsin, tez muddatlarda mintaqaviy va hatto xalqaro masshtabdagi global muammoga aylanish xarakteriga ega. Buni sun'iy to'xtatish yoki uni chegaralash zamonaviy sharoitlarda imkonsiz. Mana shu hollarni e'tiborga olgan holda, bir davlat doirasidagi yoki mintaqaviy darajadagi muammolarni hal etilishida ishtirok etish, yordam qo'lini cho'zish, qonuniy hukumatlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash jahon hamjamiyatchiligi davlatlarining umumiy vazifasi bo'lishi kerak. Ushbu tamoyilning yuzaga kelishi va davomiyligi jahon tamaddunining barqarorligi va rivojlanishi uchun xizmat qiladi.



yoyilmoqda. Bu borada siyosatshunos F.Tolipov fikrini tasdiqlaymiz, *“O‘zbekiston bilan Qozog‘iston ittifoqdosh ekan, shu yerdagi geosiyosiy vaziyat o‘zgarsa, bu faqat Qozog‘istonning ishi demaslik kerak. Ittifoqdoshlik munosabatlari O‘zbekistonga ham mas‘uliyatni yuklatadi. Umuman Qozog‘istonda geosiyosiy vaziyat o‘zgarsa, Qirg‘izistonda geosiyosiy vaziyat O‘zbekistonga qanday ta‘sir qiladi, deyish biroz tor yondashuv. Markaziy Osiyoni yaxlit organizm deb qarashimiz lozim. Bu geosiyosiy vaziyat Markaziy Osiyodagi beshita mamlakat uchun bir xil ta‘sir qiladi”*.

Markaziy Osiyo respublikalari inson kapitaliga, xususan, yoshlarning sifatli ta‘lim olishidan tortib, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishiga katta hajmda investitsiya kiritishi zarur. Bu kelajakda nafaqat iqtisodiyotni yuksaltirish, balki ijtimoiy vaziyatni barqarorlashtirish – kambag‘allik va salohiyatli kadrlar migratsiyasini qisqartirish, ishsizlikni bartaraf etish, xalqning turmush darajasini oshirish imkonini beradi.

Inson kapitalini rivojlantirish – bir kunlik ish emas. Mazkur missiya kompleks yondashuv va uzoq muddatli pritsipial chora-tadbirlarni talab qiladi. Bu borada tayyor yechimlar yo‘q. Har qaysi mamlakat bu borada o‘z yo‘li va yo‘nalishini mustaqil tarzda belgilab olmog‘i darkor.

Yoshlar, avvalo, ota-onasiga ishonadi. Ularning fikricha, yaxshi insonlar ota-ona farzandlari bilan doimiy muloqot olib boradigan, kasbiy yuksalishiga yordam beradigan, o‘rinli tanqidiy mulohazalar bildirib, dunyoqarashini kengaytiradigan oilalardan yetishib chiqadi. Ba‘zi respondentlar yaxshi insonni tarbiyalashda o‘qituvchining ham roli muhimligini qayd etgan.

Bizda yosh avlodga yetkazishimiz mumkin bo‘lgan ulkan ma‘naviy-ma‘rifiy xazina mavjud, bu – buyuk ajdodlarmizning bebaho ilmiy merosi. Yana bir muhim qadriyat – xalqimizning islom dini bilan bog‘liq mustahkam e‘tiqodi va qadriyatlari. Insonning ma‘naviy barkamol shaxs bo‘lib yetishishga targ‘ib qiluvchi g‘oyalari, buyuk axloq, adolat, halollik, insonparvarlik, tinchliksevarlik, xalqparvarlik kabi ko‘plab xislatlarni o‘zida jamlaganligi – ta‘lim-tarbiyani o‘z vaqtida, ta‘sirchan shaklda berilishida muhim o‘rin tutadi.

uchun, balki global muvozanatni saqlash uchun ham muhim bo‘lgan ushbu tabiiy manbadan siyosiy-iqtisodiy dividend olishga intiladi.

Tojikiston qurilish budjeti 5 mlrd dollarni tashkil etadigan “Rog‘un” GESini qurish loyahasini amalga oshirmoqda. Ishlab chiqarish quvvati 3600 MVt elektr energiyaga ega “Rog‘un” GES Tojikistonni mintaqadagi yirik energiya sotuvchisiga aylantirishi mumkin. Zotan, Dushanbening siyosiy va iqtisodiy manfaati – energiyaga muhtoj Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish va Rossiyadagi muhojirlar puliga qarab qolgan o‘z iqtisodini rivojlantirishdan iborat.

Ushbu GESning qurilishi jarayonida balandligi 340 metr bo‘lgan suv ombori to‘g‘oni quriladi. Bu to‘g‘onni suv bilan to‘ldirish uchun esa, hisob-kitoblarga ko‘ra, 15-yil vaqt kerak bo‘ladi. Shuncha yil davomida Vaxsh daryosidan oqib keladigan tabiiy suv oqimini pasaytirib, to‘g‘onni to‘ldirishga harakat daryolarning quyi oqimida bo‘lgan O‘zbekiston hududlariga Amudaryo orqali oqib keladigan suv resurslarining keskin kamayib ketishiga olib keladi. Suv resurslarining keskin kamayishi esa, O‘zbekistonda agrar sohaning sezilarli tanazzulga uchrashi, ekotizimning salbiy o‘zgarishlariga sabab bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Yangi O‘zbekistonni qurishda tashqi va ichki siyosatdagi jiddiy islohotlari natijasida yaxshi qo‘shnichlik, mintaqaviy taraqqiyot masalalarida o‘zaro manfaatli hamkorlik harakatlari natijasida mazkur chigallikka ham o‘ziga hos yechim topgandek bo‘ldi. Mavjud muammoni o‘zaro konsensus va har tomonlama muvozanatli yechimlarga asosan hal etish o‘z natijasini berdi. *“Bugun biz mintaqa mamlakatlari, jumladan, do‘st va birodar O‘zbekiston bilan o‘zaro foydali yo‘nalishlar, ayniqsa, suv, energetika, transport va boshqa sohalarda yaxshi qo‘shnilik munosabatlarni yo‘lga qo‘ydik, hamda ikki tomonlama munosabatlarning barcha muhim masalalari bo‘yicha o‘zaro tushunish, xalqlarimiz manfaatlari yo‘lida o‘z yechimini topishiga ishonchimiz komil”*, degan edi Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon Rog‘undagi tantanali marosimda.

Afg‘oniston Orol dengizi havzasida yirik suv iste‘molchilaridan biri hisoblanadi. U iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish uchun oxirgi-yillarda

suvga bo'lgan ehtiyoji miqdorini oshirish masalasini qo'yimoqda. Afg'onistondagi notinch siyosiy vaziyat, hukumat almashinuvi, etnik ziddiyatlar, siyosiy-ijtimoiy tanglik, iqtisodiy inqiroz, qabilaviy qarama-qarshiliklar, umuman olganda, jamiyat barqarorligi uchun tahdidlarning ko'pligi jihatidan Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligi tizimida o'z ta'siriga ega. Shu jihatdan, mintaqada suvni adolatli taqsimlash o'zaro munosabatlarni tartibga solish zarurligiga qo'shimcha talablarni qo'yadi.

2022-yil 31-martda "Tolibon" hukumati mamlakat shimolidagi qariyb 300 kmlik yirik kanal qurilishi loyihasi taqdimotini o'tkazdi. Unga ko'ra, Balx viloyati hududida Amudaryo o'zanidan boshlanadigan Qo'shtepa kanali qurilishi e'lon qilindi. Bu kanal qurib bitkazilganda suv kam-yillarda hajmi 34 kub.kmgacha pasayib ketadigan Amudaryoning deyarli 10 kub kilometr, ya'ni uchdan bir qism suvi Afg'onistonning ichki hududlariga oqadi. Bu esa O'zbekistonning Xorazm, Buxoro, Surxondaryo va Navoiy viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun jiddiy ekologik oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Mazkur kanalni qurish bilan siyosiy va iqtisodiy manfaatlarni ko'zlagan. Afg'oniston-yillik 3%li katta demografik o'sish ko'rsatkichi bilan bugungi kunda 42 mln aholiga ega davlat. Shu jihatdan mamlakat shimoliy uchta viloyatga suv olib kelish bilan qishloq xo'jaligini rivojlantirish va bu orqali o'zining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni ko'zlamoda.

Afg'onistondagi Qo'shtepa kanalining qurilishi – 684 mln dollarlik loyiha asosida amalga oshirilmoqda. Bu mablag' iqtisodiy tang ahvoldagi Afg'onistonni qo'llab-quvvatlayotgan yirik davlatlar tomonidan ta'minlamoqdaki, yirik sarmoyador kuchlar shu orqali mintaqadagi siyosiy jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazishni maqsad qilgan.

Mazkur vaziyatda jahon hamjamiyati, xalqaro ekspert tashkilotlari, mintaqada barqaror taraqqiyotni ta'minlashdan manfaatdor tomonlarni jalb qilish va umummanfaatli qarorlarni qabul qilish, mutanosib suv taqsimoti tizimini mintaqaviy darajada takomillashtirish zarurligini

XXI asr global taraqqiyot, xalqaro va mintaqaviy integratsiya davri. Mazkur omil dunyo yetakchi davlatlarining siyosiy pozitsiyasini o'zgartirishga, siyosiy kelishmovchiliklarni qurol va siyosiy tazyiq orqali hal etib bo'lmashligini anglashlari uchun yetarli bo'lishi kerak. Iqtisodiy manfaatdorlikka ham siyosiy tazyiq, tahdid va bosim orqali erishish imkonsiz. Jahon hamjamiyati dunyo sahnasida yuz berayotgan voqea va hodisalardan yaxshi xabardor, ularning kelib chiqishi, ta'sirchanligi, sabablarini to'g'ri anglash, tezkor munosabat bildirish darajasiga yetdi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi dunyoning u chetida yuz bergan voqealar xabarini yer kurrasining boshqa qismiga soniyalar ichida yetib borishiga imkoniyat yaratdi. Davlatlar va jamiyatlarni axborot yetkazish va qabul qilishdan chegaralashga intilish hayot va taraqqiyotdan ortda qolganlarning ishi bo'ladi.

Mintaqaviy jarayonlarga aralashuv, chetdan turib ta'sir ko'rsatishga urinishlar oxir-oqibatda nafaqat bir davlat va millat, balki, umumjahon davlatlari barqarorligi, xalqaro xavfsizlik tizimlariga ham tahdid uyg'otadi. Bugungi kun manzarasi tahdidli voqea va hodisalarning seroblighi bilan xarakterlanadi.

Globalizatsiya, mintaqaviy va xalqaro integratsiya jarayonlari davlatlar, xalqlar, madaniyatlarni birlashtirishi, o'zaro chegaralarni ochishi, sivilizatsiyalar dialogiga qulay sharoitlar yaratishi kerakdek edi. Huddi shunday holat yuz berayotganini ham kuzatmoqdamiz. Lekin shu bilan birgalikda, aynan globalizatsiya jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez taraqqiy etishi ilm-fan, ma'rifat, iqtisod va gumanitar sohalar rivojini qanchalik taraqqiy ettirayotgan bo'lsa, ikkinchi tarafdin, axborot almashinuvi, ma'lumotlar yetkazishning tezligi, ularni chegaralash, to'liq ta'qiqlashning texnik imkonsizligi radikal ta'limotlar, provakatsion harakatlar, turli ekstremistik mafkuralar uchun ham qulay sharoitlar yaratmoqda.

2021-yilning dekabr oyida Qozog'istondagi sammitda davlatlar harbiy sohada ham hamkorlik qilishini bildirdi. Ya'ni, ko'rinib turibdiki, har xil tomondan tahdidlar bor. Mana shu tahdidlarga bardosh berish uchun, ularga javob qaytarish uchun hamkorlik harbiy sohaga ham

ko'rsatib turibdi. Davlat rahbarining *“eng bebaho oliy ne'mat – tinchligimiz va osoyishtaligimizning qadriga yetaylik, oilalarimiz, farzandlarimiz, kelgusi avlodlarimizning baxtu kamoli uchun bu ulug' boylikni asrab-avaylaylik!”* degan chaqirig'ida nechog'lik teran ma'no mujassam. Bu o'rinda, gap mamlakatda hukm surayotgan tinchlik, osoyishtalik, xalqlar do'stligi, millatlararo birdamlik, bag'rikenglik haqida ketmoqda. Mana shu tinchlik davrini qadriga yetish, asrab-avaylash, kelajak avlodga obod va taraqqiy etgan barqaror turmush tarziga ega jamiyatni qoldirishimiz kerakligi haqida so'zlamoda Prezident. Davlatni mustahkamligi, xavfsiz va barqaror taraqqiyoti bevosita jamiyat farovonligi, xalq roziligi, ma'naviy barkamolligi bilan bog'liq bo'lib qoldi.

### **Xulosa**

Biz yashayotgan davr rivojlangan iqtisod va yuqori texnologiyalar zamoni bo'lsa, kelajak albatta ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifat davri bo'lishiga ishonch bilan qarash mumkin. Tarixiy jarayonlar evolyusion taraqqiyot genezisida ma'naviyat, ma'rifat va madaniyat yuksak rivojlangan jamiyatlar jahonning qudratli davlatlari, imperiyalari bo'lganligini ko'p bora isbotlagan. Dunyodagi qudratli davlatlari yoki imperiyalari joylashgan mintaqalarda ilm-fan va madaniyat misli ko'rilmagan darajada taraqqiy topgan. Va aksincha, ma'rifatdan uzoqlashgan, ma'naviyati izdan chiqqan sulolalar tanazzulga uchrab, parchalanib ketgan. Bunga tarixda misollar bemsil.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlarida kechayotgan jarayonlarni kuzatib, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hamda ma'naviy-ma'rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilgan holda, mintaqani kelgusi-yillarda jahon siyosiy doiralarida markaziy o'rinlardan birini egallashiga optimistik xulosa qilish mumkin. Mintaqada bunga yetarli sharoit va salmoqli ilmiy meros, ma'naviy-ma'rifiy manbalar mavjud.

ko'rsatadi. O'zbekiston rahbari bu holatni quyidagicha ta'riflaydi *“Bugun biz yashayotgan, jarayonlar o'zaro chambarchas bog'langan dunyoda xavfli muammolar girdobidan chiqishning yakkayu yagona yo'li — konstruktiv muloqot va har bir tarafning manfaatlarini hisobga olish va hurmat qilishga asoslangan ko'p tomonlama hamkorlikdir. Aynan inqiroz va bo'hronlar davrida mamlakatlar, ular xoh katta, o'rta yoki kichik bo'lsin, o'zlarining tor doiradagi manfaatlarini ustun qo'ymasdan, aksincha, asosiy e'tiborni global hamjihatlikka qaratishlari lozim. Tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga xavf tug'dirayotgan, har qaysi mamlakatga rahna soladigan tahdid va xatarlarga qarshi umumiy sa'y-harakat va imkoniyatlarni birlashtirish va safarbar etish barchamiz uchun birdek manfaatlidir”*.

Tabiiy suv resurslari – Markaziy Osiyo respublikalari farovonligining asosiy omillaridan. Bir mamlakatda suvdan foydalanish tizimining o'zgarishi muqarrar ravishda qo'shni davlatlar manfaatlariga ham ta'sir qiladi. Markaziy Osiyo suv havzalarini boshqarishning umumiy sxemasiga ehtiyoj tabiiy shartlarga bog'liq bo'lib, o'zaro hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish va rivojlantirishni talab qiladi. Bu borada O'zbekiston rahbari mamlakatning siyosiy mavqeini quyidagicha belgilaydi: *“Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalalarni chetlab o'tolmaymiz. Bu borada BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning “Suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari – o'zaro chambarchas bog'liq”, degan fikrini to'la qo'llab-quvvatlaymiz”*.

Markaziy Osiyoda suv resurslarining strategik ahamiyatini quyidagicha izohlash mumkin:

- suv resurslari mamlakatlar barqaror taraqqiyoti omili, aholining sog'lom turmush darajasi, sanoat ishlab chiqarishining asosi;
- suv resurslari Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy va xalqaro siyosati, iqtisodi, ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shu bilan birgalikda, ulardan unumli foydalanish mintaqaning geosiyosiy, iqtisodiy va ekologik muammolaridan biri.

Mintaqada suv muammosini hal qilish darajasi alohida siyosiy yondashuvni talab qiladi, va bu vaziyat, Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaviy siyosatining yo'nalishiga bog'liq. Suv masalasi mintaqa respublikalari o'rtasida o'zaro siyosiy savdo mavzusiga ham aylanib ulgargan. Suv bilan bog'liq muammolar ba'zi hollarda mojaroli vaziyatlarni hal qilishda ma'lum bir mamlakatga bosim o'tkazish usuli sifatida ham qo'llanilish holatlari kuzatiladi.

O'zbekiston tomonidan Orol dengizining qurigan hududlariga yantoq va saksovul o'simliklari, turli daraxtlar ko'chatlarini o'tkazish yo'li orqali, mintaqada cho'llanish va tuz moddalarining ko'chish holatlari oldini olishga erishishda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tojikistonlik tadqiqotchilar esa, yirik suv omborlari va suv havzalarini barpo etish va daraxtlar o'tqazish global isish jarayonining Pomir tog'laridagi muzliklarga ta'sirini bartaraf etishi mumkin, deb hisoblashadi. Jumladan, Tojikiston Fanlar akademiyasi Muzliklarni o'rganish markazi direktori, professor A.Qayumovning fikricha, *“Suv ombori barpo etilayotganda 80-100 km radiusda havo harorati salqinlashadi. Yerlar o'zlashtirilib, daraxtlar o'tqazilib, sug'orish ishlari olib borilsa ham havo harorati 3-5 darajaga salqinlaydi.”*

Bugungi kunda global isish jarayonida Pomir tog'laridagi muzliklarning me'yorida ortiq erishi kuzatilmoqda. Tojikistondagi muzliklarning erishi butun mintaqa ekotizimiga salbiy ta'sirini o'tkazishi mumkin. Chunki ushbu muzliklar Markaziy Osiyo mintaqasidagi asosiy suv manbalaridan hisoblanadi.

Jahon banki O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi uchun 4 yo'nalishda tavsiyalar ishlab chiqdi. Jahon banki iqtisodchisi Villiam Zeyts barcha yo'nalishlar qatorida ekologik muammolar va suvdan foydalanishda-yillar davomida yo'l qo'yilgan xatolar haqida ham gapirdi.

Jahon banki joriy-yil may oyida O'zbekistonning inklyuziv rivojlanishiga oid hisobotini e'lon qildi. Tadqiqotda 4 ta rivojlanish yo'nalishlari O'zbekistonning iqtisodiy kelajagi uchun muhim omillar sifatida belgilangan:

qilinmoqda. Yoshlarning zamonaviy kasb-hunarlarini egallashi, jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallashda iqtidorli yoshlar bilan ishlashda yangicha metodlar qo'llaniladi. Shu maqsadlarda, davlatimiz rahbari tomonidan 2023-yilda ilm-fanga 1,8 trln so'm mablag' ajratilishi e'lon qilindi. O'zbekistonda mavjud oliy ta'lim muassasalari ilmiy-texnik bazasini takomillashtirish borish bilan bir qatorda, davlat xususiy-sherikchilik va nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini yo'lga qo'yishga ham katta e'tibor qaratilmoqda.

Qiyosiy olinadigan bo'lsa, 2016-yilga qadar O'zbekistonda 67 ta davlat oliy ta'lim muassasasi, 3 ta xususiy oliy ta'lim maskani mavjud edi. 2022-yil holatiga ko'ra esa, O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari soni – 170 taga, xorijiy oliy o'quv yurtlarining filiallari soni – 31 taga, xususiy oliy o'quv yurtlari soni esa – 27 taga yetdi. Ularda ta'lim olayotgan talabalarning soni – 808,4 mingtani tashkil etmoqda. Bugungi kunda oliy o'quv yurtlariga 111 mingdan ortiq talaba o'qishga qabul qilingan bo'lsa, 2022-2023 o'quv yilidan boshlab ularning soni 200 mingdan oshishi rejalashtirilgan.

O'zbekistonda yoshlarni turli kasbiy sohalarga yo'naltirish ham davlat siyosati darajasida amalga oshirilmoqda. Yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularning biror kasb bo'yicha malakasini oshirish maqsadida “Ishga marhamat-monomarkaz”lari faoliyati yo'lga qo'yildiki, ularda minglab yoshlar muayyan kasblar bo'yicha mutaxassis darajasida malakasini oshirib, ish joyi bilan ta'minlanmoqda. Bundan tashqari, innovatsion loyihalar, IT sohasi, startup loyihalarni qo'llab-quvvatlash, moliyalashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Respublikada muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinayotgan *“Million dasturchi”* loyihasi ana shulardan biri.

Zamonaviy dunyo taraqqiyotida jahon ahlining jamiyat rivojiga qarashlari, yondashuvi mutlaq yangicha munosabatda namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda ma'naviy soha shunday qudratga aylandiki, yirik iqtisodiy taraqqiy topgan jamiyatlar ham tez fursatda inqirozga uchrashi mumkinligini tarixiy va zamonaviy siyosiy-ijtimoiy jarayonlar



Yoshlar siyosati Markaziy Osiyo respublikalari hukumatlari oldidagi eng mas'uliyatli vazifa sanaladi. Jumladan O'zbekistonda yoshlar bilan ishlash bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Sotsiologik so'rov natijalari asosida tayyorlangan hisobotda aytilishicha, 15-20 yildan so'ng O'zbekiston noyob demografik dividendni qo'lga kiritadi. Tahlillarga ko'ra, 2048-yilga borib mamlakatda mehnatga layoqatli aholi soni tarixiy pik darajasiga yetishi kutilmoqda. Tabiiyki, ularning salmoqli qismini yoshlar tashkil qiladi. Hozir davlat oldidagi asosiy vazifa – demografik dividendni qo'ldan boy bermaslik hamda undan maksimal ravishda foydalanishdan iborat. O'zbekiston uchun yoshlarga oid davlat siyosatini aniq raqamlar va ilmiy xulosalar asosida amalga oshirish eng maqbul yo'l hisoblanadi.

*“O'zbekiston hukumati juda katta e'tiborini uchlamchi ta'limga qaratgan, bu – kasbiy ta'lim. Kasbiy ta'lim iqtisodiy kelajak va xalq uchun muhim, lekin aholining nisbatan kichik qismi uchlamchi ta'limga jalb qilinganini inobatga olsak, bu O'zbekistonga salbiy ta'sir qilgandi.*

*Lekin so'nggi yillarda jalb qilinuvchilarning soni o'sib bordi. Yoshlar foydalanishi mumkin bo'lgan ta'lim yo'nalishlari juda ko'p. Shuningdek, maktabgacha ta'lim, ya'ni yosh bolalar uchun ham ta'lim rivojlanmoqda”,* deydi Jahon banki iqtisodchisi Villiam Zeyts.

Zamon talablari va iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlar davrida yosh avlod talab va ehtiyojlarini tahliliy o'rganish, bu boradagi xalqaro tajribaning xalqimiz qadriyatlariga mos yangicha mexanizm va yondashuvlar asosida amaliyotga tatbiq etish vazifasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 25 foizga teng. Qabul parametrlari 2016-yilga nisbatan 2,5 barobarga o'sgan. Shunga qaramay, bu mintaqadagi eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib qolmoqda. Iqtisodchi Rauf Solixo'jaevning so'zlariga qaraganda, *“yurtimizda ko'pgina yoshlar oliy ta'lim olish imkoniyatidan mahrum bo'layotgani davlat tomonidan jiddiy e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan fundamental muammo hisoblanadi”*.

Shu jihatdan bugungi O'zbekistonda yoshlarni ta'limga ko'proq qamrab olishdan tashqari, ularni kasbiy ta'limga yo'naltirishga harakat

*Birinchi yo'nalish* – xususiy sektor asosiy yetakchi rolni bajarishi. Muvaffaqiyatli davlatlarda yuqori daromadga erishish xususiy sektor sababli amalga oshadi. Chunki ular bandlikni ta'minlash, ya'ni yangi ish o'rinlarini yaratishda katta ulushga ega. Shu sababli xususiy sektorga ishlab chiqarish omillari, kapital va yerdan teng foydalanish imkoniyatlarini yaratib berish kerak;

*Ikkinchi yo'nalish* – hukumatning vazifasi. Asosiy e'tiborni mustahkam, ishonchli tartibga soluvchi qonunchilikka qaratish kerak. Muhim talablar hukumat kuchli fiskal siyosati yuritishiga oid. Bu xususan, moliya va soliq qonunchiligini samarali amalga oshirishni, olingan mablag'larni tegishli va samarali sarflashni ta'minlashni taqozo qiladi. *“Bularning barini O'zbekiston hukumati ustuvor vazifa sifatida belgilagan, endi buni puxta ishlab chiqilgan loyihalarni amalga oshirish orqali tizimli davom ettirish kerak”,* – deydi Jahon banki iqtisodchisi Villiam Zeyts.

*Uchinchi yo'nalish* – inson kapitali va inklyuzivlik. *“Bu borada hukumat haqiqatan bir necha-yil davomida jiddiy qadamlar tashladi. O'zbekistonda ishlashning eng yaxshi jihatlaridan biri – hukumatning bu yo'nalishda amaliyotga jalb qilayotgan yirik investitsiyalaridir. Shuningdek, yana bir muhim omil – bu inson kapitaliga oid. Odamlarni sog'liqni saqlash va ta'lim imkoniyatlaridan sifatli foydalanish, keng ta'minlash va bu bilan bog'liq muammolarni hal etish juda zarur”,* deya ta'kidlaydi V.Zeyts.

*To'rtinchi yo'nalish* – ekologik barqarorlik va atrof-muhit muhofazasi. *“O'zbekiston o'tmishdan juda katta resurslarni talab qiluvchi ishlab chiqarishni meros qilib olgan. Sanoat juda katta miqdorda suv iste'mol qiladi va tovarlarni ishlab chiqarish uchun juda ko'p tabiiy resurslardan foydalanadi. Bu esa mahsulot tannarxini oshirib, mamlakatni muayyan qiyinchiliklarga qo'ymoqda”,* deya hisoblaydi mutaxassis V.Zeyts.

Ushbu resurslardan yanada samarali foydalanish uchun juda ko'p imkoniyatlar bor. Bugungi kunda O'zbekistonning zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, yashil iqtisodiyotga o'tish – qishloq xo'jaligi hamda boshqa iqtisodiyot tarmoqlarining yangicha rivojlanishiga olib

keladi. O'zbekiston hozirgi kunda sarflaydigan resurslarni juda katta miqdorda tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa, odamlarning kundalik hayotlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

*“Odamlar qadrlaydigan narsalarga ustuvor e'tibor berish muhim. Bu asosiy sabablardan biridir. Avvalroq aytdim, suvdan foydalanish va tuproq degradatsiyasi. O'zbekistonda suvdan juda ko'p noto'g'ri foydalanilgan yoki suv haddan ziyod ko'p isrof qilingan. Ba'zi yerlar hozirgi kunda qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqarilgan. Bu ko'p-yillik noto'g'ri qo'llangan amaliyotlar sababli sodir bo'lgan. O'zbekistonda ko'proq tejoychi texnologiyalarni qo'llash uchun juda katta imkoniyatlar bor. Bu orqali resurslarning hajmi oshmagan holda ko'proq o'sishni ta'minlashi mumkin”,* deydi V.Zeyts.

Har tomonlama nomaqbul siyosiy oqibatlarining oldini olish va suv resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida bir qator xalqaro ekspertlar siyosiy, iqtisodiy, ekologik va tabiiy yondashuvlarni taklif etadilar. Asosiysi siyosiy, chunki iqtisodiy va ekologik omillar ham shunga bog'liq. O'zbekiston Prezidenti *“Harakatlar strategiyasiga muvofiq, atrof-tabiiy muhitga, aholi sog'lig'i va genofondiga putur yetkazuvchi ekologik muammolarning oldini olishni o'z faoliyatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olgan edik”* degan edi.

Tadqiqotchilarning fikricha, Markaziy Osiyo respublikalari o'zaro munosabatlarining barcha sohalarida umumiy, o'zaro kelishilgan, barcha tomonlar manfaatlarini va tabiiy xususitlarini e'tiborga olgan holda siyosat yuritishi kerak. Bu birinchi navbatda, mintaqa davlatlarining milliy manfaatlarini va maqsadlarini ularning umumiy yondashuvlari, ko'zlangan maqsadlarga erishish usullarini bir nuqtada moslashtirishni nazarda tutadi. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'biricha, *“...global iqlim o'zgarishi, tabiiy boyliklar va suv resurslari tanqisligining ortishi, bioxilma-xillikka putur yetishi hamda xavfli yuqumli kasalliklar tarqalishi jamiyatlarimizning zaif tomonlarini yanada yaqqolroq ko'rsatib bermoqda. Bu muammolar insoniyat taqdiriga bevosita daxldor bo'lgan mushtarak qadriyat va ne'matlarning yemirilishiga olib kelib, odamlar hayoti va faoliyatiga tahdid solmoqda, ularning daromad manbalarini qisqartirmoqda.*

jamoatchilik ushbu voqea tashkilotchilarini ochiqchasiga ayblashdan cheklanadi.

Biroq, mintaqadagi siyosiy vaziyatni og'irlashtirish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida olib borilayotgan islohotlarning samara va natijalarini ortga surishdan ko'zlangan asosiy maqsad – siyosiy ambitsiyalar, iqtisodiy manfaatlar ekanligi hech kimga sir emas. Bu o'rinda, e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan eng muhim jihat – aholining tashqi va ichki provakatsion harakatlarga beriluvchanligidir. Bu eng katta musibat. Xalqning ma'naviy barkamollikka yetkazishda asosiy maqsad ham ana shu – xalq, millat, davlat uchun fidokor bo'lish, vatanni sevish, uni himoya qilish xislatlarini shakllantirish, xalqning va xususan yoshlarning ma'naviy immunitetini ko'tarishdan iborat.

Markaziy Osiyo bugungi kunda tez rivojlanayotgan o'lka sifatida jahon hamjamiyatchiligi e'tirofiga loyiq. Mintaqada iqtisodiy sohalaridagi yutuqlar, bunyodkorlik sohasidagi amaliy natijalar, savdo-sotiq, ishlab chiqarish, san'at, madaniyat, ta'lim, turizm, sport kabi ko'plab jabhalardagi samarali ijobiy o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Markaziy Osiyo demografik jihatdan tez o'sayotgan mintaq. Bu omil, albatta, demografik jihatdan tanazzulga yuz tutayotgan davlatlar jamiyatlari uchun jiddiy signal. Mintaqa respublikalarining mustaqil tashqi siyosati, jahon siyosiy maydonida o'zining munosib o'rnini egallash borasidagi izchil siyosati gegemon siyosiy kuchlarning unga nisbatan ta'sirchan yashirin tazyiqlarni o'tkazishga intilishiga sabab bo'lmoqda.

2022-yil holatiga ko'ra, jahondagi xavfsiz davlatlar reytingiga kiritilgan 163 davlat orasida Afg'oniston oxirgi o'rinda. Rossiya 160-o'rinni, Ukraina esa 153-o'rinni egallagan. Bu uchala davlat ham eng xavfli davlatlar guruhiga kirgan. Turkmaniston 104, Qozog'iston 97, Tojikiston 92, Qirg'iziston 91, O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng xavfsiz davlat sifatida 86-o'rinni egalladi. Shuni ta'kidlash kerakki, reytingga ko'ra, Markaziy Osiyoning barcha respublikalari Isroil, AQSh va Turkiya kabi davlatlarga qaraganda xavfsizroq bo'lib chiqdi.



ta'lim-tarbiya berishda odob-axloq masalalariga jiddiy e'tibor qaratiladi. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy soha rivoji bo'yicha mas'ul bo'lgan davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirishga davlat siyosati darajasida qaraladi.

Shu jihatdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisdagi murojaatnomasida yoshlarga ta'lim va tarbiya berish bilan bir qatorda, ularning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, Vatanni sevish, himoya qilish, millati bilan g'ururlanish tuyg'ularini ham singdirib borishning muhimligi alohida ta'kidlab o'tilishi ham bejiz emas. Buning eng asosiy vositalaridan biri esa, shubhasiz, ta'lim-tarbiyadir. Yoshlarni ma'naviy barkamol, ma'rifiy bilimdon, zakovatli, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, ularning ona yurtga mehri va sadoqatini oshirishga yanada ko'proq ahamiyat berish kerak.

Ta'lim-tarbiya barqaror taraqqiyot yo'lini tanlagan davlatning poydevori mustahkamligini ta'minlaydigan omillardan. Shunday ekan, ana shu poydevorni asrlar davomida shakllanib kelgan milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz, ulug' ajdodlarimizning o'g'itlari, bebaho ilmiy merosini yanada chuqurroq o'rganish, o'rgatish, teran anglash bilan mustahkamlashimiz kerak.

Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan buyuk allomalar va mutafakkirlar ma'naviyat va ma'rifatga shunday ulkan hissa qo'shganlarki, asrlar o'tsada, ularning bebaho ilmiy merosi bugungi kunga qadar ham xalqlarimiz ma'anaviy dunyosini boyitishda, yosh avlodni tarbiyalashda dasturul-amal bo'lib xizmat qilmoqda. Xalqimizning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – davlatning ustivor siyosati, davrning prioritet talabi bo'lib qolmoqda.

Markaziy Osiyo respublikalarida yuz bergan siyosiy tanglik – mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikka jiddiy siyosiy tahdid mavjudligi 2022-yil yanvar, iyul voqealarida yanada o'z aksini topdi. Tahlilchilar mazkur hodisalarda tashqi kuchlarning ta'siri haqida ham ma'lumotlar berishdi. Diplomatik etiketning nozik nuqtalarini e'tiborga olgan holda,

*Bunday murakkab sharoitda bir xaqiqat aniq: hech bir mamlakat yolg'iz holda ushbu global xavf-xatarlarni chetlab o'tish yoki bartaraf etishga qodir emas”.*

Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy o'sish va o'zaro integratsiyaga qaratilgan umumiy siyosati – ularning hamkorlik aloqalari, umumiy muammolarni, shu jumladan, ekologik va suv bilan bog'liq muammolarni birgalikda bartaraf etishga yordam beradi.

### ***Demografiya***

Markaziy Osiyo demografik jihatdan tez o'sayotgan mintaqalar sirasiga kiradi. 2022-yil holatiga ko'ra, Markaziy Osiyoda 80 mlndan ortiq aholi istiqomat qilmoqda, shundan O'zbekiston aholisi 45%ni, Qozog'iston 25%ni, Tojikiston 13%ni, Qirg'iziston 8,5%ni, Turkmaniston 8,5%ni tashkil etadi. Aholi qatlamining aksariyat qismi – 60 foizdan ortig'i yoshlardan iborat, aholining o'rtacha yoshi 28 yoshni tashkil etadi.

1990-yilga qadar mintaqada nisbatan aholining o'rtacha-yillik o'sish sur'ati 3% ni tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda o'rtacha o'sish sur'ati 2,4% atrofida. BMT ekspertlari prognoziga ko'ra, Markaziy Osiyo aholisi 2030-yilda 84 mln, 2050-yilda 90 mln, 2100-yilda 100 mln kishini tashkil etishi mumkin.

Demografik vaziyatning tahlillariga binoan, kelajakda Tojikistonda aholining o'sishi sur'ati tezlashadi, O'zbekistonda esa, 2050-yildan boshlab aholining o'sish sur'ati kamayib borishi mumkin. Mintaqa bo'ylab tug'ilish darajasi global masshtabda o'rtacha ko'rsatkichdan pastga tushadi, o'rtacha umr ko'rish Turkmanistondan tashqari hamma joyda 80 yoshdan yuqori bo'ladi (*rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich – 90 yoshni tashkil qiladi*).

Demografik muammolarni hal qilish bo'yicha puxta o'ylangan siyosat va uni aniq amalga oshirmasdan turib, Markaziy Osiyo mamlakatlarida aholining o'sishi iqtisodiyotga og'ir yuk bo'lib qoladi va bu qashshoqlikni oshiradi.

Demografik holat toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyoj, oziq-ovqat, energiya ta'minoti strategiyasini belgilovchi omillar, shuningdek,

hozirgi kunda va kelajakda ham mintaqadagi davlatlararo munosabatlar ahvoli, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Demografik o'sishning ijobiy tomonlaridan biri – bu mintaqa mamlakatlari uchun millatni saqlash, mehnatdagi ishchi kuchi va inson resurslari salohiyati uchun yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi. Biroq iqtisodiyotida muammolar mavjud bo'lgan ayrim Markaziy Osiyo respublikalarida kuzatilayotgan kambag'allik, aholi ko'pligi, resurslar, yer, suv va ish o'rinlarining yetishmovchiligi bilan bog'liq ijtimoiy vaziyatning yomonlashuviga olib keladi.

Mahalliy urf-odatlar va diniy tamoyillar Markaziy Osiyo respublikalarida tug'ilishga ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda. Islom dini oilani rejalashtirishni ta'qiqlamaydi va farzand tarbiyalashda ota-onadan katta mas'uliyatni talab qiladi. O'zbek tadqiqotchisi Azamat Saitovning aytishicha, *“...diniy, an'anaviy va oilaviy qadriyatlar O'zbekistonda tug'ilish darajasining yuqoriligiga doimo ta'sir etib kelgan va hozir ham bu jarayon davom etmoqda. O'zbekistonda oila qurish masalasi ustuvor o'rinlarni egallaydi. Rivojlangan mamlakatlarda nikoh yoshi 30 yoshdan yanada uzoqlashib borayotgan bo'lsa, O'zbekistonda bu yosh erkaklar uchun 23-25 yosh, ayollar uchun esa undan ham kam”*. Qirg'izistonlik ekspert Nurbibi Karimova ham *“Qirg'izistondagi demografik jarayonlarda din katta rol o'ynaydi”*, deb hisoblaydi.

Markaziy Osiyolik ekspertlar ta'lim va urbanizatsiya darajasini oshirish Markaziy Osiyo aholisining hayot sifatini yaxshilashga yordam berishini ta'kidlaydilar. Shaharlarda ta'lim darajasi, tibbiyotdan foydalanish holati yaxshiroq, yashash standarti yuqori hisoblanadi. Buning aksicha, qishloq joylardagi bolalar ko'proq qiyinchiliklarga uchraydilar. Shaharlarda istiqomat qiladigan ayollarning aksariyati ma'lumotli va o'zlarining karyeralarini qurishga e'tibor berishsa, qishloqlarda ayollar uy-joy, mol-hol bilan ovora.

Hududi bo'yicha dunyoda to'qqizinchi o'rinda turuvchi Qozog'istonda aholi zichligi eng past ko'rsatkichga ega. 2020-yilga kelib, aholi zichligi har kvadrat kilometrga 6,8 kishini tashkil qiladi. 2022-yil avgust holatiga ko'ra, Qozog'iston aholisi 19,6 mln kishiga

Qirg'izistonda oxirgi o'n-yilliklarda yuz bergan voqealarda, rangli inqiloblarning tez va shiddatli tus olishi holati hukumat uchun jiddiy signal bo'ldi. Aholining noroziligiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday omillarni bartaraf etish hukmron siyosiy doiralarning asosiy vazifa bo'lib qoldi. Shu jihatdan, bugungi kunda qirg'iz xalqining adolatsizlikka, nohaqlikka toqatsizligini qayta tekshirishga hojat qoldirmaslikka urinilmoqda.

Ma'naviyat turkmanlar uchun ham maqsad va hayot yo'li ekanligini singdiradigan davlat siyosiy mafkurasi sifatida shakllangan. Shu sababli eng yaxshi madaniy an'ana va urf-odatlarini qayta tiklash mustaqillikning dastlabki-yillaridan boshlab, Turkmanistonning davlat sifatida shakllanishining asosiy shartlaridan biriga aylangan. Turkmanlar aktual vazifa sifatida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, otabobolari merosini asrab-avaylash va ularning o'g'itlariga amal qilishni belgilab olishgan.

Turkmanistonda millat allomalari va mutafakkirlari Mahtumquli, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nurmuhammad Andalip, Oshiq Oydin kabi tariqat vakillarining hayoti va ijodi keng o'rganiladi va o'rgatiladi. Ularning dunyoqarashlari, falsafasi, mafkuralari targ'ibot qilinadi.

Turkmanistonda yosh avlodga milliy g'urur g'oyalarini singdirish ma'naviyat sohasining asosiy vazifasi hisoblanadi. Mamlakatda ma'naviy tarbiya yoshlarga bolalik davridan, o'rta ta'lim bosqichlaridan boshlab o'qitiladi.

Tojikistonda millat ma'naviyati va ma'rifatini mustahkamlash ishlari ham mustaqillikning ilk davridanoq boshlangan. Tojikiston ma'naviy soha rivojiga katta e'tibor qaratadigan davlatlar sirasiga kiradi. Mamlakatda milliy urf-odatlar, qadriyatlar, kiyinish odoblari ham islom dini tamoyillari bilan chambarchas bog'langanligini ko'rish mumkin. Tojikistonda din siyosatdan ajratilgan bo'lsada, islom xalqning milliy qadriyatlari, ma'naviy hayotida markaziy o'rin egallab keladi.

O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar doimo hukumatning diqqat markazida bo'lib kelgan sohalardan. Xalqimizning ma'naviy dunyosini boyitish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni ulug'lash, yoshlarga

bo'ldik. Bu o'rinda, mintaqa xalqlarining ko'p millatliligi, diniy bag'rikenglik kabi insoniy xislatlar muhim imtihondan o'tdi. Respublikalarda iqtisodiy-ijtimoiy sohalardagi kamchiliklar siyosiy muvozanatga ta'sir eta olish mexanizmiga ega ekanligini isbotladi.

Mintaqa davlatlarida umume'tirof etilgan – iqtisodiy taraqqiyotning sekin borishi, kambag'allik darajasining ortishi, yetishmovchiliklar, ta'lim, tibbiyot, ishsizlik, inflyatsiya, noqonuniy migratsiya kabi ijtimoiy-gumanitar muammolar jamiyat barqarorligi va taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Ana shunday muammolardan biri aholining ma'naviy hayoti, dunyoqarashining shakllanishi bilan ham bog'liq. Iqtisodiy qashshoqlikni turli islohotlar va moliyaviy yordamlar asosida imkon darajasida intensiv hal etish mexanizmlari mavjud. Biroq, ma'naviy qashshoqlikni bartaraf etish – anchayin murakkab vazifa. Uni-yillar davomida buyuk islohotlar, ta'lim-tarbiya va ma'rifat asosida amalga oshirish mumkin.

Bugungi kunda davlatning qudrati uning iqtisodiy imkoniyatlarida emas, balki ma'naviyati, ilm-fani va millat mafkurasining takomilliyligiga bog'liq bo'lib qoldi. *“Bugungi kunda jahon tajribasi dunyoda yetakchilik qilayotgan davlatlar o'zlarining YaIM bo'yicha o'sish sur'atining yuqoriligi bilan emas, balki mafkuraviy sohadagi yutuqlari bilan oldinda ekanligini ko'rsatmoqda. Bular albatta, AQSh, Xitoy va Yevropa Ittifoqining ba'zi davlatlaridir”*, deb yozadi rus tadqiqotchisi Yu.Rusakova.

Shu jihatdan, Markaziy Osiyo respublikalarida oxirgi-yillarda ma'naviy-ma'rifiy sohani takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Qozog'iston voqealari hukumatni aholini barcha qatlamlari bilan jiddiy ishlashga, xususan, yoshlar qatlamiga katta e'tibor qaratishga undadi. Qozog'iston hukumati tomonidan mamlakatda iqtisodiy va xossatan ijtimoiy sohalarda islohotlar olib borish – davlatning birlamchi va ustivor siyosati vazifasiga aylantirildi. Qozog'istonda xalqning yot g'oyalarga, tashqi mafkuralar ta'siriga tushib qolmasligi uchun milliy g'oya va mafkura, qozoq millatchiligi va ma'naviyati qadriyatlarini targ'ib qilish ishlarini rivojlantirish harakatlari faollashdi.

yetdi. O'zbekiston aholi zichligi bo'yicha mintaqada yetakchi. 2022-yilda O'zbekistonda aholi zichligi bo'yicha 1 kv.kmga 78,9 kishini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich Qirg'izistonda 52 kishini, Turkmanistonda 12,6 kishini, Tojikistonda 65,5 kishini tashkil etadi.

Markaziy Osiyo davlatlari hukumatlari demografik holat bilan bog'liq muammolarni hal qilish zarurligini tushunadilar. Mamlakatlar bu borada davlat dasturlari va strategiyalarini qabul qildilar. Biroq, ushbu dasturlarning barchasini amalga oshirish salmoqli moliyaviy resurslarni talab qiladi. Markazi Osiyo aholisining 48% shaharlarda, 52% qishloqlarda yashaydi, bu esa mintaqani qishloq aholisi ustun bo'lgan xarakterini tavsiflaydi.

Demografik o'sishning salbiy tomoni esa – ijtimoiy bosim, ta'lim, tibbiyot va boshqa infrastrukturarga sarflanadigan xarajatlarning ortishi, iqtisodiy qiyinchiliklar, ish o'rinlarining yetishmasligi, ishchi kuchini eksport qilishning doimiy ehtiyoji.

Markaziy Osiyodagi demografik vaziyat keyingi 20-yil ichida bir qator ijobiy samaralar ham berishi kuzatilmoqda. Aholining aksariyat qismini yoshlarning tashkil etishi – jamiyatning yosharib borishi, iqtisodning o'sishini, ijtimoiy infratuzilmalarning rivojlanishi, ishchi kuchining yetarli darajada bo'lishi kabi omillarga xizmat qiladi. Hukumat tomonidan muvozanatli nazorat qilinadigan demografik vaziyat, albatta, Markaziy Osiyodagi iqtisodiy o'sishga yordam beradi.

### *Iqtisod*

Markaziy Osiyo respublikalarining iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari mustaqillikdan keyingi o'zgarishlar davrida tez rivojlanayotgan mintaqaga aylanib borayotganini ko'rsatmoqda.

2019-yilda ushbu mintaqa davlatlarida umumiy YaIM 300 mlrd dollarni, 2020-yilda 285 mlrd dollarni tashkil etdi. 2021-yil oxirida ushbu ko'rsatkich yana oshib, 290 mlrd dollar ko'rsatkichiga yetdi. So'nggi yigirma-yil ichida Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyoti-yiliga o'rtacha 6,7%ga o'sdi. Agar 2000-yilda Markaziy Osiyoda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot rivojlangan

mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining oltidan bir qismiga teng bo'lgan bo'lsa, 2020-yilda bu farq 2,6 baravarga qisqardi.

Tabiiy energetika zaxiralarini qazib olish va metallurgiya ishlab chiqarish ulushi deyarli barcha mamlakatlarda oshgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi sektori boshqa tarmoqlarga nisbatan kamaydi.

Qozog'iston va Turkmaniston iqtisodiyotida tabiiy uglevodorod xom-ashyolarini eksport qilish ustunlik qilishda davom etmoqda, xomashyo asosan xorijiy mamlakatlarga (*Yevropa, Xitoy, Rossiya*) yetkazib beriladi. Oxirgi 15-yil ichida ushbu davlatlarda YaIM qiymati mintaqaning qolgan respublikalariga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi. 2020-yilda YaIM kishi boshiga – Qozog'istonda 9060 dollar, Turkmanistonda 8074 dollar, O'zbekistonda 1983 dollar, Qirg'izistonda 1148 dollar, Tojikistonda 733 dollarni tashkil qildi.

Markaziy Osiyo respublikalarida yoqilg'i energetika resurslari iqtisodiy o'sishning drayverlaridan hisoblanadi. Qozog'iston energetika balansining asosini ko'mir, O'zbekiston va Turkmanistonniki gaz, Qirg'iziston va Tojikistonda gidroenergetika markaziy o'rin egallaydi.

Qozog'iston bugungi kunda YaIM bo'yicha mintaqadagi yirik iqtisodiyotga ega. 2021-yilda uning iqtisodiyoti 4% ga o'sdi va mutaxassislarning tahliliga ko'ra yaqin 2023-2026-yillarda o'rtacha o'sish sur'ati 4%dan oshishi prognoz qilingan. 2022-yil yanvar oyidagi siyosiy inqiroz Qozog'iston iqtisodining 2022-yildagi natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsada, uning uzoq muddatli istiqbollari xalaqit bermaydi.

Qozog'iston hukumati iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi – neft va metallurgiya mahsulotlarini eksport qilishga asoslangan hozirgi o'sish strategiyasidan tarkibiy iqtisodiy islohotlarga asoslangan siyosatga o'tish. Buning natijasida barqaror rivojlanishni ta'minlash, mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish va uning ishbilarmonlik muhitini yaxshilashdir.

Qozog'iston mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan bir nechta davlat dasturlarini amalga oshirmoqda. Inflyatsiyani jilovlash, erkin o'zgaruvchan valyuta kursi rejimiga o'tish rasmiylarga tashqi shoklarning salbiy ta'sirini

## **6. Markaziy Osiyo respublikalarida ijtimoiy-ma'naviy hayot va yoshlar tarbiyasi**

Oxirgi-yillarda Markaziy Osiyo respublikalarida sodir bo'lgan voqea va hodisalar mintaqa davlatlaridagi siyosiy-ijtimoiy hayotning o'ziga xos bir murakkab davrni boshidan kechirayotganidan darak berdi. Qirg'izistonda bir necha bor yuz bergan rangli inqiloblar mintaqada siyosiy muvozanatni saqlashni o'ta dolzarb vazifa ekanligidan dalolat edi. Buni o'z vaqtida anglash, davlat siyosatida tubdan islohotlar o'tkazish, ijtimoiy-gumanitar sohalar rivojiga jiddiy e'tibor qaratish davr talabiga aylangan. Globalizatsiya sharoitida arzimagan bir hodisa ortidan yuzaga kelgan ziddiyat tez fursatda bir manzildan davlat miqyosiga, mintaqaviy masshtab doirasiga ko'tarilish xavfiga ega ekanligini zamonaviy jarayonlar evolyusiyasi yaqqol namoyon etdi.

2010-yil aprelida Qirg'iziston Prezidentini amalidan ketkazgan va ikkinchi inqilobga yo'l ochgan g'alayonlar ham aynan energiya taqchilligi va elektr narxlarining oshib ketganiga qarshi norozilik sifatida boshlangandi. 2022-yil yanvarda Qozog'istonda xalq neft va gaz mahsulotlari narxining oshishiga qarshi norozilik harakatlari ortidan junbushga keldi.-yillar davomida yig'ilib kelgan muammolar, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi vazifalarni hal etishdagi loqaydligi aynan shu davrda xalq noroziligida o'z aksini topdi.

2022-yilning yanvar oyida Qozog'istonda, iyul oyida Qoraqalpog'istonda yuz bergan “Nukus voqealari” hukumat doiralarida davlat suvereniteti, hududiy yaxlitligi va daxlsizligini ta'minlashdagi siyosatda yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatdi. Ushbu voqea-hodisalar mintaqaning siyosiy-ijtimoiy jarayonlarini puxta tahlil etish, mazkur jarayonlar mintaqa “*tez ijtimoiy portlashi mumkin*” bo'lgan hudud ekanligini isbotladi. “*Ayni muammolar va voqealiklar qachon va qandayin portlashga yetaklashini hech kim bashorat qila olmaydi*”, deydi tahlilchi Rasul Jumali.

Markaziy Osiyoda siyosiy-iqtisodiy taraqqiyotning borishi harakati ijtimoiy jarayonlarga qanday ta'sir etishi mumkinligini shohidi



O‘zbekistonning ochiqlik va hamkorlikni kengaytirish siyosati (*birinchi navbatda, qo‘shni davlatlar bilan*) natijasida fuqarolarning o‘zaro safarlari soni, shuningdek, turizm oqimi sezilarli darajada oshdi. 2018-yilda O‘zbekistonga 2,3 baravar ko‘p xorijliklar kirib keldi. O‘zbekistonga kirib kelgan xorijliklarning 85 foizdan ortig‘i Markaziy Osiyo mintaqasi aholisi bo‘lib, chet elga ketgan davlatimiz fuqarolarining 83 foizdan ortig‘i ham Markaziy Osiyo davlatlariga tashrif buyurgan.

Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan olib borilayotgan ochiqlik va o‘zaro manfaatli hamkorlik siyosati mintaqada ishonch va yaxshi qo‘shnichilik muhitini yaratishda O‘zbekistonning roli jahon hamjamiyatchiligi tomonidan e‘tirof etilmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik, xavfsizlik makoniga aylantirishga tayyorligini bildirgan O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda.

“Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammiti: o‘zaro bog‘liqlikdagi dunyoda muloqot va hamkorlik” maqolasida O‘zbekiston prezidenti “...mamlakatimizning *ShHTga raisligi yurtimizda keyingi olti-yilda amalga oshirib kelinayotgan faol va ochiq tashqi siyosatning mantiqiy davomi bo‘ldi. Bu siyosat, eng avvalo, ShHTning geografik o‘zagi bo‘lmish, bugungi kunda yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlikni mustahkamlash borasida ijobiy va ortga qaytmas jarayonlar ro‘y berayotgan Markaziy Osiyo mintaqasida amalga oshmoqda. ShHTga a‘zo barcha davlatlar — eng yaqin qo‘shnilarimiz, do‘stlarimiz va strategik hamkorlarimizdir*” degan fikrni ilgari suradi.

2021-yil 15-iyundagi xalqaro konferensiyada O‘zbekiston prezidenti nutq so‘zlab “*Markaziy va Janubiy Osiyoning tarixiy, madaniy va sivilizatsiya hamjamiyati, mamlakatlarimiz va xalqlarimizning bir-biriga to‘g‘ri keladigan manfaatli biz umumiy farovon kelajakni qurishimiz uchun mustahkam asosdir. Biz birgalikda Markaziy va Janubiy Osiyoni, butun Yevrosiyo qit‘asini barqaror, iqtisodiy rivojlangan va farovon makonga aylantirishimiz kerak bo‘ladi*”, degan edi.

yumshatish uchun qo‘shimcha vositalar berdi va muvozanatli makroiqtisodiy siyosat olib borishga imkoniyat yaratdi.

Qozog‘iston iqtisodiy jihatdan Markaziy Osiyoda obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra yetakchi davlat. “*Qozog‘istonning birinchi prezidenti N.Nazarboev Sovet ittifoqidan qolib ketgan iqtisodiy tizimini birinchi bo‘lib o‘zgartirdi, davlatga tegishli bo‘lgan davlat mulki xususiy lashtirildi. 2000-yillarning boshida Qozog‘iston shu yo‘l orqali chet el investorlarini jalb qila oldi. Iqtisodiy sohalarga yirik xorijiy investitsiyalar kiritildi. Buning natijasida davlat mulki xususiy lashtirdi*”, deydi iqtisodchi Sh.Rasulov.

Qozog‘iston va Turkmanistonning tashqi savdosi asosan MDH mamlakatlariga, shuningdek, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Rossiyaga uglevodorod energetika xom-ashyosi yetkazib berilsa, ulardan zamonaviy texnologiyalar, mashina va uskunalar, oziq-ovqat va farmasevtika mahsulotlari import qilinadi. Shu munosabat bilan qo‘shni davlatlar ichki bozorlariga o‘zaro kirish imkoniyatlarini kengaytirish ularning tayyor mahsulotlar eksportini ko‘paytirish vazifalarini hal qilishga katta hissa qo‘shadi, ko‘plab birlamchi bo‘lmagan tovarlarning o‘zaro savdosida ular raqobatchilar emas, balki o‘zaro manfaatli sheriklar hisoblanadi.

Qozog‘iston yirik neft va gaz zaxiralariga ega davlat. Qozog‘iston Prezidenti Q.To‘qayev 2019-yilda Xitoy bilan iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha juda katta iqtisodiy dasturni e‘lon qildi. Unga ko‘ra, Xitoy 2030-yilgacha Qozog‘iston iqtisodiyotiga 22 milliard dollar miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya kiritishni mo‘ljallamoqda. Bu loyiha bo‘yicha, Qozog‘istonda Xitoyning 55 ta zavod va fabrikalari qurilishi rejalashtirilgan.

Markaziy Osiyoda sanoat va qishloq xo‘jaligi klasterlarini yaratish, tovar ishlab chiqaruvchilarning eksport imkoniyatlarini oshirish respublikalar iqtisodiy o‘sishi uchun muhim sanaladi. Bu haqda O‘zbekiston rahbari “*Agrar sohadagi klasterlar va korporatsiyalar faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlaymiz. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va iste‘mol ratsionini yaxshilash davlat siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib qolaveradi*”, degan edi.

Shu munosabat bilan mintaqaviy qiymat zanjirlarini rivojlantirish uchun transchegaraviy savdo va investitsiyalarni ko'paytirish choralari ko'rish kerak.

O'zbekiston iqtisodiyoti 2017-yildan buyon ochiqlik va hamkorlikka asoslangan "yangi o'zbek diplomatiyasi" tufayli dunyoga ochilmoqda. Markaziy Osiyo YaIMning 20 foiziga ega O'zbekistonda 36 mln aholi yashaydi. O'zbekistonda YaIM bo'yicha o'sish sur'ati 2018-yilda 5,1%, 2019-yilda 5,5%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 5,8% yetdi.

Mamlakat tabiiy resurslarga boy. O'zbekiston hukumati tomonidan 2017-yilda boshlangan tarkibiy o'zgartirish va islohotlar investitsiya muhitini sezilarli darajada yaxshiladi. Kelajakdagi iqtisodiy o'sishni moliyalashtirish uchun tashqi sarmoyalarni jalb qilishning yangi mexanizmlari ishlab chiqilib, xorijiy investorlar uchun qulay imkoniyatlar yaratilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, xalq farovonligi va hayoti darajasini oshirish maqsadida keng ko'lamlı islohotlar dasturini jadallik bilan olib bormoqda. Mazkur siyosatning muvaffaqiyati respublikaning tashqi hamkorlari bilan samarali aloqalarini yangi sifat bosqichiga olib chiqqanligi bilan ham bog'liq.

Shu jihatdan, O'zbekistonning Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Misr Arab Respublikasi, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arablar Amirliklari, Quvayt, Qatar, O'mon sultonligi, Hindiston va boshqa mamlakatlar bilan munosabatlari tubdan yangi darajaga chiqmoqda. O'zaro manfaatli va har tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlash O'zbekistonning tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Bu haqda O'zbekiston tashqi ishlar vaziri o'rinbosari Furqat Siddiqov, *"...Davlatimiz rahbari tomonidan, tashqi siyosiy faoliyatimizni ustuvor tamoyillaridan biri deb, birinchi navbatda, mintaqamizda, xususan, qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston Respublikalari va Turkmaniston bilan hamda jahonning yetakchi mamlakatlari (Rossiya, AQSh, Xitoy, shuningdek, Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharqdagi qator davlatlar) bilan ochiq, pragmatik va amaliy*

O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik, do'stona va o'zaro manfaatli munosabatlarni yaxshilash va mustahkamlashga qaratilgan tashqi siyosati Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni rivojlantirish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, shuningdek, transport sohasida o'zaro hamkorlik uchun ishonchli asos yaratdi. *"Samarali xalqaro hamkorlik – bu dunyoda barqaror, ishonchli va farovon taraqqiyotning eng muhim omilidir. Aynan shunday yondashuv zamonamizning dolzarb muammolarini bahamjihat hal etish, yangi xavf-xatar va ijtimoiy larzalardan himoyalash uchun eng aniq, maqbul va samarali yo'l hisoblanadi"*, deydi O'zbekiston prezidenti.

Markaziy Osiyo bozorining O'zbekiston uchun tayyor mahsulotlarni eksport qilishdagi ahamiyati, quyidagi ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi: 2020-yilda barcha qishloq xo'jaligi eksportidan 25,5 foiz mahsulot Qozog'istonga, 18,8 foiz Qirg'izistonga eksport qilindi. Shuningdek, Qirg'iziston barcha to'qimachilik eksportining 14,7 foizini yetkazib berdi. Elektrotexnika sanoatining ayrim tovar buyumlari, xususan maishiy texnika uchun ham eksportning asosiy ulushi Markaziy Osiyo mamlakatlariga to'g'ri keladi.

O'zbekiston bilan Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi sarmoyaviy hamkorlik ham jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Birgina 2021-yil davomida O'zbekistonda Qozog'iston kapitali bilan ro'yxatga olingan korxonalar soni 809 dan 919 ga (*jami 7,8 foiz*), Qirg'iziston 156 dan 187 ga (*1,6*), Tojikiston 161 dan 183 ga (*1,6*) va Turkmaniston 148 va 162 (*1,4*) taga o'sdi.

O'zbek kapitali Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham faol ishtirok etmoqda, masalan, Tojikiston va Qirg'izistonda maishiy texnika ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Qozog'istonda avtomobillarni yig'ish bo'yicha qo'shma korxonalar va to'qimachilik fabrikasi ochildi. Maishiy texnika ishlab chiqaradigan zavod ochish rejalashtirilgan. Qozog'istonda, jami 2019-yil yakunlari bo'yicha, O'zbekiston kapitali ishtirokidagi 1150 dan ortiq korxonalar (*jami 6,6 foiz*) o'z faoliyatini amalga oshirdi, ulardan 420 dan ortig'i qo'shma korxonalardir.



*o'tmish va umumiy kelajak, barqaror taraqqiyot va o'zaro farovonlik yo'lidagi hamkorlik"* mavzusidagi oliy darajadagi xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Ushbu anjumanning muvaffaqiyatli o'tkazilishi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2018-yil 22 iyunda "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" maxsus rezolyusiyasining bir ovozdan qabul qilinishiga yordam berdi.

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida 2020-yilda mintaqada davlatlari o'rtasidagi hamkorlik mavzusiga ham alohida e'tibor qaratilib, mintaqada davlatlari o'rtasidagi munosabatlarda qo'shnichilik va o'zaro ishonch, do'stlik va hurmat shakllanganligi ta'kidlandi "*Hamma uchun qiyin bo'lgan bu paytda davlatlarimiz bir-biridan uzoqlashmay, o'zaro ko'mak ko'rsatishdi*".

Markaziy Osiyo mamlakatlari oldida muhim strategik vazifa – mintaqaning global iqtisodiy, transport va tranzit koridorlariga chuqur integratsiyalashuvini ta'minlash masalasi turganligini inobatga olib, Prezident o'z nutqida BMT shafeligida transport va kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish mintaqaviy markazini tashkil etishni taklif qildi.

O'zbekiston Prezidentining Markaziy Osiyo mamlakatlari davlat rahbarlarining muntazam maslahatlashuv uchrashuvlari formatini yaratish borasidagi tashabbusi ham mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

Birinchi uchrashuv Qozog'istonda 2018-yil 15-martda, ikkinchisi 2019-yil 30-noyabrda O'zbekistonda bo'lib o'tdi, unda savdo to'siqlarini olib tashlash, mamlakatlar o'rtasidagi yaqin sanoat kooperatsiyasi, mintaqaviy darajadagi aloqalar, energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va kengaytirish bo'yicha yirik loyihalarni ilgari surish masalalari muhokama qilindi. Mintaqadagi tranzit imkoniyatlari, shuningdek, fan, ta'lim, turizm, madaniyat va sport sohalaridagi o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yildi. Mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda ko'p tomonlama hamkorlik munosabatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

*yondashuv asosida, ikki hamda ko'p tomonlama, barcha yo'nalishlardagi munosabatlarimizni rivojlantirish va kengaytirish belgilangan"* deb ta'rif bergan edi.

O'zbekistonga kapital kirib kela boshladi. So'nggi yillarda faqatgina Rossiya investitsiyalarining o'zi ikki baravar ko'paydi. 2020-yilda Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi tovar aylanmasi qariyb 6 mlrd dollarni tashkil qilgan bo'lsa, o'rta muddatli istiqbolda uni 10 mlrd dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro savdo hajmi kelajakda bir necha barobar oshishi kutilmoqda.

Strategik nuqtai nazardan, O'zbekistonning dengiz suv yo'llariga chiqish imkoniyatlarini yaratish muhim. Bu o'z navbatida, O'zbekistonning jahonning yangi eksport bozorlariga chiqish, milliy iqtisodni xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi va mahsulotlar ta'minoti zanjiriga chuqur integratsiyasini ta'minlash kabi qator strategik maqsadlari va bu boradagi tizimli intilishlarini e'tirof etish lozim. Mazkur masalani hal etishda Turkiya va Eron bilan o'zaro hamkorlik aloqalari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida, iqtisodiy diplomatiyani rivojlantirishga oid chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, xorijiy mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ilmiy-ma'rifiy, madaniy-gumanitar va siyosiy sohalarida, shuningdek, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashda hamkorlikni yanada faollashtirish markaziy o'rin egallaydi.

Ushbu rejada O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va tadbirkorlik subyektlari uchun xorijiy bozorlarga chiqish, investitsiyalar jalb qilish, jahon bozoriga O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni yetkazish tartiblarini soddalashtirish va qulayliklar yaratish nazarda tutilgan.

O'zbekiston hukumati yanada ochiqlikni ta'minlash uchun tashqi siyosatini qayta ko'rib chiqqach, Markaziy Osiyoning umumiy salohiyati ham oshdi. Mintaqada o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan transchegaraviy transport, logistika va energetika loyihalarini amalga oshirish dolzarb mavzuga aylandi, va bu kelajakda jadal rivojlanayotgan Osiyo bozorlariga yangi yo'laklarni ochadi.

2021-yilda O‘zbekiston YaIM o‘rtacha 69,2 mlrd dollarga teng bo‘ldi. Aholi jon boshiga YaIM 21,04 mln so‘mni, ya‘ni 1983 dollarni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich 2020-yildagi biroz pasayishdan keyin 5,3 foizga o‘tdi.

Jahon banki O‘zbekistonning iqtisodiy o‘stishi darajasi 6,2%ni ijobiy ekanligini tasdiqlaydi. Tahlillarga ko‘ra, 2022-yilda O‘zbekiston iqtisodiyoti 5,8 foizga o‘tdi – bu Markaziy Osiyo va Yevropa mamlakatlari orasida eng yaxshi ko‘rsatkich hisoblanadi.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun suv resurslari bilan bog‘liq yana bir muammo oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash. Mamlakatlar o‘rtasida sezilarli darajada o‘zgarib turadigan jon boshiga don mahsulotlarini yetishtirish muhim vazifa sifatida qaralishi kerak.

2020-yilda don mahsulotlari yetishtirishning eng yuqori hajmi Qozog‘istonda bo‘lib, kishi boshiga 1081 kgni, eng past ko‘rsatkich Qirg‘izistonda, kishi boshiga 140 kg tashkil etdi. Mintaqaning qolgan respublikalarida kishi boshiga 223 kgdan 309 kggacha bo‘lgan nisbatan oz miqdorni tashkil qildi.

Markaziy Osiyo mintaqasida bugungi kunda iqtisod va ijtimoiy sohalarda tubdan islohotlar o‘tkazishni talab etuvchi juda ko‘p muammolar mavjud. Aholi jon boshiga o‘rtacha daromad 4 ming dollarni tashkil etadi, ammo bu ko‘rsatkich alohida mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida sezilarli yuk sanaladi. Mintaqaviy va xalqaro bozorlarga chiqish (*transport koridorlari, logistika*), istiqbolli iqtisodiy sohalarni rivojlantirishga jiddiy e‘tibor qaratish muhim.

Rossiyalik ekspert S.Tkachenkning fikricha, *“O‘zbekistonda iqtisod sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘z natijasini bermoqda. 2021-yilda O‘zbekiston iqtisodiy o‘stish ko‘rsatkichi bo‘yicha jahonda sanoqli iqtisodiyotlardan biriga aylandi”*.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyoti eksportga yo‘naltirilgan bo‘lib, sanoatni modernizatsiya qilish, katta va kichik tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishga katta e‘tibor bermoqda. O‘zbekistonda iqtisodiy taraqqiyotning asosiy maqsadlaridan biri - kambag‘allikni

masalalari, Orol dengizining qurib borishi bilan bog‘liq ekologik muammo – bularning barchasi Markaziy Osiyo davlatlarining bir-biriga qanchalik muhtojligi va o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatdi. O‘zbekiston rahbari tomonidan qabul qilingan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha *“Harakatlar strategiyasi”*da O‘zbekistonning mintaqaviy xavfsizlik, barqarorlik, yaxshi qo‘shnichilik muhitini shakllantirish davlat tashqi siyosatining ustuvor vazifasi sifatida qayd etilishi ham amalga oshirilayotgan tadbirlar ko‘lamining kengayishiga va samaradorligiga turtki bo‘ldi.

*“O‘zbekiston oldingi ma‘muriyat kabi oq va qora tashqi siyosatni davom ettirmoqchi emas. Keyingi olti-yilda O‘zbekiston tashqi siyosatda ko‘p va teng vektorli siyosatni shakllantirib ulgurdi. Moskva, Pekin, Vashington va Bryusselning o‘zaro munosabatlari qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, O‘zbekiston o‘zining milliy manfaatlaridan kelib chiqib ish ko‘rmoqda”*, deydi siyosatshunos K.Rabbimov.

Markaziy Osiyo davlatlarining O‘zbekiston tashqi siyosatidagi ustuvor ahamiyati 2016-yildan so‘ng Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining belgilab olinishi bilan bog‘liq. Bu bog‘liqlik ko‘plab strategik hujjatlar, tashabbus va amaliy harakatlarda o‘z aksini topdi. Xususan, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida xavfsizlik, barqarorlik va yaxshi qo‘shnichilik asosini yaratish, shuningdek, davlatlar o‘rtasidagi chegaraviy chigalliklarni yechish, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish ko‘zda tutilgan.

Markaziy Osiyo mintaqasining O‘zbekiston tashqi siyosatidagi asosiy ustuvor yo‘nalishi hususida Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 19-sentabrdagi 72-sessiyasi minbaridagi tarixiy nutqida *“Tinch, iqtisodiy jihatdan farovon Markaziy Osiyo bizning eng muhim maqsadimiz va asosiy vazifamiz”*, deya e‘lon qilgan edi.

O‘zbekiston rahbarining tashabbusi bilan BMT shafeligida 2017-yil 10-11 noyabr kunlari Samarqand shahrida *“Markaziy Osiyo: bir*

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-may oyi yakunida O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasi:

- **Qozog‘iston** bilan tashqi savdo aylanmasi 2,5 mlrd. dollarni (*o‘shish 9,9 foiz*) tashkil etib, eksport hajmi 757,4 mln. dollarga, import hajmi esa 1,7 mlrd. dollarga yetdi.
- **Qirg‘iziston** bilan tashqi savdo aylanmasi 659,9 mln. dollarni (*o‘shish 30,3 foiz*) tashkil etib, eksport hajmi 529,1 mln. dollarga, import hajmi esa 130,9 mln. dollarga yetdi.
- **Turkmaniston** bilan tashqi savdo aylanmasi 485,8 mln. dollarni (*o‘shish 8,5 foiz*) tashkil etib, eksport hajmi 133,0 mln. dollarga, import hajmi esa 352,8 mln. dollarga yetdi.
- **Tojikiston** bilan tashqi savdo aylanmasi 340,4 mln. dollarni (*o‘shish 16,2 foiz*) tashkil etib, eksport hajmi 257,2 mln. dollarga, import hajmi esa 83,2 mln. dollarga yetdi.

2017-2019-yillarda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasi qariyb 2,7 dan 5,2 milliard dollargacha o‘ydi. Shu bilan birga, Qozog‘iston bilan savdo aylanmasining o‘shishi 1,6 barobar, Qirg‘iziston bilan 2,3, Turkmaniston bilan 3,1 va Tojikiston bilan 2 barobar oshdi. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasining umumiy savdo hajmidagi ulushi ham 10,2 foizdan 12,4 foizga o‘ydi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yildagi Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasidagi eng katta ulushi Qozog‘istonga to‘g‘ri keladi – 62 foiz. Qolgan qismi: Qirg‘iziston – 18,2 foiz, Turkmaniston – 12 foiz, Tojikiston – 10,2 foiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatida tashqi siyosat bobida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Prezidentimiz *“Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko‘p asrlik do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari, strategik sheriklik va o‘zaro ishonchni yanada mustahkamlashni tashqi siyosatimizning ustuvor yo‘nalishi”*, ekanligini ta’kidladi.

Shu bilan birga, pandemiyaning og‘ir sharoitlari, Afg‘onistondagi siyosiy voqe‘liklar, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash

kamaytirishga qaratilgan. Shu bois O‘zbekiston mintaqada ijtimoiy davlat maqomini egallab kelmoqda.

O‘zbekistonda davlatning sanoatdagi ishtiroki qisqarib bormoqda, bu esa yirik kapital va investitsiyalar oqimi uchun imkoniyatlar yaratadi. Bugungi O‘zbekistonda hal qilinishi zarur bo‘lgan muammolar ham mavjud bo‘lib, bu inflyatsiya va tashqi qarzni o‘shish holatidir. Bundan tashqari, O‘zbekiston sanoati gazga qaramligi gaz ta‘minoti borasida bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun hukumat qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini ishlab chiqarish, quyosh, suv va shamol energetikasiga asoslangan manbalarni ko‘paytirish va ularni sanoat masshtablarida keng qo‘llashga jiddiy yondashmoqda.

Shu o‘rinda Rossiya bilan hamkorlikdagi 2028-yilda foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan Tuzkan ko‘lida atom elektr stansiyasini qurish sanoatni diversifikatsiya qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, Saudiya Arabistonining “AKWA Power” kompaniyasining O‘zbekistonda quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurishga qaratilgan 100 mln dollarlik loyihalardan ko‘zlangan asosiy maqsad ham ana shu vazifalarni amalga oshirish bilan bog‘liq.

Markaziy Osiyo jadal rivojlanmoqda va sezilarli o‘shish salohiyatiga ega. Jahon hamjamiyatchiligi va yirik sanoat korporatsiyalari ushbu iqtisodiy haqiqatni, o‘zgarishlar ko‘lami va mintaqaning katta salohiyatini anglab turibdi. Shu jihatdan, mintaqaning geostrategik va geoiqtisodiy ahamiyati ortib bormoqda.

### ***Transport va logistika***

O‘zbekiston tashqi savdo ko‘rsatkichlari o‘shishini rejalashtirayotgan bo‘lsa, unda quruqlikdagi transport yo‘nalishlari va logistika tizimini rivojlantirish zarur. Bu borada O‘zbekiston Markaziy va Janubiy Osiyoni samarali va xavfsiz bog‘laydigan transport logistika infratuzilmasini qurish masalasiga alohida e‘tibor qaratmoqda.

O‘zbekiston tomonidan savdo, tranzit va chegaralarni kesib o‘tish sohasida o‘zaro bog‘liqlikni raqamli amalga oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqishda harakatlar strategiyasini qabul qilish

kerakligi g'oyasi ilgari surilgan. Bugungi kunda butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muammosining dolzarbligi ortib bormoqda. Shu munosabat bilan O'zbekiston qo'shma chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish uchun BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) shafeligida mintaqaviy qishloq xo'jaligi vazirlari yig'ilishini o'tkazishni taklif qildi.

Shu bilan birga, mintaqa doirasida savdo operatsiyalarini amalga oshiruvchi Markaziy Osiyo davlatlari yuklarni yetkazib berish bo'yicha eng qisqa masofalarga ega bo'lib, bu ularga transport xarajatlarini tejashda ustunlik beradi.

O'zbekiston-Turkmaniston-Eron transport yo'lagi bo'ylab Turkiyaga va undan Yevropa Ittifoqiga yuk tashish bo'yicha hamkorlik qilish ham muhim. Bu masala 2021-yilning iyunida Turkmanistonda bo'lib o'tgan dengizga chiqish imkoni bo'lmagan mamlakatlar transport vazirlari konferensiyasida muhokama qilingan edi. Natijada avtomobil transporti uchun to'lovlarni kamaytirish, o'zbekistonlik haydovchilar uchun Turkmaniston vizalarini olish tartibini soddalashtirildi. Tajriba tariqasida Chobahor portidan O'zbekistonga yuk tashish bo'yicha Eron bilan ham kelishuvga erishildi.

“2023-yildan boshlab Qirg'iziston orqali o'tadigan temir yo'l quriladigan bo'lsa va «Transeka» loyihasi amalga oshsa, bundan Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar manfaatdor bo'ladi. Eng katta manfaat O'zbekistonda. Chunki bu o'rinda, transport yo'li orqali G'arb va Sharq o'zaro bog'lanmoqda”, degan fikrni bildiradi iqtisodchi Shuhrat Rasulov.

Haqiqatan ham, transchegaraviy xavfsizlikning yangi tizimi uchun mustahkam poydevor faqat iqtisodiy asosda, birinchi navbatda transport yo'laklari tizimini rivojlantirish orqali yaratilishi lozim. Sharqiy Osiyo va Yevropa o'rtasida Qirg'iziston, O'zbekiston va Kavkazorti davlatlari orqali transport yo'lagini yaratishni ko'zda tutuvchi Yevropa Ittifoqi shafeligida ishlab chiqilgan “Transeka” loyihasi katta ahamiyatga ega.

“Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar” temir yo'li qurilish loyihasi yetakchi xalqaro moliya institutlari tomonidan keng qo'llab-quvvatlanib, mintaqalarning o'zaro bog'liqlik arxitekturasining asosiy

### Markaziy Osiyo respublikalarining demografik va iqtisodiy ko'rsatkichlari (2023-yil ma'lumoti)

Davlatlar	Aholisi (mln. kishi)  (2022 y. ma'lumoti)	Umumiy savdo aylanmasi (mlrd dollar)	YaIM (2021-yil holatiga ko'ra) (mlrd dollar)		YaIMning o'sish darajasi (foizda) (Jahon banki ma'lumoti)		
			Nominal (JB manbasi)	XQP bo'yicha (XVF manbasi)	2019 y.	2020 y.	2021 y.
Qozog'iston	19,8	96,8	181,6	509,0	4,5	-2,5	2,5
O'zbekiston	36,2	42,2	57,9	245,0	5,6	0,6	4,3
Turkmaniston	6,3	18,0	46,7	96,2	6,3	-	-
Qirg'iziston	6,2	6,9	8,4	35,2	4,5	-8,0	3,8
Tojikiston	10	4,5	8,1	32,9	7,5	2,2	3,5
Jami	78,5	168,4	302,9	918,3			

Markaziy Osiyo respublikalarining umumiy aholisi bugungi kunda 78,5 mln. kishini tashkil etib, demografik holat yuqori o'sish ko'rsatkichiga ega. 2019-yilda Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy tashqi savdo aylanmasi 168,4 milliard dollarni, mintaqa mamlakatlarining YaIM nominal qiymati 303 milliard dollarni va xarid qobiliyati pariteti (PPP)da 918,3 milliard dollarni tashkil qildi. Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining rivojlanish darajasi ham o'rtacha 4-7 foiz, ya'ni yuqori o'sish sur'atlarini ko'rsatdi.

2022-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari tashqi savdo hajmi 14,5 foizga o'sib, 4,0 mlrd. AQSh dollariga yetdi, bu umumiy savdo hajmining 14,1 foizini tashkil etdi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma'lumotida qayd etilishicha, hisobot davrida O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksporti 1,7 mlrd. AQSh dollarini (o'sish 19,1 foiz), importi esa 2,3 mlrd. AQSh dollarini (o'sish 11,4 foiz) tashkil etgan.



Zamonaviy xalqaro munosabatlarda siyosiy kelishmovchiliklarni harbiy kuch va turli ko‘rinishdagi siyosiy tahdid va tazyiqlar orqali hal qilish davri o‘tdi. Davlat va millat manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq muammolarni zaruriyat tug‘ilganda xalqaro huquq va xalqaro jamoatchilik yordamida hal etish ko‘proq samara berishi tayin.

Mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash, davlatlar suverenitetini saqlash maqsadida Markaziy Osiyo respublikalari o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlarini yanada mustahkamlash, o‘zaro integratsion jarayonlarni tezlashtirish zarur. Bu borada ham O‘zbekiston ilk odimlarni dadil tashlamoqda. 2021-yilning dekabr oyida O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Qozog‘istonga davlat tashrifi ham ana shu ilk odimning natijasi bo‘ldi. Tuzilgan shartnomalar qatorida O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida ittifoqdoshlik to‘g‘risidagi shartnoma imzolanadi. *“Bu o‘ziga xos maxsus hujjat. 2013-yildan beri O‘zbekiston va Qozog‘iston strategik sherik, deb hisoblab kelingan bo‘lsa, dekabr oyidan boshlab ittifoqdosh bo‘ldi. Endi ikki davlat faqatgina oddiy hamkorlik qilayotgan mamlakatlar emas, ittifoqdosh hisoblanadi. Buning o‘ziga yarasha ma‘no-mohiyati bor. Ittifoqdoshlik degani mintaqaviy masalalar bo‘yicha bir yoqadan bosh chiqarib, bitta pozitsiyada turishni anglatadi. Qandaydir tahdidlar sodir bo‘lsa, o‘zaro ko‘mak berishni bildiradi”*, deydi siyosatshunos F.Tolipov.

Mintaqa mamlakatlari hududlarida, ayniqsa chegara hududlarida qo‘shni davlatlarning ko‘plab millat vakillari bo‘lib, bu Markaziy Osiyo mamlakatlari aholisi o‘rtasida qardoshlikni, shu jumladan qarindoshlik aloqalarini saqlashga yordam beradi. O‘zbekiston mintaqaning barcha davlatlari bilan chegaradosh va Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgan.

elementiga aylanishi ko‘zda tutilgan. Ushbu temir yo‘lining qurilishi ikki mintaqaning tranzit salohiyatini ro‘yobga chiqaradi, eng qisqa transport yo‘lini shakllantirib, yuk tashish vaqti va xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirishi ko‘zda tutilgan.

Bu vazifaning strategik ahamiyatini O‘zbekiston rahbari quyidagicha izohlaydi: *“Bunday o‘zaro manfaatli mintaqalararo hamkorlikning namunaviy ramzi sifatida transafg‘on koridorining qurilishi loyihasini aytish mumkin. Shuni ham anglash muhimki, «Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar» temir yo‘li kabi qo‘shma infratuzilma loyihalarini birgalikda amalga oshirish orqali, biz ijtimoiy-iqtisodiy va transport-kommunikatsiya vazifalarini hal etibgina qolmasdan, mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlashga ham salmoqli hissa qo‘shishimiz mumkin”*.

Zamonaviy sharoitlarda O‘zbekiston Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarining o‘zaro transport bog‘liqligi tashabbusini ilgari surmoqda. Iqtisodchi R.Xasanovning fikricha, *“Markaziy Osiyo respublikalari va unga qo‘shni davlatlar tomonidan “Termiz – Mozori Sharif – Qobul – Peshovar temir yo‘li”ni qurish faol ravishda qo‘llab-quvvatlanmoqda, bu nafaqat ShHTga a‘zo davlatlarning logistika imkoniyatlarini kengaytiradi, balki shuningdek, Afg‘onistonni tinch yo‘l bilan qayta qurish va Shimoliy-Janubiy yo‘nalishdagi savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga xizmat qiladi”*.

ShHTga a‘zo davlatlarning o‘zaro manfaatli aloqalarini rivojlantirish va samarali transport logistikasini yaratish uchun konseptual loyihalarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston tomonidan taklif etilgan yo‘l xaritasini qabul qilishga alohida e‘tibor qaratish lozim. Bu a‘zo davlatlarning ShHTning transport va tranzit salohiyatini ochadi, savdoda yangi bozorlarni qamrab olish geografiasini kengaytirib, yangi xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatini yaratadi, mahalliy ishlab chiqarish turlarining rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Natijada, yangi manfaatlar uchun ko‘p tomonlama hamkorlik ko‘chayib, iqtisodiy aloqalarning yangi va kengaytirilgan zamonaviy turlari qaror topadi.

ShHT doirasida O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar tashkilotning keng hududida ulkan transport va tranzit salohiyatidan samarali foydalanishga qaratildi. Transport loyihalari orqali O'zbekiston o'z hamkorlari bilan birgalikda ShHT imkoniyatlaridan foydalangan holda, O'zbekiston–Qirg'iziston–Xitoy, Termiz–Mozori Sharif–Kobul–Peshovar, Lanchjou–Qashqar–Irkeshtam–O'sh–Andijon–Toshkent–Mari va hozirgi geoiqtisodiy vaziyatda o'ziga xos strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa transport yo'laklarini qurishni amalga oshirish bo'yicha aniq harakatlarni amalga oshirmoqda.

Mintaqada xalqaro transport koridorlari, transport va logistika infratuzilmasini birgalikda tashkil etish Markaziy Osiyo mamlakatlari umumiy manfaatlariga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, mintaqadagi respublikalarning eksportga mo'ljallangan mahalliy mahsulotlarini jahon bozorlariga yetkazib berishda transport xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

### ***Migratsiya masalalari***

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida mehnatga layoqatli aholi ichki va tashqi migratsiyasi Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston aholisi soni va tarkibining o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat mazkur respublikalardagi ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar va ekologik omillarga bog'liq. Ushbu mamlakatlarning ishchi kuchi sifatidagi asosiy migratsiya oqimi Rossiya, Qozog'iston, Janubiy Koreyaga yo'nalgan bo'lsa, bugungi kunda uning geografiyasi kengaymoqda.

Mehnat migratsiyasi – Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston hukumatlari uchun hassos siyosiy-ijtimoiy masalalardan. Aynan shu uch respublikalarda aholining eng katta o'sishi ko'rsatkichi Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin sodir bo'ldi. 1990-yildan buyon o'tgan o'n-yilliklarda Qirg'iziston aholisi qariyb 50%ga ko'paygan bo'lsa, Tojikistonda bu ko'rsatkich 80,1%ni tashkil etdi. Shu davrda O'zbekiston aholisi qariyb 67%ga, ya'ni 13,7 mln. kishiga ortdi.

*mavjudligi asosida birgalikdagi sa'y-harakatlarimizni mustahkamlash vaqti keldi, bu shubhasiz kuchli sinergiya samarasini beradi*", - deydi O'zbekiston rahbari Sh.Mirziyoyev.

Markaziy Osiyo davlatlari tarixan doimo o'zlarini yagona mintaqa deb ataganlar. Markaziy Osiyoning tub aholisi umumiy tarixga, mushtarak madaniyat va qadriyatlarga, urf-odatlariga ega bo'lib, yagona diniy e'tiqodga egalar. Xalqimizda "qo'shning tinch, sen tinch", degan maqol bor.

Qozog'istondagi yanvar voqealaridan so'ng xalqaro ekspertlar «Qozog'iston endi geosiyosiy jihatdan Rossiyaga qaram bo'lib qoladi» deb taxmin qilishgan edi. Lekin bugun ikki davlat o'rtasiga munosabatlar keskinlashdi. Bu keskinlashuvga nimalar sabab bo'ldi?

Siyosatshunos F.Tolipovga ko'ra, "...so'nggi-yillarda Rossiyada tobora eskichilikni qumsayotgan siyosatchilar kuchayib, neoimperiyachilik g'oyalari avj oldi. Rossiya «sobiq Sovet makonidagi respublikalar Rossiyaning ta'sir doirasida qolishi kerak», degan g'oyani tarqatmoqda. Bu shunday ko'rinishga aylandiki, ko'plab ekspertlar buni tahdid sifatida ko'ra boshladi. Albatta, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston Rossiya bilan chegaradosh emas. Shu sababdan Qozog'iston birinchi nishonga aylandi. Qolaversa, Qozog'iston Rossiya bilan quruqlikdagi eng uzun chegaraga ega. Shu sababdan ham Qozog'iston Rossiyaning tazyiqlariga ochiq davlat hisoblanadi".

Yanvar voqealari Rossiya va Markaziy Osiyo munosabatlaridagi uzoq-yillar davomida to'planib kelgan ziddiyatlarni ochib berdi. Qosim Jo'mart To'qaev Moskvaga borganida "men shaxsan harbiy yordamni Rossiyadan so'raganim yo'q. Men yordamni KXShTdan so'radim" kabi bayonoti ham Qozog'istonning Rossiyadan qaram bo'lib qolmaslikka intilishining yaqqol isboti bo'ldi.

Neoimperiyalizm – eskilik sarqiti. Tarix imperiyalarni tarixda qoldirdi. Buni qo'msash, imperiyaga intilish zamonaviy siyosiy jarayonlar nuqtai nazaridan muvaffaqiyatsiz tugashi ma'lum. Bugungi kunda sobiq Ittifoq hududida jiddiy geosiyosiy turbulentlik kuzatilmoqda. Rossiyaning Ukrainadagi harbiy operatsiyasi jahon hamjamiyatchiligida jiddiy e'tiroziga sabab bo'ldi.



Markaziy Osiyo respublikalarining mustaqil davlat sifatida shakllanishi, transmilliy xarakterdagi yangi xavfsizlik tahdidlarining paydo bo'lishi — bularning barchasi chegaralarning transchegaraviy oqimlarni tartibga soluvchi “filtr” sifatida ahamiyatini oshiradi.

Giyohvand moddalar savdosi bilan shug'ullanadigan jinoiy guruhlarining g'ayriqonuniy harakatlari tufayli chegaralarning shaffofligiga putur yetmoqda. Transchegaraviy narkotiklar savdosi Markaziy Osiyo respublikalari va mintaqadan tashqaridagi qator davlatlarning milliy xavfsizligiga jiddiy tahdid bo'lib qolmoqda.

Ekspertlar hisoblariga ko'ra, har yili Afg'onistonda 40 mlrd dollarlik giyohvandlik moddalari yetishtiriladi. Tabiiyki, Markaziy Osiyo respublikalari hududlarida giyohvand moddalar kontrabandasiga qarshi tura oladigan chegara tizimining samaradorligini oshirish Rossiya va boshqa Yevropa davlatlari uchun ham alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun integratsiyani chuqurlashtirish giyohvand moddalar savdosi, terrorizm va boshqa salbiy hodisalarga qarshi kurashish muammosini hal qilish usullaridan biri sifatida qaraladi. Integratsiya tendensiyalari integratsion guruh ishtirokchilarining strategik manfaatlarini o'zaro bog'lashni talab qiladi.

Savdo, energetika, transport kommunikatsiyalari, suv resurslari va qishloq xo'jaligi faoliyati ustidan nazorat, ishchi kuchi harakati kabi sohalarda transchegaraviy hamkorlikni rivojlantirish orqali ushbu hamkorlikdan manfaatdor taraflar tomonidan chegara muammolarini hal qilishda qulay siyosiy va ijtimoiy asos yaratishga, shuningdek, transchegaraviy xavfsizlik rejimini optimallashtirish, davlatlararo va millatlararo nizolarning oldini olish uchun jiddiy iqtisodiy rag'batlantirishga yordam beradi.

*“Bugun dunyo global geosiyosiy o'zgarishlar davriga kirib, ham muammolarni, ham yangi imkoniyatlarni keltirib chiqardi. Bunday sharoitda bugungi kunda ikki milliardga yaqin aholi istiqomat qilayotgan Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tiklash yanada xaridorgir va xolis jarayonga aylanmoqda. O'ylaymanki, xalqlarimizning ulkan tarixiy, ilmiy, ma'naviy va madaniy merosi, iqtisodiyotning bir-birini to'ldirishi, intellektual salohiyatning*

Rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish, davlat sektorining qisqarishi, qishloq xo'jaliklari daromadlarining pasayishi, demografik o'sish, sanoat ishlab chiqarishning kamayishi ommaviy ishsizlikka olib keldi, va bu holat, Markaziy Osiyo davlatlarida mehnatga layoqatli ishchi kuchlarining ommaviy mehnat migratsiyasini keltirib chiqardi.

Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston hukumatlarining mehnat migratsiyasini nazorat ostiga olishga doir siyosati mustaqillik davrida turlicha va ko'pincha bir-biridan farqli bo'lib kelgan. Ko'pincha, mehnat migratsiyasi hukumatlar tomonidan yengillik sifatida qaraldi, chunki ortiqcha ishchi kuchining chiqib ketishi, albatta, ichki siyosiy-ijtimoiy ziddiyatlarni yengillashtirdi va hukumatga ishsizlik, qashshoqlik, infratuzilmaning yetishmasligi va boshqa iqtisodiy-gumanitar muammolarni yengishga muayyan ma'noda yordam bergandek bo'ldi. Mehnat migrantlari tomonidan amalga oshirilgan pul o'tkazmalari mahalliy iqtisodda valyuta tushumlarini ortishi bilan bog'liq ijobiy moliyaviy tendensiyaga aylandi.

Shuning uchun Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston hukumatlari odatda ishchi kuchining ommaviy ravishda chiqib ketishini tabiiy jarayon sifatida qabul qildi, hattoki, hukumatlarning o'zi ishchi kuchlarining boshqa mamlakatlarga ko'chishiga tegishli ma'muriy yordamni berib keldi.

Mehnat migratsiyasi Markaziy Osiyo davlatlari siyosiy imidjiga zarar yetkazmaslik uchun oshkor qilishni istamagan jarayon. Ba'zida muhojir ishchilar migratsiyasiga qarshi rasmiy siyosatchilarning salbiy ritorikasi ham kuzatilib turiladi.

Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston ijtimoiy vaziyatni tahlil qilgan holda, mehnat migratsiyasining iqtisodiyot uchun ahamiyatini tushunib yetmoqda. Bugungi kunda mehnat muhojirlari tomonidan oilalarini boqish uchun xorijdan yuboriladigan pul o'tkazmalari muhim qo'llab-quvvatlash mexanizmiga aylanib, mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy vaziyatni yumshatishga sezilarli hissa qo'shdi. Masalan, 2020-yilda xorijdan pul o'tkazmalari O'zbekiston YaIMning 11,6 foizini

tashkil etdi. Qirg'iziston uchun bu ko'rsatkich 31,1%ni tashkil qilgan bo'lsa, Tojikiston 26,7% bilan undan keyingi o'rinni egalladi.

Boshqa tarafdin, chet eldan pul o'tkazmalariga bunday qaramlikning salbiy oqibatlarini Markaziy Osiyo davlatlari 2020-yilda, dunyo davlatlarining chegaralari pandemiya tufayli to'satdan yopilganda ayon bo'lib qoldi. Bu vaziyat jiddiy iqtisodiy xavf omili ekanligi ayon bo'lib qoldi. Shu bilan birga, Qirg'iziston, Tojikiston va o'zbekistonlik migrant ishchilarning aksariyati bir mamlakatda – Rossiyada ishlaydi. Shu jihatdan, Markaziy Osiyoning Rossiya bilan munosabatlarida migrantlar bilan bog'liq vaziyat siyosiy yo'nalishning mazmun-mohiyatiga ta'sir etish xususiyatiga ega.

Qirg'iziston Yevrosiyo iqtisodiy Ittifoqi a'zolaridan biri bo'lib, u o'z fuqarolariga boshqa a'zo davlatlarda, jumladan, Rossiyada erkin ishlash imkonini beradi. Tojikiston va O'zbekistonda esa, mehnat migratsiyasi doim Rossiya bilan ikki tomonlama shartnomalar va muzokaralarning alohida bir mavzusi bo'lib kelgan.

Rossiyadagi Tojikiston va o'zbekistonlik muhojir ishchilarning aksariyati ishlash uchun ruxsatnoma oladi va qonuniy ravishda ishlaydi. Rossiya hukumati ishlash uchun ruxsatnomalarga kvotalar belgilash orqali mehnat migratsiyasi oqimini tartibga soladi. Ammo, Rossiyada qolish va ishlash istagani bildirgan muhojirlar sonining ko'pligi mehnat bozorida ish ruxsatnomalari kvotalarining chegaralanganligi tufayli noqonuniy migratsiya muammolarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Rossiyaning mehnat migratsiyasini tartibga solish va cheklash harakati Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston uchun salbiy harakterga ega. Migrant ishchilar sonini cheklash bo'yicha ko'rilayotgan jiddiy choralar ushbu mamlakatlarning xorijiy ishchilardan pul o'tkazmalarining kamayishiga bog'liqligi tufayli sezilarli iqtisodiy-ijtimoiy sohalarida salbiy oqibatlarga olib keladi.

So'nggi-yillarda Rossiyada iqtisodiy o'sishning pasayishi Markaziy Osiyo respublikalarida ortiqcha ishchi kuchini eksport qilish uchun boshqa bozorlarni izlashga undamoqda, mehnat migratsiyasi geografiasini kengaytirish masalalariga jiddiy yondashilmoqda. Shu jihatdan, Uzoq Sharq, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq mintaqalari

*birga, davlatchilikni shakllantirish uchun suverenitetning hududiy doirasini aniqlash va mamlakat hududining yetarli darajada xavfsizligini ta'minlaydigan tizimni yaratish juda muhim. Biroq, bunday tizim ba'zi hollarda qo'shni davlat manfaatlariga zid keladi, bu ba'zan chegara mojarolarining paydo bo'lishiga olib keladi*", deb yozadi.

Milliy-etnik farqlanish, siyosiy fikrlarning turlichaligiga asoslanib yechim izlash – Markaziy Osiyo respublikalarining landshaft, tarixiy va etno-madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda maqbul variant emas. Kommunistik boshqaruv-yillarida amalga oshirilgan demarkatsiya va chegara hududlarini rivojlantirish bo'yicha ma'muriy-buyruqbozlik qarorlari keyinchalik nizolarga sabab bo'ladigan ko'plab tugunlarni qoldirgan edi.

Qirg'iziston, O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida bo'lingan Farg'ona vodiysi misolida landshaftning o'ziga xos xususiyatlari yoki transport yo'llarining tuzilishi tufayli o'zlarini anklav yoki yarim anklav holatida bo'lgan hududlarni naqadar g'alati chegara chiziqlari belgilaganligi aniq ko'rish mumkin (*masalan, "Shohimardon" o'zbek qishloqlari, "So'x" tojik, "Vorux" Qirg'iziston hududi bilan o'ralgan*).

Hozirgi kunda ekspertlar o'zbek-qirg'iz chegarasidagi 60 dan 130 gacha hududlarni bahsli joylar sifatida ko'radi, bunday hududlarning ko'pi hali ham o'zbek-qozoq, o'zbek-qirg'iz, tojik-qirg'iz, o'zbek-turkman va boshqa chegaralarda mavjud.

**Davlat chegaralari** – bu davlat hududining chegaralarini belgilaydigan chiziqlar. Delimitatsiya va demarkatsiya orqali tegishli davlatlar o'rtasidagi kelishuv asosida belgilanadi.

Chegaralarni **delimitatsiya** qilish (*lotincha delimito – chegaralarni belgilash*), shartnomada belgilangan va shartnomaga birlashtirilgan xaritalarda grafik tasvirlangan qo'shni davlatlar o'rtasidagi kelishuv bo'yicha davlat chegarasining holati va yo'nalishini aniqlash. Chegarani delimitatsiya qilish asosida chegarani demarkatsiya qilish amalga oshiriladi.

**Chegara demarkatsiyasi** – chegaralarni delimitatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlar asosida chegara belgilarini qurish orqali davlat chegara chizig'ini o'rnatish. U o'zaro ahdlashuvchi davlatlar tarafidan tuziladigan aralash komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi.

Markaziy Osiyo respublikalaridagi integratsion jarayonlarga ta'sir ko'rsatadigan xususiyatlardan biri – mintaqadagi xalqlarning etnik bo'linishlari sanaladi. Chegara hududlaridagi (*anklav*) etnik joylashuv muammolari millatlararo qarama-qarshilik o'choqlarini yaratishi mumkin. Ular chegara zonasining ayrim muammolari bugungi kunga qadar to'liq hal etilmaganligi sababli yanada keskinlashishi mumkin.

Mustaqil respublikalarning zamonaviy davlat chegaralari bilan bog'liq muammolar genezisi asosan Sovet davrida hududiy chegaralarni belgilash siyosatining murakkab natijalari bilan bog'liq. XX asr oxiridagi siyosiy voqealar sovet davridan so'ng Markaziy Osiyodagi siyosiy-ijtimoiy vaziyatni tubdan o'zgartirdi. Muhim geostrategik mavqe, energetika xom-ashyosining ulkan zaxiralari AQSh, Yevropa davlatlari, musulmon dunyosi, Xitoy, Hindiston va boshqa qator mamlakatlar Markaziy Osiyoga katta e'tibor qaratdi. Mintaqada yuzaga kelgan ichki va tashqi muammolar mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga yangicha yondashuvlarni talab etdi. Bu esa, o'z navbatida, Markaziy Osiyo chegaralaridan tashqaridagi vaziyatning barqarorligiga ham bog'liq.

Davlat chegaralari daxlsizligi – mintaqaviy xavfsizlik tizimining asosiy omillaridan biri. Sobiq sovet respublikalarini ajratib turuvchi chegaralar davlat suverenitetining eng muhim atributiga aylangan. Bu chegaralar nafaqat harbiy, shuningdek, boshqa xarakterdagi tashqi tahdidlarga ham qarshi tura oladigan mustahkam to'siq bo'lishi kerak.

Hozirgi davrda Markaziy Osiyo respublikalarida mintaqaviy xavfsizlikning samarali tizimini yaratish tegishli davlatlarni yaqin hamkorlikka undamoqda. Bu vazifa o'zida huquq-tartibot, iqtisodiyot, madaniyat, ekologiya va boshqa sohalarda transchegaraviy hamkorlik aloqalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Shaffof chegaralarga ega bo'lish juda yaxshi, ammo shaffof chegaralarni belgilash masalasi juda murakkab va jiddiy nazariy tahlilni talab qiladi. Tadqiqotchi S.Golunov, *“Har qanday holatda ham, bunday chegara zonalari chegara nazorati bo'linishi bilan ifodalanadi; qo'shni davlat hududida bir mamlakat fuqarolarining turar joyini tartibga soluvchi liberal huquqiy tizim; ijtimoiy-madaniy tamoyillar (til, umumiy madaniy merosi, va boshqalar) tufayli qo'shni tomonning vakillari ma'lum darajada "o'zlari" sifatida qabul qilinadi va hokazo. Shu bilan*

davlatlariga potensial mehnat bozori sifatida ko'proq e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistondagi tashqi mehnat migratsiyasi agentligining Janubiy Koreya, Turkiya, Yaqin Sharq, Yevropa Ittifoqi davlatlari o'rtasida mehnat migratsiyasi bilan bog'liq muzokaralari aynan shu jarayon mahsulidir.

Turkiya o'zbekistonlik mehnat muhojirlari uchun ham asosiy yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi ikki tomonlama uchrashuvlarida mehnat migratsiyasi masalasi tez-tez muhokama qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston Janubiy Koreya bilan ham mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha faol muzokaralar olib bormoqda. Migratsiya diplomatiyasi tashqi siyosatda muhim muhokama mavzusiga aylangan.

Mustaqillikning ilk-yillaridagi o'tish davri qiyinchiliklari, siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalardagi muammolar, demografik o'sish Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston uchun murakkab bo'ldi. Ammo qo'shni yirik iqtisodiyotlar bilan puxta o'ylangan to'g'ri mehnat diplomatiyasi yukni ustunlikka aylantirishi, boshqa mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashi mumkin.

Boshqa jihatdan xorijiy migratsiyaning mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash tizimlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan jihatlarga ham e'tibor qaratish muhim. O'zbekistonlik ekspert Yu.Vasilev bu borada fikr bildirar ekan, Markaziy Osiyolik mehnat muhojirlari Rossiya uchun xavfsizlikga tahdid omili bo'lishi mumkinligini ham ta'kidlab, *“...migrant ishchilarning ijtimoiy va ma'naviy muhiti zaif – u ekstremistik g'oyalarga moyil bo'lishi mumkin. Biror kishi ekstremistik g'oyalar bilan yo'g'rilgan mafkuraviy targ'ibotlarga ilakishib qolishi, radikal qarashlari shakllanishi, terrorchilik faoliyatini ma'qullashi, uning yashirin tashuvchisiga aylanishi ehtimoli yuqori. Bunday shaxslar vataniga qaytib, u yerda bu g'oyalarni tarqatishi xavfi mavjud. Bu juda uzoq vaqtdan beri shakllanib kelayotgan muhit mahsuli bo'lishi mumkin”*, deya fikr bildiradi.

### *Orol dengizi muammosi*

XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda sug'orish tizimining intensiv rivojlanishi yangi kanallarning qurilishi bilan boshlangan edi. Sug'oriladigan vohalar (*Toshkent, Buxoro, Xorazm*) tarkibidagi sug'orish tizimlari, shuningdek cho'l zonalarining o'zlashtirilishi suv resurslari iste'molini bir necha barobarga oshirib yubordi. Bu davrda Markaziy Osiyoda sug'orish maydonlari 2 mln gektardan 3,2 mln gektarga ortdi.

1925-1940-yillarda sug'orish tizimlari yanada rivojlantirildi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda suv xo'jaligini tiklash, irrigatsiya va qishloq xo'jaligini rivojlantirish siyosati Orol dengizi havzasining barcha yirik hududlaridagi yangi yerlar – Farg'ona va Vaxsh vodiylari, Dalvarzin cho'li va boshqalar o'zlashtirildi. Sug'oriladigan yerlar maydoni 4,3 mln. gektarga yetdi.

1990-yilga kelib, Markaziy Osiyoda sug'oriladigan yerlarning umumiy maydoni 7,2 mln. gektarga yetkazildi. Ekologlarning Orol dengizi qurishi bilan bog'liq tashvishli axborotlari ortishi, suv resurslari yetishmovchiligining yaqqol sezilganligi, Orol dengizi havzasida ekologik muvozanatning izidan chiqishi bilan bog'liq muammolarning yuzaga kelishi yangi sug'oriladigan yerlarni o'zlashtirishni to'xtatishiga sabab bo'ldi.

Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik falokat va Orol dengizining qurib borishi jarayoni jahon hamjamiyatchiligi, ko'plab mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar va ekofaollar e'tiborini tortdi. Markaziy Osiyoda havo haroratining isish darajasi bir necha gradusga ortdi. Mintaqa hududlarida cho'llashish jarayoni kuchaya bordi. Orol dengizining qurigan havzalaridagi tuz moddasining keskin ortib ketishi, uning shamollar yordamida havoga ko'tarilishi va keng hududlarga tarqalishi bugungi kunda ham jiddiy ekologik falokatga sabab bo'lmoqda.

Markaziy Osiyo tog'laridagi muzliklarning ifloslanishi yil davomida sodir bo'ladi. So'nggi-yillarda qor qoplaminig ifloslanishi ekologlar tomonidan ko'p kuzatilmoqda. Mayda donali chang va tuzlar miqdori ko'payib bormoqda, bu esa tog'lardagi qor va muzliklarni

So'nggi vaqtlarda faollashayotgan Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi integratsiyaga intilish jarayonlari – bu boradagi muammo va yechimlar, uning siyosiy oqibatlarini mavzusi davrning dolzarb mavzularidan. Tadqiqotchilarga ko'ra, *“dunyoda mavjud katta tajribaga muvofiq, davlatlardan ham ko'ra, avvalo, jamiyatlar integratsiyalashuvi lozim. To'laqonli mintaqa bo'lish uchun – yagona taqdir ekanini anglash kerak. Buning uchun o'rtadagi salbiy munosabatlarni yuvib tashlash, ularga tizimli yechimni yo'lga qo'yish va yagona subsivilizatsiya ekanini namoyish qilish kerak. Haqiqiy integratsiya bu insonlar, g'oyalar, fikrlar, tovarlar va xizmatlarning erkin, hech qanday to'siqlarsiz harakatlanish qobiliyatidir. Hukumatlar, jamiyatlar va odamlar ongidagi chegaralarni olib tashlash kerak”*.

Siyosiy jihatdan Markaziy Osiyo va uning atrofida transport kommunikatsiya tizimlarini yanada rivojlantirish strategik ahamiyatga ega. Ayniqsa, jahon suv transport yo'llariga chiqish uchun dengiz portlarining mavjud emasligi, asosiy temir yo'l va avtomobil yo'llari infrastrukturasi yetarli darajada rivojlanmaganligi Markaziy Osiyo respublikalarining siyosiy va iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga sezilarli salbiy ta'sir etuvchi omillardandir. Ushbu omil mintaqaning xalqaro aviatsiya aloqalari nuqtai nazaridan foydali geografik joylashuvi, shuningdek, zamonaviy dunyoda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati ortib borishi bilan ma'lum darajada kompensatsiyalanadi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo respublikalari hukumatlari Shimol va Janub, Sharq va G'arb o'rtasida temir yo'l va avtomagistral aloqa yo'llari qurilishi, dengiz portlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishning ahamiyatini yaqqol anglab yetdi. Bundan manfaatdor mamlakatlar bilan birgalikda qator loyihalar bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Yer usti transport kommunikatsiyalari tizimini rivojlantirish o'ta muhim bo'lib borayotgan sharoitda Markaziy Osiyo mintaqasida siyosiy xavfsizligini ta'minlash mintaqa davlatlarining barqaror kelajagi uchun ustuvor ahamiyat kasb etadigan vazifalardandir.



➤ Suv resurslaridan birgalikda foydalanishda jiddiy muammolarning mavjudligi;

➤ muhim tabiiy boyliklar va sug'oriladigan dehqonchilik maydonlarini barqaror rivojlantirish;

➤ Tojikiston va Qirg'iziston gidroelektrostansiyalarining qurilishida ekologik tamoyillarni e'tiborga olish, mintaqa umumenergetika tizimini mintaqaviy rivojlantirishni takomillashtirishi;

➤ O'zbekiston va Turkmanistonni asosiy gaz yetkazib beruvchi mavqei nuqtai nazaridan mintaqada gaz ta'minoti barqarorligini ishonchli ta'minlashni yo'lga qo'yish;

➤ Transport va kommunikatsiya tizimlarining uzluksiz ishlash tizimini ta'minlash; mintaqadagi transport uzellarining erkin harakatini ta'minlash; mintaqaning umumiy transport salohiyatidan birgalikda foydalanish, ayniqsa trans-Osiyo avtomagistralini yaratish ishlarini o'z vaqtida oxiriga yetkazish;

➤ Yuqori seysmik, suv-toshqin va boshqa tabiiy ofatlarni hisobga olgan holda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy ofatlarning oldini olish sohasida ularni hal qilish uchun yaqin hamkorlikni talab qiladigan muammolarni birgalik hal etish;

➤ Gumanitar va ijtimoiy sohalarida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish; umumiy tarix, din va e'tiqod, mushtarak qadriyatlar, madaniyat va urf-odatlariga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlarining o'zaro yaxshi munosabatlarda, emin-erkin yashashini ta'minlash, madaniyat, san'at, adabiyot sohalarida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish.

Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasidagi integratsiya jarayonlariga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan omillarning ham mavjudligini mutaxassislar tasdiqlaydilar. *“Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida ko'rinmas “Xitoy devorlari” bor”*, deya kinoya qiladi siyosatshunos K.Rabbimov, *“...bugun 5 ta respublika o'rtasida ko'rinmas “Xitoy devorlari” va liderlikka da'volar mavjud. Markaziy Osiyo to'laqonli mintaqa bo'lishi uchun yagona taqdir ekanini anglash hamda o'rtadagi salbiy munosabatlarni yuvib tashlash kerak”*.

eritish uchun katalizator vazifasini bajaradi. Shu omil tufayli qor va muzliklarning erishi intensivligi 20%ga oshgan.

Orol mintaqasida ekologik vaziyatning keskin yomonlashuvi, cho'llanish holatlarining ko'payishi va tuproqning sho'rlanish jarayonlarining faollashuvi tabiiy ekotizimlar tanazzuliga olib keldi. Har-yili Orol dengizi havzasida 70 mln tonna tuz to'planib, atrofda 1,5-2 mln. kv.km hududlarga tarqalayotgani ma'lum qilinmoqda. Dengizning qurishi natijasida hosil bo'lgan qum-tuz moddalari shamollar natijasida atmosferaga ko'tarilib, katta hududlarga tarqalmoqda, atrofda yerlarning cho'llashish va sho'rlashish jarayonlarini yanada tezlashtirmoqda. Mahalliy nabotot va aholi salomatligiga jiddiy zarar yetmoqda. Hududlardagi qurg'oqchilik va cho'llanish jarayonlari iqlim o'zgarishlarini keltirib chiqarmoqda. Orol dengizi havzasida yerlarning meliorativ holatini yomonlashuvi yuz bermoqda.

Agar bugungi kunda Orol dengizi suv hajmini oshirish uchun Amudaryo va Sirdaryo suvidan to'liq foydalanilsa, daryolar suvi iste'molidan butunlay voz kechilsa, dengiz suv sathining avvalgi holatiga qaytishi uchun 200-yil kerak bo'lishi hisoblab chiqilgan. Bu juda ham murakkab jarayon va amalga oshirish imkonsiz vazifa. Shu jihatdan, bugungi kundagi asosiy vazifa uning hozirgi mavjud qismlarini saqlab qolishdan iborat. Buning uchun, Orol bo'yi mintaqasi davlatlari dengiz o'rnida qolgan suv omborlarini saqlab qolish bo'yicha sa'yi-harakatlarni birlashtirishi muhim.


Orol dengizi sathining pasayishi va uning suv yuzasi qisqarishi, Orol dengizi tabiiy muhitining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu tendensiya quruq isish sifatida tavsiflanadi, bu vaziyat Markaziy Osiyo suv resurslari iste'molining keskin oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy Osiyoda suv resurslaridan foydalanish yuqori o'sish sur'atlari bilan ajralib turadi. Demografik omillar, sanoat va qishloq xo'jaligining rivojlanishi bilan bog'liq jarayonlar suv iste'molining foydalanish me'yorlarining ortishiga olib kelmoqda.

2020-yilga kelib, mintaqa davlatlari yangi sug'oriladigan yerlarni cheklaganligi sababli, suv iste'molini chegaralash, kvotalash tizimiga

o'ta boshladilar. Suv va sug'orish resurslarining chegaralanganligiga qarab, mintaqadagi har bir mamlakat, o'zining milliy strategiyasi va sug'orish dasturlarini ishlab chiqmoqda. Bunday sharoitda mintaqaviy suv resurslaridan muvofiqlashtirilgan va muvozanatli foydalanishga qaratilgan siyosiy yondashuv talab qilinadi.

Transchegaraviy daryo havzalarida ekologik va suv resurslari yetishmovchiligi muammolarini birgalikda hal qilish, ko'p tomonlama investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ilmiy-texnika bazasini rivojlantirish va kadrlar tayyorlashda integratsion hamkorlik barqaror rivojlanish va taraqqiyot uchun muhim omilga aylanishi lozim.



2022-yil 21-iyul kuni Qirg'izistonning Cho'lponota shahridagi Markaziy Osiyo mamlakatlari davlat rahbarlari sammitida Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jo'mart To'qayev Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ishini jonlantirishni taklif etdi.

Bugungi kunda deyarli qurib qolgan Orol dengizi bir vaqtlar mintaqa obi-havosida, tabiiy iqlimni mo'tadillashuvida muhim rol

➤ qo'shni davlatlar va yirik siyosiy kuchlar bilan siyosiy va iqtisodiy hamkorlik; xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar va integratsion birlashmalardagi ishtiroki;

➤ Markaziy Osiyo respublikalarida haligacha hal etilmagan chegara demarkatsiyasi bilan bog'liq muammolar va qo'shni davlatga tegishli hududlar va anklavlarining mavjudligi;

➤ qishloq xo'jaligi yerlarini ijaraga olish shartlarida iqtisodiy foydalanish imkoniyatlari;

➤ Mintaqadagi geosiyosiy vaziyatning keskinlashuvi, davlat xavfsizligiga tahdid soladigan turli buzg'unchi tashqi va ichki kuchlarning ta'sirining ortishi;

➤ giyohvand moddalar savdosi va xalqaro terrorizmga qarshi kurashish zarurati;

➤ Afg'onistondagi fuqarolar urushi, notinchlik, ekstremist va radikal harbiy guruhlar faoliyati;

➤ ekstremistik g'oyalarning tarqalishi, radikal siyosiy guruhlar, diniy fundamental tashkilotlarning (*Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston*) mintaqa davlatlari jamiyatlariga ta'sir o'tkazishga intilishi;

➤ Savdo-iqtisodiy va kooperatsion hamkorlikni keng va har tomonlama rivojlantirish zarurati;

➤ Markaziy Osiyo umumiy bozorini shakllantirish, iqtisodiyot va aholi farovonligini bosqichma-bosqich oshirish;

➤ Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni birgalikda qo'llab-quvvatlash, yagona iqtisodiy makon bo'ylab tadbirkorlik faoliyati uchun teng sharoitlarni yaratish, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosuvchi tarmoqlarni muvofiqlashtirilgan rivojlantirish, tovarlar, xizmatlar, mehnat va kapitalning erkin harakatlanishi uchun sharoit yaratish;

➤ Jahon bozorida noyob va katta talabga ega bo'lgan ulkan xomashyo va qishloq xo'jaligi resurslaridan samarali foydalanish, ularni qayta ishlash va tashish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish;



manfaatlarni ko'proq e'tiborga olinganligi bilan hayotiyroq. Agar "Zangizo'r" transport koridori ochiladigan bo'lsa, yagona logistik yo'l paydo bo'ladi. Bu G'arb davlatlari tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadigan ma'qul loyiha hisoblanadi.

O'zaro integratsion jarayonlar muammolarini o'rganishning ahamiyati – Markaziy Osiyo respublikalari tomonidan transformatsion o'tish davrining o'ziga xos xususiyatlari, ushbu jarayon bilan bog'liq etnik, iqtisodiy, ekologik va geosiyosiy masalalar bilan bog'liq.

Markaziy Osiyo respublikalari integratsiyasining afzalliklari bir qator omillarni o'z ichiga oladi:

1. Mintaqaning barcha turdagi tabiiy uglevodorod zaxiralari, mineral xom-ashyolari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan o'zaro ta'minlashi;

2. Kuchli kombinatsiyalashgan ishlab chiqarish, sanoatni kooperatsiya sifatida rivojlantirishning istiqbollari, eksport va ilmiy-texnik salohiyat;

3. Strategik ahamiyatga ega qulay geografik joylashuv;

4. Mehnat resurslarining teng darajasi, yuqori malaka va ta'lim darajasi;

5. Suv va boshqa tabiiy resurslardan birgalikda, muvozanatli va oqilona foydalanish;

6. Qulay geografik joylashuv, o'xshash tarixiy o'tmish, yagona diniy e'tiqod, mushtarak an'analar, urf-odatlar, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar birligi;

7. Mintaqaviy siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlarni birlashtirish.

Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va ularni hal etishda har tomonlama yaqin hamkorlikni mustahkamlashda o'zaro hal etilishi zarur ustuvor masalalar hamda kelishmovchilikka sabab bo'lishi mumkin vaziyatlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

➤ Markaziy Osiyo respublikalarining tashqi siyosati va xalqaro munosabatlardagi yondashuvidagi tafovvutlari;

o'ynagan edi. Turkiyalik publitsist Abdulvahob Qaraning fikriga ko'ra, "...qayta kuch to'plagan Orol dengizigina Markaziy Osiyodagi iqlim o'zgarishlariga ijobiy ta'sirini ko'rsata oladi, lekin barcha Markaziy Osiyo davlatlari birgalikda ish yuritgan taqdirdagina u qaddini tiklab olishi mumkin. Bugungi kunda mazkur havzaga suv faqat Sirdaryo orqali kelib quyilayotgani sir emas. Ammo mamlakatlarning siyosiy irodasi vaziyatni tubdan o'zgartira oladi".

Orol dengizi qurishi faqatgina Markazi Osiyo davlatlari muammosi emas, bugungi globalizatsiya sharoitida, ekologiyani buzilishining salbiy oqibatlari global ta'sirlarga sabab bo'lishi nuqtai nazaridan jahon hamjamiyatchiligi diqqat e'tiborida turishi zarur bo'lgan masaladir.

## **2. Markaziy Osiyoda geosiyosiy kuchlar muvozanati va mintaqaviy xavfsizlikka asosiy tahdidlar**

XXI asrning ibtidosida Markaziy Osiyo yirik xalqaro siyosiy kuchlarning o'zaro kurashi va global strategik muvozanat markaziga aylandi. Rus sharqshunosi V.Maksimenko fikricha, Markaziy Osiyoning yangi "markazlashuvi"i tartibini belgilovchi asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

1) Kaspiy dengizining neft va gaz zaxiralari yirik konsentratsiyasining kashf etilishi Markaziy Osiyoni dunyodagi uchinchi muhim hudud sifatida (*Saudiya Arabistoni va G'arbiy Sibirdan keyin*) e'tirof etilishi hamda ularni jahon bozorlariga – Osiyo, Amerika va Yevropaga yetkazish yo'llari to'g'risidagi tortishuvlar;

2) "Shimol-Janub" o'rtasidagi aloqa tizimida jahon savdosida eng katta inqilobni va'da qilgan Kaspiy dengizi–Fors ko'rfazi yuk tashish kanalining Eron tomonidan qurilishi; Bu suv transport koridorining shakllanishi Kaspiy dengizi orqali Rossiya va Eronni Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan bog'laydigan muhim geografik yutuqlaridan hisoblanishi;

3) Sharqiy Yevropa davlatlarida AQSh harbiy bazalari tashkil etilganidan keyingi jarayonlarda Vashingtonning Afg'oniston orqali Markaziy Osiyo mintaqasida ham harbiy salohiyatini oshirishga intilishi.

Uzoq vaqt davomida Markaziy Osiyo yirik davlatlar o'rtasidagi geosiyosiy raqobat ob'ekti bo'lib keldi. XX asrning 90-yillari boshlarida mintaqadagi geosiyosiy konfiguratsiyaning o'zgarishi yangi dunyo tartibi va yangi xalqaro vaziyatni yaratdi. Markaziy Osiyo mamlakatlariga qo'shni Osiyo davlatlari uchun o'zlarining bir qator manfaatli harakatlarini amalga oshirish imkoniyati yuzaga keldi. Aynan shu davrda mintaqadan tashqaridagi geosiyosiy va geoiqtisodiy omillar tarixiy muammolarning qaytalanishi va yangilarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

XXI asrda jahon hamjamiyatchiligi barqaror taraqqiyotiga jiddiy xavf tug'dirayotgan tahdid – diniy fundamentalizm va ekstremizm sifatida paydo bo'ldi. Bu tahdid bir davlat doirasida hal etilmaydigan global xarakterga ega bo'lgan fenomen ekanligi bilan ajralib turar edi. Shuningdek, uyushgan jinoyatchilik, giyohvand moddalar noqonuniy savdosi, noqonuniy migratsiya kabi ijtimoiy unsurlar ham mintaqaviy barqarorlikka tahdid sifatida ko'rildi. Shu jihatdan, mintaqa davlatlarida xavfsizlikni ta'minlash masalalarida sa'yi-harakatlarni o'zaro integratsiya qilish dolzarb vazifaga aylandi.

O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev *“Birgalikda terrorism, ekstremizm, transmilliy jinoyatchilikka yanada samarali qarshi tura olamiz. Birinchi qadam sifatida biz BMTning giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha idorasi ishtirokida giyohvandlikka qarshi qo'shma harakatlar rejasini ishlab chiqishni taklif qilamiz. Xalqaro terrorismga qarshi kurashda ham xuddi shunday choralar ko'rilishi kerak”*, deganda mutlaqo to'g'ri pozitsiyani egallagan edi, deya aytay olamiz.

O'zbekiston Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlariga terrorism va narkotrafikka qarshi kurash bo'yicha qo'shma rejani tasdiqlashni taklif qildi. Rasmiy Toshkent ushbu masalalar bo'yicha ikki mintaqa

2004-yil 28-mayda Ostonada davlat rahbarlari kengashining navbatdan tashqari yig'ilishida Rossiya Federatsiyasining MOHTga qo'shilish arizasi ko'rib chiqildi va bir ovozdan qabul qilindi. Rossiyalik ekspertlarning fikricha, MOHT qo'shilish zarurati Markaziy Osiyo mintaqasining Rossiya uchun geostrategik ahamiyati, jumladan, Rossiyaning milliy xavfsizligini ta'minlash manfaatlarini nuqtai nazaridan kelib chiqqan edi.

Bu siyosiy odimning salbiy oqibatlari haqida gapirar ekan siyosatshunos F.Tolipov shunday deydi, *“...Shu tashkilot juda bir yaxshi integratsion jihatdan olg'a siljiyotgan edi. Ya'ni, bu tashkilot 1992-yildan 2005-yilgacha beshta Markaziy Osiyo davlatlarini birlashtirib turuvchi rolni o'ynagan. 2005-yilda bu tashkilotga Rossiya a'zo bo'lib kirdi. Lekin 2006-yilda Markaziy Osiyo hamkorlik tashkiloti faoliyatini tugatdi. To'g'rirog'i, Markaziy Osiyo hamkorlik tashkilotini Yevrosiyoy iqtisodiy ittifoqi bilan birlashtirildi. Ya'ni, Rossiyaga yo'q deymasligimiz sababidan o'zimizning mintaqaviy tashkilotimiz qurbon bo'ldi”*.

Markaziy Osiyodagi integratsiya muammosi faqatgina Markaziy Osiyo davlatlarining o'z ichki ishi bo'lmay qoldi. Yirik xalqaro kuch markazlari va ularning mintaqa bilan bog'liq o'ziga yarasha manfaatli loyihalari mavjud edi. Bu haqda iqtisodchi Sh.Rasulovga ko'ra, quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

*Birinchi loyiha* – “YevroOsiyo”. Bu Rossiyaning loyihasi hisoblanadi. Unga ko'ra, Rossiya atrofida sobiq Ittifoq respublikalarini birlashtirish, ochig'ini aytganda, SSSRni qayta tiklanishi kerak edi. Lekin bu loyihaning ahamiyati va hayotiyliigi Rossiyaning Ukrainadagi harbiy operatsiyalari oqibatida «0»ga teng bo'lib qoldi.

*Ikkinchi loyiha* – “Katta Markaziy Osiyo”. Bu G'arb davlatlari va AQSh taklif qilayotgan loyiha. Unga ko'ra, Markaziy Osiyodagi beshta davlatdan tashqari Afg'oniston va Pokiston ham ushbu loyihaga qamrab olinishi kerak.

*Uchinchi loyiha* – “Panturkizm”. Bu mintaqadagi integratsion jarayonlarni o'z ichiga qamrab olgan, Turkiya shafeligidagi loyiha. Bu loyiha Markaziy Osiyo respublikalari uchun umumiy bo'lgan

*qolishi oldini olish va qo'shni Afg'oniston bilan munosabatlarini mustahkamlash singari masalalar o'rin olgan. Nazarimda, Vashington balandparvoz nomlar va konsepsiyalarni ilgari surmagan holda, Markaziy Osiyoga qaratilgan tashqi siyosatida ayni ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishni davom ettirmoqchi*".

Ilk mustaqillik-yillarida mintaqada Orol dengizining umumiy muammosi, suv ta'minoti tizimi, iqtisodiy qiyinchiliklar, chegara demarkatsiyasi masalalari, demografiya bilan bog'liq ko'plab ijtimoiy omillar Markaziy osiyo respublikalari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini tezlashtiradigandek tuyuldi. Shunga qaramasdan, siyosiy vaziyat, siyosiy manfaatlar ijtimoiy va iqtisodiy muammolardan ustunroq keldi. Markaziy Osiyo respublikalari o'zaro integratsiya va birlashishdan ko'ra, o'z suverenitetini mustahkamlash, tashqi kuchlarga qaram bo'lmaslik, o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlash, milliy manfaatlarini himoya qilish yo'lini tanladi.

1995-2001-yillar davomida Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasida davlatlararo integratsion hamkorlikni mustahkamlash, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga oid turli yo'nalishlar bo'yicha 150dan ortiq hujjatlar imzolandi.

Mintaqa davlatlarining o'zaro integratsiyaga intilish jarayonlari keyingi davrda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy modernizatsiya tendensiyalari, milliy suverenitet asosini shakllantirish, yangi dunyo tartibi voqe'liklariga qo'shilish bilan chambarchas bog'liq bo'lib qoldi. Bu o'rinda, rus tadqiqotchisi G.Miloslavskiyning "...uchta yirik – geosiyosiy, geoiqtisodiy va madaniy omillar Markaziy Osiyo hududiy chegaralarini mintaqaviy tizim sifatida belgilashga imkon beradi" deya fikr bildirgan edi.

2001-yil dekabr oyida Toshkentda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo respublikalari rahbarlari yig'ilishida Markaziy Osiyo iqtisodiy Ittifoqi "Markaziy Osiyo hamkorlik tashkiloti"ga (MOHT) aylantirildi. Qabul qilingan bayonotda yagona xavfsizlik makonini shakllantirish, mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash bo'yicha birgalikdagi harakatlar bilan bog'liq qator maqsadlar belgilandi. Markaziy Osiyo hamkorlik tashkilotini tuzish to'g'risidagi bitim 2002-yilda imzolandi.

vakillari bilan maxsus ekspertlarning kengaytirilgan uchrashuvini tashkil etishga ham tayyor ekanini ta'kidlaydi.

Osiyo qit'asining yirik davlatlari Markaziy Osiyo bilan chegaradosh. Markaziy Osiyo respublikalarining har biri qiyosiy ma'noda geoiqtisodiy va geosiyosiy sohalarda tashqi qo'llab-quvvatlashga muhtojligi ushbu kuchlarning mintaqadagi siyosiy va strategik manfaatlarini xarakterini belgilaydi. Mintaqadagi turli yirik kuchlar geosiyosiy maydonlarining mavjud assimetriyasi hamda manfaatlarini muvozanatining buzilishi natijasida mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikka tahdidlarning ortishiga sabab bo'ladi. Bu omillardan kelib chiqadigan muammolar shu qadar jiddiy xarakterga egaki, ular Markaziy Osiyo respublikalarining mustaqil davlat sifatida shakllanish jarayonlari va xalqaro munosabatlar tizimining geosiyosiy rel'efiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev xavfsizlikni ta'minlash masalasiga to'xtalar ekan, "*Mintaqamiz va dunyodagi vaziyat tobora keskinlashib bormoqda. Milliy xavfsizligimiz, tinch va osoyishta hayotimizga nisbatan tahdid va xatarlar kuchaymoqda. Shu bois hushyorlik va ogohlikni oshirish, o'zaro hamjihatlik va birdamligimizni mustahkamlash, har qanday tahdidlarga munosib javob berishga tayyor bo'lib yashash hayotning o'tkir zaruratiga aylanmoqda*", deya ta'kidlaydi.

Ko'plab tadqiqotchilar fikricha, Markaziy Osiyoning mintaqaviy xavfsizligi, *birinchi* navbatda, AQSh–Rossiya–Xitoyga bog'liq. Mintaqadagi geosiyosiy vaziyatga Yevropa Ittifoqi, Turkiya, islom dunyosi va nodavlat siyosiy-ijtimoiy tashkilotlar ham muayyan ma'noda ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mazkur kuchlar bilan munosabatlar, o'zaro aloqalarning holati – Markaziy Osiyo davlatlari siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti jarayonlariga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Markaziy Osiyoda o'zining siyosiy mavqeiini mustahkamlash, iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga urinayotgan taraflar mintaqa davlatlari tashqi va ichki siyosatiga har qanday usullar bilan bo'lsada ta'sir qilishga harakat qiladi. Rasmiy doiralarda esa, rossiyalik mutaxassis A.Rudenkning fikricha "*Rossiyaning Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan siyosati ochiq xarakterga ega. Rossiyaning*

*yashirin kun tartibi yo'q. Rossiya mintaqaning barcha davlatlari bilan ishonchli tarzda, iloji boricha halol hamkorlik qilishga intiladi. Rossiya mintaq davlatlarini geosiyosiy tanlov oldiga qo'yishga uringani yo'q. Asosiy maqsad mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashdir*".

*Ikkinchidan*, Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlik – Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Janubiy Kavkaz, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq mintaqalari davlatlaridagi geosiyosiy vaziyatning holatiga ham bog'liq;

*Uchinchidan*, mintaqaviy xavfsizlik – Markaziy Osiyo respublikalari – Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning rivojlanish dinamikasi va integratsion jarayonlarning borishiga bog'liq.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi taraqqiyot barqarorligiga tahdid soladigan bir qator siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy potensial muammolarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- iqtisodiy qiyinchiliklar sababli yuzaga keladigan gumanitar muammolar – ishsizlik, inflyatsiya, tibbiyot, qashshoqlik, ijtimoiy tabaqalashish darajasining o'sib borishi;
- Markaziy Osiyo respublikalarining sivilizatsiyalashgan rivojlanish yo'lidan borish masalalarining to'liq hal etilmaganligi;
- Xalqaro doirada keskinlashib borayotgan ekstremizm, diniy fundamentalizm, radikalizm va terorizm tahdidlarining ortib borishi;
- Jamiyatda shaxs ma'naviyatining buzilishi, yoshlar tarbiyasiga yot unsurlarning ta'siri, "ommaviy madaniyat" niqobi ostida yoshlar dunyoqarashining shakllanishidagi salbiy tendensiyalar;
- Giyohvandlik, narkobiznes, transchegaraviy uyushgan jinoiy guruhlar faoliyatining kengayishi;
- mintaq davlatlari o'rtasida suv resurslarini o'zaro maqbul va mutanosib taqsimlash jarayonining murakkabligi va bu boradagi kelishmovchiliklar;
- Orol dengizi atrofidagi gidroekologik vaziyatni yaxshilashning sustligi; Markaziy Osiyo respublikalarining barchasi ham o'z

balki Markaziy Osiyoning beshta davlati o'rtasida umumiy bozor yaratish to'g'risida Toshkentda uchrashuvda protokol imzolandi.

"Turkiston umumiy uyimiz" shiori ostida Markaziy Osiyo respublikalari va Turkiya hamkorligida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini integratsiya qilishga umumiy harakatlar olib borildi.

Orol dengizi qurishi bilan bog'liq ekologik falokatni oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish, respublikalarda yuz berayotgan fuqarolar notinchligini bartaraf etishga oid umumiy siyosatni ishlab chiqish, ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, iqtisodiy hamkorlik bo'yicha majburiyatlar qabul qilindi. Qozog'iston poytaxtida chop etiladigan mintaqaviy gazeta va Toshkentda joylashgan telekanal yaratish to'g'risida bitim imzolandi.

Biroq, Tojikistondagi notinchlik va Turkmanistonning integratsion jarayonlardan taboro uzoqlashib borish siyosati imzolangan bitimlarning amal qilishini savol ostida qoldirdi. Iqtisodiyot va moliya sohasida ba'zi islohotlar amalga oshirildi, muayyan amaliy natijalargada erishildi, biroq, Markaziy Osiyoda mintaqaviy gazeta va telekanalni yaratish bo'yicha takliflar uzoq vaqt davomida qaysi xalq tilini umume'tirof etilgan xalqaro til sifatida qo'llash haqidagi tortishuvlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari erkinligini ta'minlash bilan bog'liq kelishmovchiliklar ushbu sohada ham prinsipial muammolarga sabab bo'ldi.

Eng muhim omil – mintaq respublikalari tashqi va ichki siyosatida tashqi siyosiy kuchlarning (*AQSh, G'arb davlatlari, Rossiya va Xitoy*) ta'sir doirasi orta borishi bilan bog'liq edi. Jahon hamjamiyatining mustaqil subyekt sifatida dunyo siyosiy maydonida o'zining munosib o'rnini egallab borayotgan Markaziy Osiyo respublikalarining muhim geostrategik mavqei va yirik geoiqtisodiy manfaatlar yirik siyosiy kuchlarning mazkur mintaqadagi ta'sirini orttirish uchun raqobat kurashini kuchaytirdi. Yillar davomida bunday raqobat kurashi keskinlashib bordi. O'zbek tadqiqotchisi A.Umarovning fikricha, "*Vashingtonning yaqinda e'lon qilingan va 2019–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasidan Markaziy Osiyo barqarorligini ta'minlash, mintaqaning qo'shni yirik mamlakatlar ta'siriga tushib*



jihatidan ulkan proektlar hisoblanib, o'nlab davlatlar hududlarini umumiy transport yo'li zanjiriga o'zaro birlashtirishiga sabab bo'ladi.

ShHT davlatlari hududlarining mintaqaviy transport uzellariga ulanishi xalqaro savdo va iqtisodni rivojlantiribgina qolmay, madaniyat va ma'rifat sohaslarida ham o'zaro integratsiyaga qulay sharoit yaratadi. Turli madaniyat va sivilizatsiyalarning zamonaviy qorishuvi – diniy bag'rikenglik, millatlararo dialog, madaniy sohalar rivojiga xizmat qiladi.

Yaqin kelajakda ShHT mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalarida yangicha konseptual yondashuvlarni ishlab chiqishda davom etadi. Unga a'zo davlatlar suvereniteti, hududiy daxlsizligi, xavfsizligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlash vazifalari ham tashkilotning asosiy kun tartibidagi vazifalardan bo'lib qoladi.

## **5. Markaziy Osiyo integratsiyasi – O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi**

Markaziy va Janubiy Osiyo qadim zamonlardan beri bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lib kelgan. Ilm-fan, ma'rifat, ilmiy yutuqlar, madaniy va ma'naviy qadriyatlar Buyuk Ipak yo'li bo'ylab dunyoga tarqaldi. Ipak yo'lida joylashgan mamlakatlarda turli sivilizatsiyalar to'qnashuvi natijasida madaniyat yuksaldi, ilm-fan taraqqiy topdi, savdo-sotiq rivojlandi.

### ***Mintaqaviy integratsiya jarayonlari***

Markaziy Osiyoda Sovet Ittifoqi tarqalganidan oldin ham o'zaro integratsion jarayonlarga urinishlar bo'lganligiga bir qator tarixiy voqealardan shohid bo'lish mumkin. 1990-yil iyun oyida besh respublika rahbarlari Olmaotada birinchi yig'ilishini o'tkazdilar. Uning yakuniy hujjatlari siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalaridagi harakatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan edi.

Bu kabi sammitlar muntazam o'tkazib kelindi. 1993-yil yanvar oyida nafaqat yangi "Markaziy Osiyo" siyosiy atamasi paydo bo'ldi,

iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda, Orol dengizi muammolarini kollektiv hal etishda ishtirok etmasligi;

- Afg'onistondagi keskin siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy vaziyat, etnik mojarolar, gumanitar tanazzul oqibatlari;
- jahon yirik siyosiy kuchlari o'rtasida tabiiy, va eng avvalo, energetika resurslari uchun raqobat kurashining kuchayib borishi oqibatida mintaqadagi siyosiy jarayonlarga ta'sir o'tkazish harakatlari.

Mintaqaviy tahdidlarning tabiati va o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan omillarni anglashga harakat qilib, *birinchi navbatda*, Markaziy Osiyoning tranzit mintaqasi sifatidagi geografik mavkeiga e'tibor qaratish lozim. Shuningdek, undagi tarixiy, geosiyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, milliy-etnik, diniy omillar ham zamonaviy tahdidlarni xarakterini belgilovchi unsurlarni tashkil etadi. Bugungi kunda mazkur omillar mintaqadagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlarning asosiy qismini egallab, uning global munosabatlar tizimidagi rolini belgilab bermoqda.

Siyosatshunos V. Bogatiryev (*Qirg'iziston*) "*...mintaqaning tranzit tabiati geosiyosiy tahdidlar manbai. Markaziy Osiyo geosiyosiy manfaatlarining asosiy zonalari – Rossiya, Xitoy, Janubiy Osiyo, Kaspiy dengizi va Yaqin Sharq bilan bog'lanish uchun ideal platformadir. Shu ma'noda, bu dunyoning barcha qudratlari uchun "katta siyosiy o'yin" uchun muhim tramplinni anglatadi*", deb yozgan edi.

Tahdidlarning, *ikkinchi*, muhim manbai Markaziy Osiyo respublikalari iqtisodiyotining sobiq sovet tuzumi asoratlariga to'liq barham berib, zamonaviy bozor munosabatlariga o'tish jarayonlari bilan bog'liq. Bu o'ta murakkab jarayon bo'lib, undan kelib chiqadigan muammolar:

- jahon global iqtisodiy tizimida o'zining munosib o'rnini egallash uchun kurash;
- iqtisodiy resurslarning yetishmaslik holati ijtimoiy muammolar, qashshoqlik, aholining nisbatan past turmush darajasi – mintaqani global jarayonlarning bir qismi sifatida arzon xomashyo va ishchi kuchi yetkazib beruvchi sifatidagi mavqeini belgilash.



Tahdidlarning, *uchinchi*, transmilliy manbai – Markaziy Osiyo respublikalarining siyosiy mavqeining shakllanish jarayonlarining tashqi ta'sirlarga bog'liq bo'lib qolishi.

Markaziy Osiyo respublikalarida G'arbning siyosiy, ijtimoiy-madaniy muhitini Osiyo voqeliklariga kiritishga urinishlar natijasida yuzaga kelayotgan keskinliklar o'sayotganini kuzatish mumkin. Bu holatda – sivilizatsiyalar to'qnashuvi, “ommaviy madaniyat” targ'iboti, LGBTni qo'llash bilan bog'liq harakatlar, milliy ma'naviyat va qadriyatlar ziddiyati – mintaqa xavfsizligi va jamiyatning barqaror taraqqiyotiga salbiy ta'sir etuvchi tahdidlar sirasiga kiradi.

Mintaqaviy xavfsizlikka tahdidlarning, *to'rtinchi*, manbai – bu mojaroli chegaralarni hal qilish, demarkatsiya va separatistik tendensiyalar bilan bog'liq muammolar majmuasi. Markaziy Osiyoda bu muammolardan holi bo'lgan birorta mamlakat yo'q. Garchi Markaziy Osiyoda suveren davlatlar-yillar davomida kelishuvlarni saqlab qolishga harakat qilayotgan bo'lsada, mavjud real vaziyat jiddiy va ziddiyatli xarakterga ega. O'zbekiston-Qirg'iziston, Qirg'iziston-Tojikiston o'rtasida o'zaro kelishuvlar asosida hal etilishi lozim bo'lgan mojaroli chegara hududlari hanuz mavjud. Shu jihatdan, O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev iqtidorga kelgan ilk davridanoq aynan shu masalaga jiddiy e'tibor qaratib kelmoqda.

### ***Ekologik va ijtimoiy tahdidlar***

Ko'p sonli va xavfli transmilliy tahdidlarning yana bir manbai – Markaziy Osiyo mintaqasi tabiiy muhiti, ekologiya bilan bog'liq omillar. Shu nuqtai nazardan, keskinligi jihatidan ajralib turuvchi uchta **ekologik tahdid** zonasini keltirish mumkin:

1) **suvdan foydalanish**; mutaxassislarning fikricha, mintaqaviy darajada suvdan foydalanish bo'yicha iqtisodiy nazoratning joriy etilishi suv iste'molidagi me'yorlarni belgilaydi, suv isrofgarchiligini oldini oladi, sug'oriladigan katta yer maydonlarning sho'rlanishi, Orol dengizining qurishi bilan bog'liq yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etadi. Suv resurslaridan oqilona foydalanish, ular uchun to'lovlar, Markaziy Osiyodagi gidrotexnika inshootlarida texnogen

*taraqqiyot yo'lida birlashishga, ayirmachilik unsuridan xoli bo'lgan jozibador makonga aylanishi lozim*”, deydi Sh.Mirziyoyev.

Dunyo aholisining qariyb yarmini o'zida mujassam etgan mazkur tashkilotning siyosiy prinsiplarini e'tiborga olish, uning mintaqaviy va xalqaro doiradagi muammolar bo'yicha munosabati bilan hisoblashish davri keldi. Tashkilotning xalqaro muammolar yechimiga oid konseptual yondashuvlari, xalqaro huquq normalariga muvofiq faoliyati – uning geosiyosiy mavqei ortishi, geografik hududining kengayishi, kelajakda tashkilotning xalqaro doirada yirik siyosiy kuch sifatida o'z o'rniga ega bo'lishiga olib keladi.

Tashkil topganidan buyon o'zining prinsipial siyosiy qarashlari bilan taraqqiyotning evolyusion bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tib kelayotgan mazkur tashkilot doimiy modernizatsiya jarayonida. Tashkilotda davrning chaqiriqlariga doimiy kompetent hozirjavoblik, ishtirokchilar uchun ochiqlik, o'zaro dialogga tayyorlik – uning nufuzli mavqei va mustahkam poydevorini ta'minlaydigan omillardan.

Bugungi kunda xalqaro munosabatlarda turli siyosiy qarashlarga va o'zining prinsiplariga ega bo'lgan davlat va nodavlat tashkilotlar ko'p. Ularning faoliyatida mintaqaviy va xalqaro siyosiy kuchlarning ta'siri sezilib turadigan holatlar ham uchrab turadi. Shu jihatdan ShHT o'zining mustahkam mavqei, betaraflik, o'z prinsiplariga sodiqligi, xalqaro huquq me'yorlariga mutanosib harakatlari bilan ko'plab siyosiy institutsional birlashmalardan alohida ajralib turadi.

Yaqin kelajakda ShHT tomonidan ilgari surilayotgan taraqqiyot strategiyasi, unga a'zo davlatlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining ko'plab jabhalarini o'z ichiga olgan hamkorlik aloqalari tizimi – mazkur tashkilotning mavqeini yanada mustahkamlaydi.

ShHT tomonidan iqtisod, ijtimoiy rivojlanish, savdo-sotiq, ta'lim, tibbiyot, ekologiya, sanoat ishlab chiqarish sohalaridagi o'zaro hamkorlik koopersiyalarini taraqqiy ettirish loyihalari mintaqaviy va global iqtisodiy rivojlanishda ham muhim rol o'ynaydi.

Tashkilotning mintaqaviy va global transport logistika infratuzilmasini taraqqiy ettirish loyihalari, darhaqiqat, masshtabi

ShHTga a'zo davlatlarining ba'zilari kuchli iqtisodga va yirik ishlab chiqarish sanoatlariga, salmoqli moliyaviy qudratga ega bo'lsa, ba'zilari endilikda rivojlanib kelayotgan mamlakatlardir. Shu jihatdan, o'zaro hamkorlik kooperatsiyasi, o'zaro manfaatli munosabatlarning rivojlanishi, har ikki tomon davlatlari uchun ham samara berishi tayin. *Birinchi taraf* uchun iste'mol va xomashyo bozorlarining kengayishi, *ikkinchi taraf* uchun sanoat ishlab chiqarish va iqtisodiy rivojlanishga investitsiyalarning jalb qilinishi bilan jozibali. O'zaro resurslarning qo'shilishi barcha taraflarning manfaatlariga xizmat qiladi.

ShHT doirasida moliyaviy masalalar muhokamasi, o'zaro bank tizimlari integratsiyasi, savdo-sotiq operatsiyalari amaliyotlarini soddalashtirish, onlayn savdo platformalarini yaratish ham ahamiyatli. Bunda o'zaro savdo to'siqlarini bartaraf etish, bojxona talablari va texnik reglamentlarni soddalashtirish, mavjud xizmatlar reestrini raqamlashtirish ishlarini tezlashtirish ham muhim qadam hisoblanadi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti xalqaro munosabatlarning mustaqil siyosiy institutsional subyektlaridan biri sifatida tashkil topgan vaqtdan buyon o'tgan davr ichida o'zining mustahkam pozitsiyasi, siyosiy prinsiplariga sodiqligi nuqtai nazaridan jahon hamjamiyatining nufuzli organiga aylanib ulgurdi.

Tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida gegemon mavqeni egallashga intilishning yo'qligi, a'zo davlatlar suvereniteti, milliy manfaatlari, ma'naviyati va qadriyatlarini e'tiborga olinishi tashkilotning o'z faoliyatida bardavomligini ta'minlovchi omillardan.

ShHT davlatlari turli millatlar, diniy qarashlar, aholisining soni, iqtisodiy ahvolidan qat'iy nazar tashkilotda bir xil mavqega va o'z o'rniga ega. Tashkilot doirasida hal etilishi lozim bo'lgan masalalarda o'zaro konsensus muhim o'rin tutadi. Ushbu vaziyat tashkilotning xalqaro nufuzini oshirib, unga a'zo bo'lish istagini bildirayotgan davlatlar sonining ortib borishiga sabab bo'lmoqda.

*“Shanxay hamkorlik tashkilotining muvaffaqiyat garovi — mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash orqali ko'p tomonli hamkorlikni ilgari surishdadir. ShHT o'z mohiyatiga ko'ra, tinchlik, hamkorlik va*

ofatlar tahdidi ham xavfsizlik masalalari bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda mintaqada seysmik, suv toshqinlari, suv to'g'onlari va omborlarining deformatsiyasi holatlarini zamonaviy texnologiyalar, masofaviy GPS qurilmalari, radarlar, interferometrik kuzatuvlar asosidagi monitoring nazorati olib borilishi juda zarur.

2) **yadro ishlab chiqarish va sinovdan o'tkazish oqibatlarini bartaraf etish;** xavfli yadro tarkibiy qismlarining qoldiqlari va ularni saqlash xavfsizligini ta'minlash, tog'-kon chiqindilarini qayta ishlashni tashkil qilish; ekologiyaga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan texnogen ofatlarni oldindan aniqlab borish tizimini yo'lga qo'yish va bu boradagi analiz ishlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim.

3) **Markaziy Osiyo aholisining yashash muhitini yaxshilash;** Markaziy Osiyo – bu odamlar og'ir tabiiy va iqlim sharoitlarida yashaydigan, ularning sog'lig'iga, umr ko'rish davomiyligi va hayot sifatiga, xalqlarning genofondlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan yagona ichki kontinental mintaqadir.

Markaziy Osiyo “beqarorlik yoyi” deb atalmish hududda – giyohvand moddalar, qurol-yarog', kontrabanda, noqonuniy muhojirlar va boshqa unsurlar keng faoliyat ko'rsatishdan manfaatdor makonda joylashgan.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi mavjud qiyinchiliklarga qaramay, tahdidlarning halokatli tabiati haqida vahimali tarzda gapirishga asos yo'q. Ularni qat'iyat bilan yo'q qilish uchun samarali, ta'sirchan choralarni ko'rish mumkin. Faqatgina harakatsizlik, beparvolik, loqaydlik, aralashmaslik, qandaydir manfaatlarni ko'zlash, pessimizm kabi illatlar muammolarni hal etishni paysalga solishi mumkin. Salbiy oqibatlarni minimallashtirishi mumkin bo'lgan holatlarga sabab bo'luvchi profilaktik diplomatiyani doimo yodda tutish zarur.

Tadqiqotchilar yagona ijtimoiy xavfsizlik konsepsiyasi doirasida umumiy chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishgan va ularni quyidagi sohalarga ajratib ko'rish mumkin:

➤ Markaziy Osiyo yagona geosiyosiy blokini shakllantirish va rivojlantirishni asosiy strategik maqsad qilib olish;

➤ ko'p vektorli siyosatni davom ettirish, yirik tashqi ittifoqchilarni yaqinroq bo'lishga va o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashga harakat qilish;

➤ Markaziy Osiyo respublikalari atrofida barqarorlik va xavfsizlikning konsentrik doiralarini shakllantirishda davom etish;

➤ Markaziy Osiyo davlatlarining rivojlanish strategiyasini hisobga olgan holda, ularni bir-biri bilan bog'lashga harakat qilib, mintaqalararo kelishmovchiliklarni kamaytirish va o'zaro ishonchni oshirish;

➤ suv, energetika, xomashyo va boshqa vaziyatlar bilan bog'liq ziddiyatlarni bartaraf etishga xizmat qiladigan mintaqaviy qo'shma korxonalar va tashkilotlarini tuzish;

➤ Markaziy Osiyo respublikalari orasidagi chegaralar demarkatsiyasi va delimitatsiyasi masalalarini tez muddatlarda yakuniga yetkazish;

➤ Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasidagi chegaralar perimetriyasi bo'ylab davlat va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish;

➤ Potensial tahdid va chaqiriqlarning barcha azimutlariga javob bera olishga qodir "xavfsizlik kamarlari"ni yaratish.

Bugungi kunda xavfsizlik tizimlarini ta'minlash tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jalb qilish, axborot almashinuvi, ma'lumot yetkazish, kiberxavfsizlik tizimlarini qo'llash davr talabiga aylangan. Toshkentdagi Vebster Universiteti professori A.Fayzullaevning ta'kidlashicha, *"kelajak axborot texnologiyalariga tegishli. Axborot xavfsizligi, AKT rivojlanishi bilan bog'liq tahdidlarni oldini olish, raqamli iqtisodiyotda munosib hayotni ta'minlash zarur"*.

O'zbekiston Respublikasida **"Raqamli O'zbekiston – 2030"** strategiyasi ishlab chiqildi va qabul qilindi. Hozirda respublikada raqamli iqtisodiyot, tibbiyot, ta'lim, kommunikatsiyalar, xizmat ko'rsatish sohalari tez taraqqiy etmoqda. Xorijning bir qator yirik korporatsiyalari, Rossiyaning "Beber", "ozon", Yandex kabi kompaniyalari, uyali aloqa operatorlari faoliyat ko'rsatmoqda. Chet el

*bir-biriga yaqinlashtirishga qaratilgan"*, deydi Oliy Majlis Senati raisining o'rinbosari S.Safoev.

Tashkilotga a'zo davlatlar va ularga qo'shni mamlakatlardagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlar, iqtisodiy o'sish dinamikasi, demografiya, migratsiya, ta'lim, tibbiyot, kambag'allikka qarshi kurashish, turizm, madaniyat, diniy munosabatlar va ekologiya kabi hayotning turli jabhalariga oid muammolarga yechim topish ham ShHT ekspertlarining izlanishlari doirasiga kiradi.

Bugungi kunga kelib ShHT hamjamiyati – ulkan geografik makonni egallagan, sayyoramiz aholisining qariyb yarmini birlashtirgan, YevroOsiyo aholisining qariyb 60 foizidar ortig'ini o'z ichiga qamrab olgan dunyodagi eng yirik mintaqaviy tashkilotdir. Unda muhokama doirasiga kiritilgan masalalar o'zining aktualligi, davrning dolzarb vazifalariga bag'ishlanganligi, unga a'zo davlatlarning aytarli barchasi ro'baro kelayotgan muammolarni o'z ichiga qamrab olganligi bilan ahamiyatli. Aynan shu tamoyil tashkilotning davr bilan hamnafas, zamonaviy globalizatsiya sharoitlariga mos ravishda qadam tashlayotganini ko'rsatadi.

Ushbu tashkilot doirasida Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik muammolarga yechim topish, amalga oshiriladigan loyihalarni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarni, investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini ishlab chiqish, xalqaro donorlar mablag'larini yo'naltirishda ham samarali faoliyat olib borish imkoniyatiga ega. Amaliy vazifalarni bajarishda o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish, transport logistikasi markazlarini tashkil etish, xalqaro darajadagi avtomagistral transport yo'llarini qurish bo'yicha Hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llashni yanada takomillashtirish, xalqaro axborot almashinuvi, ma'lumot uzatish, kiberxavfsizlik tizimlarini rivojlantirish ham davrning dolzarb masalalari sifatida ShHT kun tartibidan o'rin olib bormoqda. Buning davomi sifatida sanoat ishlab chiqarishiga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish ham muhim.

etishga intilayotganligining o'zi ham tashkilot faoliyatining katta yutuqlaridan.

ShHT xalqaro va mintaqaviy siyosatda biror harbiy blok, biror davlat manfaatlarini ko'zlamaydi, bir taraflama siyosiy qarash va hukmron siyosiy mafkuraga ega bo'lishga intilmaydi. Uning o'z siyosiy pozitsiyasi, maqsad va vazifalari, unga a'zo davlatlar mavqei va manfaatlarining umumiy mazmunidan kelib chiqadigan prinsiplari mavjud.

ShHT bosh kotibi Chjan Mingga ko'ra, "...tashkilot turli bloklarga qo'shilmaslik, uchinchi tomonga qarshi harakat qilmaslik tamoyillariga qat'iy rioya qilishi kerak. Biz har doim "Shanxay ruhi" va ShHT xartiyasi asosiy maqsadlariga qat'iy rioya qilishimiz, turli bloklarga qo'shilmaslik, har qanday uchinchi tomonga qarshi harakat qilmaslik asosiy tamoyillariga qat'iy rioya qilishimiz kerak. Tashkilot birdamligini qat'iy ta'minlash va hamkorlikni rivojlantirishga intilish lozim". O'zbekiston prezidenti Sh.Mirziyoyev ham ushbu fikrni qo'llab-quvvatlaydi: "ShHTning xalqaro tashkilot sifatidagi jozibadorligi uning faoliyati asosini tashkil etadigan quyidagi tamoyillarda namoyon bo'lmoqda: Shanxay hamkorlik tashkilotining turli bloklardan xoli maqomga ega ekani, ochiqlik, uchinchi mamlakatlar yoki xalqaro tashkilotlarga qarshi qaratilmagani, barcha ishtirokchi tomonlarning tengligi va suverenitetini hurmat qilish, ichki ishlarga aralashmaslik, siyosiy qarama-qarshilik va ixtilofli raqiblikka yo'l qo'yimaslik".

Bugungi kunda, ShHT faoliyati xalqaro hamjamiyat tomonidan qiziqish bilan kuzatilayotgani, uning ish faoliyatida kuzatuvchi sifatidagi ishtirokchi davlatlar sonining ortib borishi – tashkilotning xalqaro va mintaqaviy muammolar yechimidagi yondashuvlarining xususiyatini belgilaydi. ShHT zamonaviy xalqaro munosabatlarda sivilizatsiyalar dialogini samarali yo'lga qo'ya olgan siyosiy tuzilma rolini bajarmoqda. "ShHTning maqsadi – yangi devorlar emas, yangi ko'priklar qurish. ShHT sammiti fikrlar qandaydir qarama-qarshiliklarni kuchaytirish yoki yangi devorlarni barpo etish, yangi chegaralarni belgilash emas, balki yangi ko'priklarni qurish, xalqlarni

kompaniyalarining investitsiyalari raqamli mahsulotlar ishlab chiqaradigan mahalliy kompaniyalarga yo'naltirilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017-yilda Samarqandda o'tkazilgan mintaqaviy konferensiyada so'zlagan nutqida Markaziy Osiyoni "noyob imkoniyatlar va amalga oshirilmagan ulkan salohiyat mintaqasi", deb atagan edi.

Markaziy Osiyoning bir qator geosiyosiy xususiyatlaridan kelib chiqib, mintaqaviy integratsiya guruhiga kiruvchi har bir mamlakatni rivojlantirish uchun barqaror va xavfsiz sharoitlarni yaratish bilan bog'liq davlatlararo integratsiyaning turli jihatlarini dolzarb. "Insoniyatning bir butunligi va o'zaro bog'liqligi shu darajada yuqoriki, mavjud xatarlarning aksariyati nafaqat mintaqalar, balki umumjahon miqyosida hamkorlik qilishni taqozo etmoqda" deb ta'kidlaydi O'zbekiston rahbari.

Markaziy Osiyo respublikalarining integratsion harakatlari nafaqat iqtisodiy pragmatizm, balki xavfsizlik va barqaror taraqqiyot kaliti hamdir.

Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim jihatlaridan yana biri – bu Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarining mustahkamlanishi bilan bog'liq. Bir davlatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy muammolar o'sha davlatning o'zigagina oid bo'lib qolmasligi tendensiyasi bugungi kun voqealarida o'z isbotini topmoqda.

Qisqa va o'rta muddatli istiqbolda Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasidagi aloqalarning murakkab taraflari – ularni bevosita xalqaro munosabatlardagi mavqei belgilaydi. Xalqaro jihatdan mintaqada davlatlari o'rtasidagi munosabatlar Markaziy Osiyoning xalqaro xavfsizlik tizimiga jalb etilganlik darajasiga ham bog'liq bo'ladi.

Bugungi globalizatsiya sharoitlarida hududiy masalalar tez fursatda global muammoga aylanish tendensiyasi yuzaga kelgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "...dunyoning turli nuqtalarida davom etayotgan qurolli mojarolar savdo va investitsiya

*oqimlarini izdan chiqarib, oziq-ovqat va energetika xavfsizligini ta'minlash borasidagi muammolarini yanada keskinlashtirmoqda*".

Mintaqaning geosiyosiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, barcha davlatlarning barqaror taraqqiyotini ta'minlaydigan davlatlararo integratsiyaning turli aspektlari faol rol o'ynaydi.

### **3. "Afg'on tuguni" va Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta'minlash masalalari**

Afg'onistonning geostrategik ahamiyati, *birinchi navbatda*, uning to'rtta yirik tarixiy va madaniy sivilizatsiyalar dunyosi – Xitoy, Markaziy Osiyo, Hindiston va Eron bilan hududiy yaqin masofada joylashganligi bilan bog'liq.

*Ikkinchidan*, Afg'oniston hududining ikki turdagi transkontinental aloqa yo'llarining kesishgan chorrahasidagi muhim geografik mavqei:

a) shimoldan janubga tomon yo'nalgan va Hindikushni kesib o'tadigan, Markaziy Osiyoni Pokiston va Hindiston bilan bog'laydigan yo'llar;

b) Eronni Hindiston bilan, Yaqin Sharqni Uzoq Sharq bilan bog'laydigan kenglik yo'nalishida cho'zilgan yo'nalishlar.

AQShning Afg'onistondan chiqib ketishi tufayli Markaziy Osiyo davlatlari regional xavfsizlik masalalarida yangicha chaqiriqlarga to'qnash keldi. Afg'onistonda yangi tartibdagi (Tolibon hukumati) davlat boshqaruvi shaklining o'rnatilishi, siyosiy, diniy, milliy qarama-qarshiliklarning avj olishi holati, nafaqat ushbu davlat, balki, Markaziy Osiyo respublikalarida ham o'z ta'siriga ega bo'ladi.

Rossiya "Valday klubi" ilmiy ishlar bo'yicha direktori F.Lukyanov mintaqaviy xavfsizlik masalalari bo'yicha munozarada "...so'nggi o'ttiz yil ichida kuzatganlarimizni takrorlashga arzimligini ko'pchilik yaxshi tushunadi. Ammo Afg'onistondagi siyosiy jarayonlarda ishtirok etish instinkti to'liq yo'qolmadi, aksincha, unda yangi ishtirokchilar, Xitoy, Pokiston va Hindistonning paydo bo'lishi, o'rtadagi keskin ziddiyatlarning saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

bir davlatning imkoniyatlariga bog'liq bo'lmagan holatlar uchrasa, unga boshqa mamlakatlarning aralashuvi masalani yanada chigallashtirishi, vaziyatni yanada murakkablashtirish mumkin. Aynan shunday holatlarda Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi mintaqaviy nufuzga ega institutsional birlashmaning faol harakatlari, o'zaro hamkorlik aloqalarining samarasi ijobiy natijalar berishi tayin. Shu jihatdan tashkilotda unga a'zo davlatlarning milliy ma'naviyati, milliy qadriyatlarini, ko'p millatli aholisi, diniy e'tiqodi masalalariga hassos yondashuv mavjud.

ShHTga a'zo davlatlarda ularning ichki ishlariga aralashmaslik, hududiy yaxlitlik va davlat suverenitetini saqlash, inson huquqlari va xalqaro huquq me'yorlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishga intilish tashkilotning mavqeiini mustahkamlaydigan omil. Shu jihatdan bugungi kunda ushbu tashkilotga a'zo bo'lishga intilayotgan davlatlar soni ortib bormoqda.

#### *Istiqbol*

Bugun Shanxay hamkorlik tashkiloti tashkil etilganiga 20 yil to'ldi. Ushbu tashkilot o'zining xalqaro nufuzi ortib borayotganligi, siyosiy-ijtimoiy muammolar yechimiga oid konseptual qarashlariga egaligi jihatidan mintaq va dunyo hamjamiyati oldida turgan global vazifalarni hal qilish masalasini kun tartibiga qo'yimoqda.

Tashkilotning mustahkam siyosiy mavqei, muammolarga obyektiv yondashuvi, ziddiyatlarni hal etish qarorlarini qabul qilishda o'zaro konsensusga tayanish tamoyillari – uning faoliyati samaradorligini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, ShHTda ko'rsatilayotgan tashabbuslar ko'lamidan mintaqalararo muloqotning kengayotganini kuzatish mumkin. Masalan, Hindiston va Pokistonning tashkilotga qo'shilishi orqali Janubiy Osiyo mintaqasidan, Eronning tashkilotga a'zo bo'lishidan Yaqin Sharq mintaqasi bilan aloqalari doirasi kengayib borayotganini ko'rsatmoqda. Belorussiyaning tashkilotga a'zo bo'lish uchun ariza topshirishi, Qatar, Saudiya Arabistoni, Misr Arab Respublikasining tashkilot ishlarida kuzatuvchi sifatida faol ishtirok



qarshiliklar saqlanib qolgan loyihalar bo'yicha umumiy konsensus asosida amalga oshirish ahamiyatli.

XXI asrda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi tinchlik va taraqqiyotni ta'minlashda muhim rol o'ynashi, har qanday tushunmovchiliklar, ziddiyatlarda va davlatlararo kelishmovchiliklarni o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal etish, ushbu mintaqalarda do'stlik, o'zaro anglashuv, hamkorlik va konstruktiv mustahkam muhit o'rnatilishini ta'minlash va bunga hissa qo'shish – ShHT faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan ekanligi belgilab olingan. *“Ko'p tomonlama faoliyatga asoslangan eng yosh institutlardan biri — Shanxay hamkorlik tashkiloti aynan mana shunday maqsad va vazifalarni ko'zlaydi. Bu tashkilot madaniy-sivilizatsion qarashlari turlicha, o'z tashqi siyosiy yo'nalishlari va milliy taraqqiyot modellariga ega mamlakatlarni birlashtira olgan o'ziga xos davlatlararo tuzilmadir. Tarixan qisqa davrda ShHT katta yo'lni bosib o'tib, global siyosiy va iqtisodiy tizimning ajralmas qismiga aylandi, deb qat'iy ishonch bilan aytish mumkin”*, deya ta'kidlaydi O'zbekiston prezidenti.

Shanxay hamkorlik tashkilotining 2022-yil 15-16-sentabrdagi Samarqand sammitida 15 davlat rahbarlari va o'nta xalqaro tashkilot mas'ullari ishtirok etdi. Mazkur sammit bugungi kundagi geosiyosiy va geoiqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda, alohida ahamiyatga ega sanaladi. Ushbu sammitda global kun tartibidagi barcha dolzarb masalalarni muhokama qilish uchun samarali platforma yaratildi.

Xalqaro munosabatlar mazmuni va tartibotlarining o'zgarib borishi, dunyoda tahlikaviy vaziyatning kuchayishi, siyosiy va iqtisodiy manfaatlar uchun kurashning keskinlashishi sharoitida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida ShHT doirasida 14 ta yangi konseptual hujjatlar loyihasi ishlab chiqilib, o'zaro hamkorlik sohalarini mazmunan boyitdi.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda millatlararo kelishmovchiliklar, diniy masalalarda keskinliklar, separatizm muammolar jahonning turli o'lkalarida siyosiy tangliklarning yuzaga kelayotganini kuztilmoqda. Ushbu vaziyatda muammoga yechim topish

Bundan tashqari, biz eng yirik kuchning hatti-harakatlarida o'zgarishni kuzatmoqdamiz. AQSh endi Afg'onistonni o'z milliy manfaati doirasidagi hudud, deb hisoblamaydi”, degan fikrni bildirib o'tdi.

F.Lukyanovga ko'ra, “mintaqada xalqaro siyosatning bir xillik tendensiyasi – G'arbning hukmronligi, AQShning ketishi bilan o'zgarganligini tasdiqladi. So'nggi o'ttiz-yil ichida Rossiya, Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari AQSh boshchiligidagi harbiy koalitsiya kuchlarining Afg'onistonda mavjudligini mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlab turgan omillardan biri sifatida e'tirof etishar edi”.

AQShning Afg'onistonni tark etishi siyosiy maydonga yangi kuchlarning kirib kelishiga, vaziyatning tubdan o'zgarishiga o'ziga xos turtki bo'ldi. AQShning mintaqadagi gegemon mafkurasi yakunlanib, uning o'rnida radikal g'oyalarga asoslangan yangi targ'ibot mashinasi ildamladi, mintaqaviy xavfsizlikka tahdid uyg'otishi mumkin bo'lgan yangi turdagi muammolar paydo bo'ldi.

Endilikda Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning yangicha yondashuvlarini yaratish zamonaviy davr talabiga aylandi. Ekspertlarga ko'ra, Afg'onistondagi siyosiy, iqtisodiy va gumanitar muammolarni hal etishda jahon hamjamiyatchiligining kollektiv hamkorligi sezilarli ijobiy natijalar berishi mumkin. Afg'oniston yangi chaqiriqlar oldida turibdi, unga jamiyatni qurishda kerakli yordamni ko'rsatish, mavjud hukmron tuzum bilan kommunikativ munosabatlarni olib borish muhim sanaladi.

Afg'onistonda Tolibon hukumatining o'rnatilishi mintaqada kuchlar balansining o'zgarishiga olib keldi. AQSh boshchiligidagi harbiy koalitsiyaning, muayyan ma'noda, Afg'onistondagi siyosiy gegemon kuch mavqeidan ortga chekinishi, Rossiya, Xitoy, Pokiston, Eron va Hindistonning mintaqaviy ta'sir rolini nisbatan oshirishiga imkoniyat yaratdi.

Afg'oniston yana Tolibon hukmronligi qo'lga o'tdi. Xo'sh, Tolibon siyosiy jihatdan o'zgardimi? Uning avvalgi siyosiy qarashlari, diniy fundamentalistik, radikal mafkurasi qay darajada transformatsiya bo'ldi? Tolibon zamonaviy siyosiy jarayonlar chaqirig'iga tegishli javob

berishga qodirmi? Bu kabi ko‘plab savollar paydo bo‘ldi. Bugungi real voqe‘liklardan kelib chiqilsa, yigirma-yil oldingi Tolibon harakatidan bugungi toliblar faoliyati anchagina farq qilishini kuzatish mumkin. Bugungi toliblar siyosiy harakatlari borasida, davlat va jamiyat boshqaruvida o‘zgarishlarni kuzatish mumkin, ularning hokimiyatga kelishidan hamma qo‘rqan, dahshatli narsa sodir bo‘lmadi.

Ammo, boshqa tomondan, hamma umid qilgan narsa ham bo‘lmadi. Ha, toliblar global jihadning bir qismi bo‘lishni to‘xtatdilar. Afg‘onistonda toliblar tomonidan ISHID va “al-Qoida” terroristik guruhlariga qarshi keskin kurash olib borildi, borilmoqda, ekstremistik guruhlarining faoliyati keskin qarshilikka va jiddiy ta‘sirga uchradi.

Biroq, tan olish kerakki, tolibonning siyosiy, diniy, radikal mafkuralarida jiddiy o‘zgarishlar sezilganicha yo‘q. To‘g‘ri, ular zamonaviy davlatchilik boshqaruv tizimlari mohiyatini anglab yetdilar, faqatgina islom mafkurasi bilan davlat qurish va uning mexanizmlarini boshqarish imkonsizligini tushunishdi.

Eng muhim jihatlaridan biri – toliblar Afg‘onistonni jahon hamjamiyatchiligidan butunlay uzib qo‘yishning salbiy oqibatlariga olib kelishini, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi hamkorlik aloqalarigina mustaqil va barqaror rivojlanishi mumkin bo‘lgan davlatchilikni tuzish mumkinligi ko‘rsatdi. Ijtimoiy sohalarida toliblar islom dini aqidalariga sobit qolayotgan bo‘lsalarda, davlatchilik, xalqaro munosabatlar, xavfsizlik va iqtisod sohalarida zamonaviy boshqaruv tamoyillari muhimligini anglab yetdilar.

Bugungi kunda jahon hamjamiyatchiligi Tolibon harakatini Afg‘oniston siyosiy maydoniga kirib kelishini qabul qilgan guruhlar va bu holatni mamlakat uchun falokat deb qabul qilayotgan tarafdirlarga bo‘lindi. Shu munosabat bilan xalqaro maydonda toliblar bilan munosabatlarni o‘rnatayotgan, va aksincha, ushbu aloqalarni tanqid ostiga olayotgan tarafdirlar paydo bo‘ldi.

Rossiya, Markaziy Osiyo respublikalari, Xitoy, Pokiston, Hindiston, Eron, Qatar kabi davlatlar yuzaga kelgan vaziyatni to‘g‘ri anglashga, bundan keyingi munosabatlarni xalqaro huquq me‘yorlari asosida, afg‘on xalqi manfaatlarini va barqaror kelajagini e‘tiborga olgan

*bir masala, kun tartibi ham konsensus asosida shakllantiriladi*”, deydi O‘zbekistonning ShHT bo‘yicha koordinatori R.Nurimbetov.

ShHT o‘zining har tomonlama salohiyatini oshirish va Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlashning samarali mexanizmlarini mustahkamlashni maqsad qilgan.

### ***Ma‘naviyat va milliy qadriyatlar***

Dunyoda madaniyatlar va sivilizatsiyalarning xilma-xilligi umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi. Bugungi globalizatsiya sharoitida zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining jadal rivojlanishi davrida madaniyatlar muloqoti, bag‘rikenglikni rag‘batlantirilishi, har bir xalqning o‘z taraqqiyoti yo‘liga ega ekanligi huquqi to‘liq ta‘minlanishi kafolatlanishi kerak.

ShHTga a‘zo davlatlarda ko‘p millatli, turli diniy qarashlarga mansub xalqlar istiqomat qilishi e‘tiborga olinsa, diniy bag‘rikenglik, ma‘naviyat va milliy qadriyatlar, urf-odatlarini o‘zaro hurmat qilish tamoyillarining ahamiyati beqiyos. ShHT davlatlari milliy manfaatlarini, ma‘naviy qarashlari, qadriyatlarini o‘zaro hurmat qilish, e‘tiborga olish – zamonaviy diplomatiyaning muhim prinsiplaridan ekanligini anglaydilar. Aynan mazkur omil tashkilot doirasida muhokama etilayotgan masalalarning mazmun mohiyatiga ham ta‘sir etib, yakuniy natijalarning samarasida muhim o‘rin tutadi.

Oqilona va adolatli dunyo tartibi o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlashga, xalqaro ishlarda monopoliya va hukmronlikka da‘vo qilmasdan haqiqiy sheriklik munosabatlarini o‘rnatishga asoslangan bo‘lishi lozim. Bunday tartib xalqaro huquq prinsiplari va me‘yorlarining, birinchi navbatda, BMT Nizomining ustunligiga qanchalik mustahkam asoslansa, yanada barqaror va xavfsizroq bo‘ladi. Inson huquqlari sohasida har bir xalqning tarixiy an‘analari, milliy xususiyatlari, ma‘naviyati va qadriyatlarini, barcha davlatlarning suveren tengligini qat‘iy va izchil hurmat qilish kerak.

Bu o‘rinda, ShHTning samaradorligi va nufuzini oshirishga qaratilgan oqilona va zarur islohotlari e‘tirofqa loyiq. Ushbu islohotlarni amalga oshirishda mumkin bo‘lgan kelishuvlarga rioya qilish, qarama-

kelgan. Biz bu tashkilotning chuqur tarixiy ildizlarini ham ko'rishimiz mumkinki, aslida bu Xitoy va Sovet ittifoqi o'rtasida chegara masalalari, chegara hududlarida o'zaro ishonch choralari, ya'ni harbiy qo'shinlarni kamaytirish, xavfsizlik masalalarida boshlangan muloqotning davomi desa bo'ladi", deydi O'zbekistonning ShHT bo'yicha koordinatori R.Nurimbetov.

ShHT davlatlari o'z hududlarida, shu jumladan, boshqa mamlakatlarning manfaatlariga qarshi qaratilgan terrorchilik harakatlarini tayyorlash va amalga oshirishga, separatistik va ekstremistik faoliyatni sodir etganlikda ayblanayotgan yoki gumon qilinayotgan shaxslarga boshpana bermaslik, agar ShHTning boshqa tegishli murojaatlari bo'lsa, bunday shaxslarni ekstraditsiya qilishga urinishlarni to'xtatadi.

ShHT xalqaro terrorizmga qarshi kurash doirasida uning moddiy bazasini yo'q qilish bilan bog'liq muammolarni, birinchi navbatda, qurol-yarog', o'q-dorilar, portlovchi moddalar va giyohvand moddalarning noqonuniy savdosi, uyushgan transchegaraviy jinoyatchilik, noqonuniy migratsiya va g'arazli faoliyatga qarshi kurash orqali hal etishi muhim ahamiyatga ega. Terrorchilarning ommaviy qirg'in qurollari tarkibiy qismlari va ularni yetkazib berish vositalari hamda axborot terrorizmidan foydalanishining oldini olishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Terrorizm, separatizm va ekstremizmni moliyalashtirishga, shu jumladan noqonuniy olingan daromad va mablag'larni legallashtirishga qarshi kurashish ShHT doirasida pul o'tkazmalarini, terrorizmga aloqadorlikda gumon qilinayotgan shaxslar va tashkilotlar mablag'larining harakatlanishini monitoring qilish bo'yicha umumiy yondashuv va standartlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

ShHT va NATO o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga kelsak, uning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun xavfsizlik va rivojlanish masalalariga yondashuvlarda tub farqlar ko'rinishida jiddiy to'siqlar mavjud. ShHT a'zolari xalqaro muammolar, xususan, AQShning mintaqadagi o'rni va roli bo'yicha umumiy qarashlarni ishlab chiqishda davom etadi. *"ShHT – G'arbga qarshi tuzilma emas. Bu tashkilotda har*

holda olib borishni ma'qul ko'rmoqdalar. Shubhasiz, Afg'oniston barqarorligi, uning chegaralari mustahkamligi Markaziy Osiyo va qo'shni davlatlar xavfsizligi tizimini ta'minlanishida muhim rol o'ynaydi.

Afg'oniston hanuz xalqaro terrorizm, fundamentalizm va ekstremizm o'choqlaridan biri bo'lib qolayotganligini e'tiborga olgan holda, ushbu illat bilan kurashayotgan Tolibon hukumatining sa'yi-harakatlarini qo'llab-quvvatlash, unga kerakli yordamni berib borish – mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. Bunday yordam global masshtabda, jahon hamjamiyatchiligining qo'llab-quvvatlashi va nazorati asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Ba'zi siyosiy guruhlar Afg'oniston tashqi va ichki siyosatida AQShdan keyin hosil bo'lgan siyosiy bo'shliqni egallash uchun Rossiya, Xitoy yoki Markaziy Osiyo davlatlari kurashishi kerak, degan g'oyani ilgari suradilar. Ammo "osonlashtirish – murakkablashtirish" spektrining o'rtasida qolish va bu borada juda uzoqqa bormaslikni anglash oqilona siyosatning namunasi ekanligini ko'p siyosiy rahbarlar to'g'ri tushunadilar.

So'nggi-yillarda Markaziy Osiyo respublikalarida mudofaa sohasida salmoqli islohotlar amalga oshirildi. Hozirda ularning barchasi yuqori darajada jangovar tayyorgarlikda ekanini ta'kidlash o'rinli. Mintaqaning ba'zi mamlakatlari va Rossiya qurolli kuchlari o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlar tizimi yaratilgan. Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasini himoya qilish darajasi sovet tuzumi davridagidan ancha yuqori xarakterga ega.

O'zbekiston Afg'onistonda Tolibon tarafidan jamiyatni barqaror rivojlantirish yo'lida olib borayotgan sa'yi-harakatlarda kuzatilayotgan ijobiy o'zgarishlarni optimistik tarzda qayd etib bormoqda. Ko'pchilikka yoqishi yoki yoqmasligidan qat'iy nazar, Tolibon Afg'onistonning qonuniy hukumati, ular endi davlat boshqaruvida, o'z ierarxiyasiga ega bo'lgan afg'on jamiyatining o'zini-o'zi ta'minlaydigan segmenti.

Tolibon rahbariyatida ham siyosiy masalalarda o'zaro ziddiyatlar mavjud, buni e'tirof etish shart, lekin ularni bartaraf etsa bo'ladi. Endigi dolzarb vazifa – Afg'oniston hukumati uchun suveren va mustaqil, jamiyatning barqaror taraqqiyoti, davlat xavfsizligini ta'minlash, iqtisod va ijtimoiy sohani rivojlantirish, islohotlar olib borishdan iborat.

Afg'onistonda ayollar va inson huquqlarining poymol etilishi bilan bog'liq tahlikali holatlardan ko'pchilik xavotirda. Toliblar afg'on ayollarining ta'lim olish, jamiyat faoliyatida ishtirok etish, davlat korxonalarida mehnat qilishiga bir qator cheklovlarni qo'ydi. Mavjud ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun toliblar bilan muzokaralar olib borish maqsadga muvofiq. Buning uchun Toliblar keng qamrovli, zamonaviy talablarga javob beradigan layoqatli hukumatni shakllantirishi lozim.

Ammo toliblardan o'zini ixotalab, bu talablarning barchasini birdaniga bajarishlarini kutib, dunyo hamjamiyati siyosiy xatoga yo'l qo'yishi mumkin. Tolibon jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishidan manfaatdor va qashshoqlik yoqasida azob chekayotgan va yashayotgan afg'on xalqi uchun ularga yordam berish kerak.

Albatta, Tolibonga to'liq ishonish kerak, degan fikrni hech kim ilgari surmaydi. Bu o'rinda gap xalqaro hamjamiyat Afg'oniston taraqqiy etgan hamkorga aylanishi va tinchlikka tahdid solmasligi uchun bu mamlakat bilan o'zaro munosabatlarga yagona yondashuvni ishlab chiqishi kerakligi haqida ketmoqda. Xavfsizlik va erkinlikka – o'zaro hamkorlik, ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish hamda inson huquqlari kafolatlarini ta'minlash orqali erishiladi.

Zamonaviy jahon hamjamiyatida yangi dunyo tartibi yuzaga kelgan. Davlatlararo munosabatlar, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash dilemmasi – bir xalqning, bir millatning, bir davlatning vazifasi doirasidan allaqachon chiqib ketgan. Globalizatsiya jarayonlari – davlatlararo va mintaqaviy integratsiya, xavfsizlikni ta'minlash masalalarini umumjahon muammolari darajasiga olib chiqqan. Shu jihatdan, Afg'onistondagi bugungi vaziyatni to'g'ri baholay bilish zamonaviy siyosiy tahlilning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

➤ terrorizmga qarshi kurash o'ziga xos milliy yoki diniy mansublikka ega emasligini anglash; ShHTga a'zo davlatlar terrorizmga qarshi kurashni hech qanday din, diniy erkinlik, alohida mamlakatlar yoki millatlarga qarshi kurash bilan bog'lamaslik;

➤ ShHTga a'zo davlatlar terrorizmga qarshi xalqaro kurashda yetakchi rol BMT va Xavfsizlik kengashiga tegishli ekanligini e'tirof etish;

➤ Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda xalqaro huquq me'yorlariga asoslanilishi ta'kidlanadi.

ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari globallashuvning ziddiyatli jarayoni sharoitida umumbashariy tinchlik va xavfsizlikni saqlash tenglik va o'zaro hurmat tamoyillariga asoslangan ko'p tomonlama hamkorlik, suveren davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, qarama-qarshi bo'lmagan fikrlash, mamlakatni demokratlashtirish yo'lida izchil harakat qilish orqali ilgari surilishini ta'kidlaydilar.

Bu o'rinda, O'zbekiston Prezidenti davlatimiz siyosatining ustivor yo'nalishini ko'rsatib berdi: *“Xalqaro hamkorlikning universal prinsipi va normalarga asoslangan tizimi izdan chiqib borayotgani bugungi kun haqiqatidir. Buning asosiy sabablaridan biri — global darajada davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonchning chuqur tanazzulga yuz tutayotgani bilan bog'liq. Bu esa o'z navbatida geosiyosiy qarama-qarshiliklarga rag'bat berib, «bloklarga mansublik» stereotiplarining qayta tug'ilish xavfini yuzaga keltirmoqda. Davlatlar o'rtasidagi bunday o'zaro ishonchsizlik jarayoni jahon iqtisodiyotining avvalgi taraqqiyot yo'liga qaytishini va global ta'minot zanjirlarining tiklanishini murakkablashtirmoqda”*.

Xalqaro munosabatlar va mafkuralar va ijtimoiy tuzilishdagi farqlardan qat'iy nazar, xalqaro hamjamiyatni o'zaro ishonch, o'zaro manfaat, tenglik va o'zaro ta'sirga asoslangan xavfsizlik tushunchasini shakllantirishga chaqiradi.

*“ShHT – bu tipologiya bo'yicha yangi turdagi tashkilot. Yangi mintaqaviylikka borib taqaladi, desak xato bo'lmaydi. U XX asr oxirida klassik xalqaro tashkilotlardan farqli o'laroq, boshqa bir makon, boshqa bir siyosiy, iqtisodiy, madaniy, jo'g'rofik makonda yuzaga*

O‘zbekiston Respublikasining ShHTga a‘zo davlatlar xavfsizlik kengashlari kotiblarining tegishli milliy mahkamalarning yangi taxdid va xurujlarga qarshi turishdagi hamkorligini mustahkamlash maqsadiga qaratilgan doimiy uchrashuvlarini o‘tkazib turish haqidagi tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi.

ShHT xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm muammosiga jiddiy e‘tibor qaratadi. Bu muammo Markaziy Osiyoda ayniqsa keskin, chunki Afg‘oniston hududidagi ekstremistik tashkilotlarning faoliyati bilan bog‘liq tahdidlar mintaqaning barcha davlatlari xavfsizligiga rahna soladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Afg‘oniston bo‘yicha 2018-yil 26-27-mart kunlari Toshkentda o‘tkazilgan “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” nomli konferensiyada Afg‘onistonda tinchlikni o‘rnatilishi, o‘z navbatida, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish, bundan tashqari, mamlakatda barqarorlikni qaror toptirish uchun iqtisod va ijtimoiy sohalarni rivojlanishida xalqaro yordam ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish bilan birga olib borilishini salmoqli natija berishi mumkinligini alohida ta‘kidlab o‘tdi.

Siyosatshunos K.Rabbimovga ko‘ra, *“Xitoy ShHTda uchta asosiy xavf bor deydi, bular separatizm, ekstremizm va terrorizm. Uning uchun Markaziy Osiyo davlatlari atrofida va postsovet hududida ShHTning tuzilishidan pirovard maqsad bu – “uyg‘ur separatizmi” yoki boshqa xavflar bilan kurashishda mintaqaviy jipslikni ta‘minlashdir”*.

Bu tashkilotning vazifalari-yillar davomida davrning chaqiriqlariga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda ShHTning geostrategik vazifalari xavfsizlikdan katta geoiqtisodiy va geosiyosiy formatga transformatsiya bo‘lmoqda. Bugungi ShHT ikki asosiy yo‘nalish – xavfsizlik va iqtisod sohasida hamkorlik faoliyatini yanada kengaytirmoqda.

Shu jihatdan, ShHTga a‘zo davlatlar tomonidan terrorizmga qarshi hamkorlikda kurashning quyidagi tamoyillari ishlab chiqildi:

- xalqaro terrorizmga qarshi kurashda ikki tomonlama standartlar bo‘lmasligi; terrorizm barcha uchun umumiy muammo va tahdid ekanligi; uni mas‘uliyat bilan hal qilish;

Markaziy Osiyo davlatlari afg‘on tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdidni boshdan kechirmasada, lekin ushbu o‘lkada diniy fundamentalizm va radikalizm mafkurasi bilan yo‘g‘rilgan hamda qurollangan siyosiy guruhlarining faoliyati hanuz mavjudligi, ular mintaqa xavfsizlik tizimlariga tahdid uyg‘otadigan omillar qatorida saqlanib qolayotganligi tashvishli holatdir.

Bugungi kunda Afg‘oniston hududida yigirmadan ortiq terroristik tashkilotlar faoliyat yuritayotganligi borasida ma‘lumotlar mavjud. Markaziy Osiyo mamlakatlari aholisi musulmon dunyosining bir qismi ekanligi e‘tiborga olinsa, radikal g‘oyalar odamlarning ayrim guruhlari ongiga juda tez kirib borishi, singishini rad etib bo‘lmaydi. Huddi shunday guruhlar Tolibonning g‘alabasini radikalizm va islomizm g‘alabasi, deb bilishlari ham yashirib bo‘lmaydigan haqiqat.

Bundan tashqari, Afg‘onistonda bugungi vaziyatni qulay paytda “portlatishga” qodir, beqarorlikni keltirib chiqaradigan uyushgan kuchlar hanuz mavjud. Bular ichida ISHID, “al-Qoida”, “Hizbut tahriyr” va “O‘zbekiston islom harakati” kabi bir qator radikal tashkilotlarning faoliyatini aytib o‘tish mumkin.

2022-yilda BMT Afg‘onistonni jahonning qashshoq mamlakatlaridan biri sifatida ro‘yxatga kiritdi. Afg‘oniston butunlay agrar mamlakat, uning hududidagi har qanday sanoat korxonalari boshlang‘ich bosqichda. O‘tgan asrning 70-80-yillaridagi voqe‘liklar tufayli Afg‘oniston siyosiy hayoti, iqtisodiyoti, ijtimoiy infrastrukturasi jiddiy putur yetdi, mamlakat ichki urushlar, xorijiy aralashuvlar va uni ichkaridan yo‘q qilgan boshqa ko‘plab omillarga duch keldi. Afg‘onistondagi inqiroz davrida tinch aholining qo‘shni davlatlarga muhojir qochqin sifatida o‘tib ketishiga sabab bo‘ldi. Faqatgina Eronning o‘zida Afg‘onistondan 1,5 mlnga yaqin qochqin bor edi.

Afg‘oniston aholisi bugungi kunda 42 mlndan ortiq kishini tashkil etib, 652,230 kvadrat kilometr maydonda istiqomat qiladi. Afg‘onistondagi demografik holat yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Aholining o‘shish sur‘ati yuqoriligi tufayli, statistik prognoz tahlillariga



ko'ra, aholi soni 2030-yilda 46 mln, 2050-yilda 62 mln, 2100-yilda 70 mlnga yetishi mumkin.

Afg'oniston dunyo suv transport yo'llariga chiqish imkoniyatiga ega emas. Mamlakat poytaxti – Qobul shahri bo'lib, unda 3 mlndan (2022-yil ma'lumoti) ortiq kishi yashaydi. Qobul mamlakatdagi eng zich joylashgan va eng yirik shahar hisoblanadi. Afg'onistonda aholining savodxonlik darajasi 38,2 foizni tashkil etadi, aholining 99,9 foizi musulmonlardan iborat.

“Shimol–Janub” transport koridor yo'lagini kengaytirish bo'yicha Rossiya–Hindiston-Eron uch tomonlama hukumatlararo bitimning tuzilishi natijasida Afg'oniston hududi orqali o'tadigan aloqa yo'llarining ahamiyati ortdi.

Afg'oniston nafaqat “yangi” (*sobiq sovet respublikalari*) va “eski” (*Kashmir, Shinjon*) Markaziy Osiyo yo'nalishi bo'yicha tezkor hujum harakatlarini amalga oshirishda xizmat qiladigan harbiy bazalarni joylashtirish uchun juda muhim geostrategik hudud, shuningdek, XXI asrda Yevropa–Rossiya-Osiyo savdosining rivojlanishida markaziy rol o'ynaydigan geoiqtisodiy ko'prik vazifasini ham o'taydi.

Afg'onistonning XX asr tarixi shu qadar ziddiyatli, nomuvofiq, kutilmagan burilishlarga, qarama-qarshiliklarga to'laki, uning kelajakdagi siyosiy rivojlanishining umumiy paradigmasini deyarli aniq tahlil etish, siyosiy analitik bashoratlar berish murakkab va imkonsiz. Muvozanatning tez o'zgarishi, vaziyat izidan chiqishi, kutilmagan voqea-hodisalarning yuz berishi, mamlakatda kuchlar balansini turlicha o'zgarib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Afg'oniston jamiyatini isloh qilish va modernizatsiya qilishdagi nomutanosib va ba'zan konvulsiv urinishlar mamlakatni taraqqiyotini ancha-yillar ortga uloqtirib tashladi, sifat jihatidan turli xil tarixiy o'zgarishlar yuz berdi. Natijada mamlakat ko'plab sohalarda global rivojlanish sur'atlaridan tobora orqada qoldi.

Rus tadqiqotchisi V.Korgun shunday yozadi: *“Hozir kungacha Afg'onistondagi asosiy siyosiy voqealar ichki kuchlarning o'zaro ta'siri yoki qarshi turishi natijasi, deb taxmin qilingan. Tashqi ta'sir unda hal qiluvchi omil bo'lmasligi ham mumkin. Ehtimol, bu hech bo'limganda,*

ShHTga a'zo davlatlar Markaziy Osiyo hamda Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqalarida barqarorlikni ta'minlash, mavjud muammolarni o'zaro muzokaralar orqali, tinchlik yo'llari bilan hal etish maqsadida – mintaqa davlatlari rahbarlarini tashkilotning sammitlarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish amaliyotini yo'lga qo'yishdi.

2002-yil bahorida Pokiston va Hindiston rahbarlarini Olmaotadagi uchrashuviga taklif qilgan ShHT rahbarlari ko'p jihatdan Janubiy Osiyoning ushbu yirik davlatlari o'rtasidagi keskin qarama-qarshilikning to'xtatilishiga sezilarli hissa qo'shdi, bu esa, qurolli to'qnashuv va ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda yadro qurolidan foydalanish xavfi bo'lgan harbiy mojaroning oldi olinishiga sabab bo'ldi.

Mintaqaviy va global xavfsizlik, barqarorlik, hududiy yaxlitlik va suverenitetga xavf tug'diradigan tahdidlar Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari uchrashuvlaridagi muhokamalarning muhim mavzusiga aylangan. Xalqaro terrorizm, ekstremizm va separatistik harakatlarga qarshi birgalikda kurashish zaruriyati ko'p bora ta'kidlanib kelinadi. Davlatlarning ushbu tahdidlariga qarshi ShHT doirasida yaqindan hamkorlik qilish prinsiplari belgilab qo'yildi. Shu asosda zamonaviy tahdidlarga qarshi kurash bo'yicha 2001-yilning 15-iyunida **“Shanxay Konvensiyasi”** imzolandi.

Mintakaviy aksiterror tuzilmasi 2004-yil 1-yanvardan faoliyat ko'rsata boshladi. Mazkur tuzilma doirasida o'zaro axborot almashish, chegara va bojxona va boshqa maxsus xizmatlarning hamkorligini muvofiqlashtirish, shu orkali terrorchilikni oldini olish vazifalarini amalga oshirishga kelishib olindi. Shu maqsadlarda tuzilma tarkibida kengash va ijroqo'm faoliyati yo'lga qo'yildi.

ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining 2004-yil 17-iyunda Toshkentdagi uchrashuvida “Toshkent deklaratsiyasi”, ShHTning vakolatlari va immunitetlari to'g'risidagi konvensiya, Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik to'g'risidagi bitim, tashkilot va uning organlari faoliyatiga doir hujjatlar imzolandi.

- Osiyo-Yevropa transmilliy kontinental transport yo‘llariga tutash davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish;

- Yaponiya, Janubiy Koreya va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash;

Shanxay hamkorlik tashkiloti konstruktiv rivojlanish uchun ko‘plab qulay imtiyozlarni taqdim etish imkoniyatiga ega. Bu imkoniyatlardan unumli foydalanish unga a‘zo davlatlarning eng birlamchi vazifalariga kiradi. Siyosatshunos S.Jo‘raev “*Transport bog‘liqligini rivojlantirish bo‘yicha ShHT strategiyasi, Mintaqalararo savdoni rivojlantirish rejasi, Infratuzilmani rivojlantirish dasturi, “ShHT Ezgu niyat elchisi” institutini tashkil etish kabi ShHT amaliyoti uchun yangi hujjatlar loyihalari tashkilotning salohiyatini mustaxkamlaydi va obro‘ e‘tiborini, jozibadorligini oshiradi*”, deb ta‘kidlaydi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, ShHTga a‘zo davlatlarning asrlar davomida “Buyuk Ipak yo‘li” bilan birlashgan, Sharqdan G‘arbga va G‘arbdan Sharqqa tovarlar va xizmatlar ayirboshlashni ta‘minlovchi transport koridorini shakllantirish va ishga tushirishdagi ulkan salohiyat mavjudligini real voqelikka aylantiradi. Mashhur “Buyuk Ipak yo‘li” zamonaviy talqinda – “Bir makon, bir yo‘l”, “Oltin kamar” konseptual loyihalarida o‘zining evolyusion mantiqiy davomini namoyon etmoqda.

### ***ShHT doirasida xavfsizlik va barqarorlik***

Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri – zamonaviy tahdidlarga qarshi hamkorlikda kurashish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat edi. Bugungi kunda jahon hamjamiyati xavfsizligi va barqarorligiga xavf tug‘dirayotgan tahdidlar chegara bilmaydi. Muammolar bir davlat hududidagina mavjud bo‘la olmaydi, zamonaviy globalizatsiya jarayonlari siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni mintaqaviy darajadan xalqaro miqyosga osongina ko‘chishiga sabab bo‘lmoqda. Shu nuqtai-nazardan, davriy tahdidlarga qarshi hamkorlikda harakat qilishgina samarali natijalar berishini vaqt va hodisalar evolyusiyasi isbotladi.

*Yaqin Sharq mintaqasi va boshqa mamlakatlar uchun ham xosdir. Biroq, ushbu voqelikni Afg‘oniston tajribasida ko‘rilmaydi. 1978-yilgi inqilob va undan keyin Afg‘onistondagi dramatik voqealar bizni shubha ostiga qo‘yadi, ichki va tashqi omillar nisbatiga boshqacha qarashga undaydi*”.

An‘anaviy, o‘ta konservativ jamiyatni zamonaviy me‘yorlar va standartlar bilan sintez qilishga urinishlar, tashqi kuchlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan bo‘lishiga qaramay muvaffaqiyatli yakun topmadi. Bu yo‘lda eng kuchli to‘siq afg‘on xalqining doimo an‘anaviy urf-odatlariga, qadriyatlariga, birinchi navbatda, Islom diniga asoslangan milliy psixologiyasiga tayanishi bo‘lib kelgan.

Afg‘oniston jamiyatini o‘zgartirish, isloh qilish yoki modernizatsiya qilish natijasida yuzaga kelgan eng yuqori ijtimoiy ziddiyatlar davrida islom mafkurasi muhim o‘rin egalladi.

Sovet qo‘shinlari Afg‘onistondan chiqib ketganidan keyin turli afg‘on guruhlarini o‘rtasidagi ichki siyosiy kurash harbiy mojaroning avj olishiga olib keldi. Bu vaziyat mintaqadagi qo‘shni davlatlarga, xususan, Markaziy Osiyoda barqarorlik va xavfsizlikka tahdidlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Afg‘onistonning yaqinlashib kelayotgan milliy–hududiy parchalanish alomatlarini Tolibon harakatining paydo bo‘lishiga hissa qo‘shgan omillardan biri bo‘ldi.

Birinchi bosqichda Tolibon harakati o‘zini integrator – Afg‘onistonning tarqoq hududlarini birlashtiruvchi, mamlakatning parchalanishiga qarshi kurashuvchi kuch deb e‘lon qildi. Bundan tashqari, Tolibon davlat tashkil etuvchi millat maqomini da‘vo qilgan pushtun etnik guruhi vakillari bo‘lib, unitar davlatning ashaddiy tarafdorlari sifatida harakat qildi.

Tolibon Afg‘onistonda xalifalik yaratish g‘oyasini ilgari suradi. Tolibon matbuoti pan-islomizm va xalifalik shaklida islomiy davlat yaratish g‘oyasini targ‘ib qilib keldi. “*Ezgu orzumiz, - deb e‘lon qildi Qandahor gazetasi Tuluyi Afg‘oniy, – dunyoning barcha musulmon*

*davlatlari oxir natijada yagona, bo‘linmas Islomiy xalifaligiga birlashadilar”.*

Toliblardan siyosiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida talab qilingan islom amirligini tuzish mafkurasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan edi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun toliblar, ularning fikriga ko‘ra, qayta tarbiyalashning eng ta‘sirchan usuliga murojaat qilishdi: jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ilk islom davridan beri musulmon qonunlarida nazarda tutilgan – omma oldida qatl va jismoniy jazo turini qo‘lladilar. Bu holat keng jamoatchilikda inson huquqlarining kamsitilishi sifatida keskin tanqidlarga uchradi.

Afg‘onistonda diniy radikalizm, ekstremizm, narkotrafik va noqonuniy qurol-yarog‘ savdosi kabi omillar Markaziy Osiyo respublikalari xavfsizligiga tahdid soluvchi asosiy manbaga aylandi.

BMTning narkotiklar nazorati va jinoyatchilikning oldini olish idorasi ma‘lumotlariga ko‘ra, Afg‘oniston afyun va geroinni ishlab chiqarishda jahonda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

Afg‘oniston plantatsiyalari ushbu turdagi giyohvand moddalarni dunyo miqyosida ishlab chiqarishning deyarli 75-80 foizini tashkil qiladi. Har-yili afyun ishlab chiqarish 2,8 dan 4,8 ming tonnagacha hajmi tashkil etadi. Markaziy Osiyo va Kaspiy mintaqasi geografik jihatdan afyun jinoiy eksportining transport yo‘lida joylashgan. Iste‘mol bozori – Rossiya, Sharqiy va G‘arbiy Yevropa davlatlari bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, giyohvand moddalar savdosining asosiy oqimi tabiiy ravishda kontrabanda usullari bilan ushbu mintaqa davlatlari hududidan o‘tmoqda.

Bugungi kunda giyohvand moddalar biznesini hududiy va milliy xususiyatlarga ko‘ra ajratishning deyarli hech qanday ma‘nosi yo‘q. Barcha giyohvand moddalar sindikatlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Giyohvand moddalar tranzitiga qarshi kurashning uyushgan, yagona davlatlararo nazorat tizimi mavjud emas. Bu illat bilan kurashish barcha davlatlarda jiddiy siyosiy vazifa sifatida belgilangan bo‘lsada, unga qarshi kurashishda har bir davlat o‘z strategiyasi va kurashish

Yevropa kontinental transport koridori Xitoy–Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa yo‘lini ochilishini anglatadi.

Umumiy transport yo‘lining qurilishida uchta geostrategik mohiyat asosiy rol o‘ynadi:

*birinchidan*, “sovuq urush” mafkurasi davrining nihoyalanishi va jahonda qo‘p qutbli yangi jahon tartibining yuzaga kelishi;

*ikkinchidan*, umumiy transport yo‘llarning ulanishi Markaziy Osiyo va Xitoyning “islohot va ochilish” siyosatining natijasi;

*uchinchidan*, Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgandan so‘ng mintaqaning siyosiy va iqtisodiy tarkibiy tuzilishida sezilarli o‘zgarishlarning yuz berishi.

Markaziy Osiyoda yangi temir yo‘llarining qurilishi, Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston va Tojikiston avtomobil transport yo‘llari tarmog‘ining ishga tushirilishi, optik kabellarning yotqizilishi, xalqaro logistika tizimlarning yo‘lga qo‘yilishi bilan mintaqa davlatlari tovar mahsulotlarining jahon bozori va xalqaro savdo maydonlariga olib chiqilishiga qulay imkoniyatlar yaratadi.

Mazkur transport tarmog‘iga Afg‘onistonning ham ulanishi rejasi loyihaning xalqaro strategik ahamiyatini oshirib, mintaqaning Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan ham savdo-iqtisodiy va ijtimoiy aloqalari rivojiga salmoqli hissa qo‘shadi. Yana bir eng muhim jihat – ushbu reja jabrdiyda afg‘on xalqini iqtisodiy nochorlikdan chiqarish va ushbu mamlakatda tinchlik va barqarorlikni qaror toptirishga o‘zining sezilarli hissasini qo‘shadi.

Osiyo va Yevropani bog‘lovchi transmilliy kontinental yo‘llar zanjiri **“Oltin kamar”** degan ramziy atama bilan nomlanadi. Bu ShHTga a‘zo davlatlar uchun iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda juda muhim geostrategik ahamiyatga ega va u quyidagi birlamchi vazifalarni hal qilishda yordam beradi:

- Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari, Rossiya va Xitoy iqtisodiyotlarini yanada jadal rivojlanish bosqichiga ko‘tarish;
- Yevropa davlatlari investitsiyalarini jalb qilish orqali ular bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;

erishish mumkin bo'lad. Natijada o'zaro savdo-sotiqni tovarlar va xizmatlar nomenklaturasining kengayishi, tarkibining yangilanishi va oqibatda, tashkilotning barcha a'zolari iqtisodiy salohiyatining oshishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining yangi sharoitida ShHTga a'zo davlatlarning iqtisodiy hamkorlik salohiyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonning investitsiya imkoniyatlarini oshirish, tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida kapital almashinuvini yangi bosqichga ko'tarish, ushbu masalalar bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish, har tomonlama manfaatlarni ro'yobga chiqarish va iqtisodiy islohotlarni mustahkamlash nazarda tutilmoqda. *“ShHT makonidagi davlatlarning yuksak insoniy, intellektual va texnologik salohiyatga, jadal rivojlanayotgan iqtisodiyotlarga va hali to'laqonli foydalanilmagan tabiiy zaxiralarga ega ekani tashkilotning iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ShHTga a'zo davlatlar yalpi ichki mahsulotining umumiy hajmi jahon ko'rsatkichining qariyb chorak qismini tashkil qilmoqda. Bu esa endigina 20 yoshga to'lgan ushbu mintaqaviy tashkilot tomonidan dunyoning barqaror rivojlanishiga qo'shilayotgan hissasining salmog'i yuksak ekanidan dalolat beradi”*, deya ta'rif beradi O'zbekiston rahbari.

O'zbekistonning “iqtisodiy” tashabbuslari qatorida ShHT “Ishbilarmonlar kengashi” doirasida o'zaro sarmoyalarni ilgari surish bo'yicha global moliyaviy-iqtisodiy tahlikalarni yumshatishga qaratilgan qo'shma harakat rejasini ishlab chiqilishi – turmush darajasining pasayib ketishini oldini olish, iqtisodiy imkoniyati cheklangan aholi qatlamlarini ijtimoiy himoyaga olish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va iqtisodiy yuksalishga erishish hisobidan aholi turmush farovonligini oshirish chora-tadbirlarini qamrab oladi.

Transport yo'llari infrastrukturasi rivojlantirish ham Shanxay hamkorlik tashkilotining dolzarb vazifalaridan sanaladi. Bu o'rinda, yangi Osiyo-Yevropa kontinental transport yo'lagining qurilishi ham strategik ahamiyatga ega loyihalardan. Xitoy temir yo'l tarmog'ini Markaziy Osiyo bilan bog'lash mintaqaning xalqaro savdo bozorlariga chiqish imkoniyatlarini yanada kengaytirishi ko'zda tutilgan. Osiyo-

mexanizmini ishlab chiqqan. Jahon hamjamiyatining keskin tanqidi va tazyiqi ostida Tolibon hukumati ham rasmiy ravishda mamlakatda heroin moddalari xomashyosini yetishtirishga qarshi kurash e'lon qildi.

Globalashgan va yuqori texnologiyali giyohvandlik imperiyasi nafaqat dunyoning istalgan nuqtasida alohida davlatning milliy xavfsizligiga, balki butun insoniyatga ham haqiqiy tahdid solmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari va umuman jahon hamjamiyati global giyohvandlik mafiyasining salbiy ta'siriga har qachongidan ham ko'proq moyil bo'lib, bu ularning demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga putur yetkazadi.

2001-yil 11-sentabr voqealari jahondagi siyosiy vaziyatni tubdan o'zgartirdi. AQSh boshchiligidagi xalqaro koalitsiyaning aksiterror operatsiyalari jarayonida Afg'onistondagi ziddiyat va undan keyingi tiklanishning Markaziy Osiyo mintaqasiga tahdidlari bilan bog'liq muammolar xalqaro hamjamiyatning tobora ko'proq e'tiborini tortdi. Terrorizm tahdidining global mohiyati va ushbu yovuzlikka qarshi kurashda dunyo hamjamiyatining sa'yi-harakatlarini jamlash va kuchaytirish zaruriyatini namoyish etdi.

2021-yilda Tolibon harakatining yana Afg'oniston hukumatini egallashi mamlakat tarixida yangi davrni boshlab berdi. Endigi Tolibon hukumati davlatni yuritishning yangi usullarini, davlatchilikning umumqabul qilingan prinsiplari asosida boshqarishga e'tibor qaratmoqda. Tolibon jahon hamjamiyatchiligi bilan aloqalarni o'rnatish, qo'shni davlatlar – Markaziy Osiyo respublikalari, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Eron va Qatar bilan ko'p tomonlama manfaatli hamkorlik munosabatlarini olib borishga harakat qilmoqda. Tolibon harakati Afg'onistonda ekstremistik guruhlarini yo'q qilish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, hududiy barqarorlikka erishishni muhim vazifa sifatida belgiladi.

2018-yilda Toshkentda O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan Afg'oniston bo'yicha “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik bo'yicha mintaqaviy hamkorlik” mavzusida yuqori darajadagi xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, hamkorlikni mustahkamlash, yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini



yanada kengaytirish to'g'risidagi "Toshkent Deklaratsiyasi" o'z samarasini berdi. Bu borada O'zbekiston rahbari Sh.Mirziyoyev, "...dunyo hamjamiyati va mintaqaviy tashkilotlar e'tiborini Afg'onistonda tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashga jalb qilish borasidagi tashabbuslarni jadallashtirish va ushbu mamlakatni mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga, shu jumladan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga jalb qilishni ustivor vazifa deb bilamiz", degan edi.

Afg'onistonning urushdan keyingi rivojlanish strategiyasiga nisbatan Shanxay hamkorlik tashkiloti xududida birlashgan umumiy yondashuvlarni ilgari surish muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Toshkentda yuqori martabali delegatsiyalar, jumladan, ShHT davlatlari vakillari ishtirokida bo'lib o'tgan Afg'oniston bo'yicha xalqaro konferensiya – ushbu anjumanning minbaridan turib ushbu mamlakatni chuqur inqirozdan olib chiqish bo'yicha aniq takliflar bildirilgan tarixiy forum bo'ldi.

Afg'oniston atrofida yana katta geosiyosiy o'yin namoyish etilmoqda. Afg'onistondagi ba'zi milliy harakatlar rahbarlari mamlakatda federativ davlat boshqaruvini yaratishni taklif qilmoqda. Etnik guruhlarining joylashishini hisobga olgan holda, mamlakatda mavjud ma'muriy-hududiy bo'linishni qayta ko'rib chiqish zarur, deb hisoblaydiganlar ham mavjud. Bu o'rinda, millatlararo to'qnashuvlar va alohida milliy guruhlar rahbarlarining ayirmachilik tuyg'ulari mamlakatni yana qurolli to'qnashuvlar girdobiga solish xavfi yuzaga kelishi mumkin.

Bugungi kundagi asosiy vazifa – Afg'onistondagi vaziyatning nazoratsiz rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik, butun mintaqa kelajagi uchun muhim strategik qarorlarni qabul qilish va ularni amalga oshirishda jahon hamjamiyatchiligining qo'llab quvvatlashiga erishish. Shu nuqtai nazardan, Markaziy Osiyo respublikalarining umumiy manfaatlari doirasida Afg'onistondagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga befarq bo'lmaslik, mamlakat taraqqiyotiga ta'sir etadigan sohalarida yordam ko'rsatish muhim vazifa bo'lib qoladi.

"So'nggi o'nyilliklarda, deb yozadi tadqiqotchi M.Muhammadsiddiqov, *Xitoyning Markaziy Osiyo respublikalari bilan siyosiy-iqtisodiy hamkorlik aloqalari mustahkamlandi, o'zaro munosabatlarda sezilarli natijalarga erishildi. Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida strategik sheriklik munosabatlari shakllandi. Xitoyning qo'shni respublikalar bilan umumiy savdo aylanmasi 100 mlrd dollardan 1,3 trln dollarga yetdi*".

ShHT qoshidagi "Ishbilarmonlar kengashi" tashkilot ichidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini yanada rag'batlantirish uchun yangi manbaga aylanishi ko'zda tutilgan. Tomonlar kelishilgan tamoyillar asosida ShHT taraqqiyot jamg'armasini tashkil etishni rejalashtirdi. Shu bilan birga, mintaqaviy hamkorlik loyihalarini amalga oshirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, o'zaro investitsiyalar jalb qilish, banklararo hamkorlikni mustahkamlashga kelishib olindi.

ShHTning 2022-yil 15-16-sentabrdagi Samarqand sammiti tashkilotning konseptual yondashuvlarga asoslangan faoliyatining yangi bosqichga olib chiqadigan platforma bo'ldi. Unga ramziy ma'noda "**Samarqand ruhi**" nomining berilishi ham bejiz emas. Bugunning zamonaviy chaqiriqlariga javob bera oladigan va barchani atrofiga jamlashga qodir institutsional birlashma sifatida Shanxay hamkorlik tashkiloti xalqaro va mintaqaviy darajada o'zining munosib nufuz va e'tiboriga ega bo'ldi.

Mazkur sammitda muhokama qilingan eng muhim masalalardan biri – iqtisodiy hamkorlikni yangi jabhalarini belgilab olishga qaratildi. 2021-yil yakunlariga ko'ra, ShHTga a'zo davlatlar o'zaro tashqi savdosining o'sishi 33 foizga oshib, 8 trillion dollardan oshdi va a'zo davlatlar o'rtasidagi ichki savdo aylanmasi qariyb 40 foizga o'sib, 768 milliard dollarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar, ayniqsa, YaIM 50 mlrddan 100 mlrd dollargacha bo'lgan a'zo mamlakatlar uchun iqtisodiy rivojlanishning yangi imkoniyatlarini yaratilishini anglatadi.

Sammitda ShHTning mintaqalararo savdoni rivojlantirish dasturi imzolandi. Bunda, har bir a'zo mamlakatning ichki imkoniyatlari va tashqi hamkorlik omillari nafaqat o'zaro savdo-sotiqni, shu bilan birga, milliy ishlab chiqarish yo'nalishlarining transformatsiya qilinishiga

xomashyo zaxiralarini o'zlashtirish, o'zaro savdo-sotiq, sanoat, turizm, tabiiy suv resurslarini muvozanatli iste'molini tartibga solish, suv energetikasidan unumli foydalanish, ekologiyaga oid ko'plab boshqa sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlari rivojlanmoqda.

Shanxay hamkorlik tashkilotiga Xitoy tomonidan taqdim etilgan mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan loyihasi ko'p qirrali savdo-iqtisodiy aloqalar dasturiga asos bo'ldi. Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari uzunligi 3,7 ming kilometrdan ortiq bo'lgan umumiy chegaraga va savdo-iqtisodiy sohadagi hamkorlikni rivojlantirishning keng imkoniyatlariga ega. Chegara punktlari orqali Xitoy Markaziy Osiyo mamlakatlariga oziq-ovqat, iste'mol tovarlari va maishiy elektrotexnika jihozlarini eksport qiladi, o'z navbatida, u yerdan metall, paxta va charm xomashyo mahsulotlarini oladi.

So'nggi-yillarda Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari neft-gaz resurslarini qazib olishni rivojlantirish, qishloq xo'jaligiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish bo'yicha samarali hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Xitoy neft-gaz korporatsiyasi Kaspiy dengizida neft resurslarini qazib olishni rivojlantirish uchun deyarli yarim milliard dollar ajratdi.

2013-yilda Xitoy rahbari Si Szinpin yana bir muhim loyihani e'lon qildi. Unda **“Bir makon, bir yo'l”** konsepsiyasi ilgari surildi. Konsepsiyadan asosiy maqsad – xalqaro dengiz transport yo'llariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatiga ega davlatlar bilan ham, qit'aning ichkarisida joylashgan mamlakatlar bilan ham integratsiyani amalga oshirish nazarda tutiladi.

“Bir makon, bir yo'l” konsepsiyasining moliyaviy bazasini kengaytirish va **“Yangi Ipak yo'li”**ni shakllantirish – Xitoy va Markaziy Osiyo respublikalari uchun davrning muhim vazifalaridan bo'ldi. Ushbu loyihaning amalga oshirilishi, transmilliy transport yo'llarining qurilishi, logistika tizimining yaratilishi orqali Osiyo-Tinch okeani va Yevropa mintaqalarini bog'lab, mintaqaviy va jahon umumsavdo bozori hamda ijtimoiy tizimlarining rivojlanishi, buning natijasida esa, o'zaro integratsiya jarayonlarining tezlashishi va global iqtisodiy taraqqiyotiga erishiladi.

Xalqaro hamjamiyat Afg'onistonda davlatchilik, hukumat tizimi va fuqarolik jamiyati barpo etish haqida g'amxo'rlik qilishi kerak. Afg'onistonni qurol kuchi va siyosiy tazyiqlar orqali emas, balki zamonaviy davlat boshqaruvi uslublari bilan o'z jamiyatini siyosiy jihatdan isloh qilib, islomiy o'zligini saqlab qola olishiga ishonirish muhim. Afg'onistonning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini qayta qurilishiga tashqi salmoqli turtki berish kerak.

Bu yerda BMT markaziy va muvofiqlashtiruvchi rolni ijro etishi lozim. Afg'oniston iqtisodiyoti va infratuzilmasini tiklash dasturlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun donor davlatlar, xalqaro tashkilotlar va mamlakatlar muhim o'rin egallaydi. Sh.Mirziyoyevning fikricha, ShHT a'zolari Kobulni ekstremistik qarashlardan yanada uzoqlashtirish uchun davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishlari kerak. *“Mavqelarimizni bir-biriga yaqinlashtirish orqali biz yanada tinch, barqaror va farovon Afg'oniston bo'yicha ShHTning yangi kun tartibini ishlab chiqishimiz mumkin”*.

Shuningdek, Prezidentimiz *“...bugun ShHT doirasida shakllangan mana shunday ijobiy va muvaffaqiyatli tajribadan Afg'onistonni rivojlantirish masalasida ham foydalanish o'ta muhim va dolzarbdir. Shak-shubhasiz, Afg'oniston ShHT makonining ajralmas qismi sanaladi. Bugun afg'on xalqi qo'shni va xayrixoh davlatlar ko'magiga har qachongidan ham muhtoj. Afg'onistonga birgalikda yordam qo'lini cho'zishimiz, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, mintaqaviy va global taraqqiyot jarayonlariga integratsiyalashuviga ko'maklashishimiz va shu orqali ushbu davlatning ko'p-yillik inqirozdan chiqishi uchun qulay sharoit yaratib berish bizning ma'naviy burchimizdir.*

*Asrlar davomida global miqyosdagi davlatlar va mintaqaviy kuch markazlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarda bufer rolni o'tab kelgan Afg'oniston endilikda Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'lovchi ko'priklar vazifasini bajarishdek yangi tinchlik missiyasida o'zini namoyon etmog'i lozim”,* deya ta'kidlab o'tadi.

Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikning ta'minlanishi Markaziy Osiyo respublikalari uchun mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashning

asosiy shartlaridan. Afg'onistonda kechayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlar bevosita mazkur mintaqaga ta'sir etish xususiyatiga ega. Shunday ekan, Markaziy Osiyo davlatlari qo'shni mamlakatda yuz berayotgan jarayonlarga jiddiy e'tibor qaratishi, muammolarni hal etishda ishtirok etishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **4. Shanxay hamkorlik tashkilotining Markaziy Osiyo mintaqasi taraqqiyotidagi o'rni**

Zamonaviy xalqaro munosabatlar o'zining taraqqiyot dinamikasi bilan yangi dunyo tartibi xarakteri va evolyusion bosqichlarini belgilab bermoqda. Jahon hamjamiyati taraqqiyoti to'qnash kelayotgan aktual muammolarga yechim izlashda xalqaro hamkorlik samarali natijalar berishini ko'pchilik anglab yetdi.

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida yuzaga kelayotgan siyosiy-ijtimoiy voqe'larga javob izlash, ziddiyatlarga yechim topish, muammolarni hal etishda alohida davlatlarning emas, turli institutsional tashkilotlarning roli ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Ana shunday nufuzli xalqaro tashkilotlardan biri – Shanxay hamkorlik tashkilotidir.

##### *Ibtido*

Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin Markaziy Osiyoda jahon hamjamiyatchiligining mustaqil davlat sifatidagi yangi subyektlari paydo bo'ldi. 1991-yilning dekabrda bir tomondan Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston, ikkinchi tomondan esa Xitoy o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirib, "4+1" shaklidagi muzokaralar tartibi yaratildi. Shanxay beshligi o'z tarixini 1996-yilda Shanxayda boshlab, birinchi hujjat – chegara hududida harbiy sohada ishonch o'rnatish to'g'risidagi bitim imzolandi.

1997-yilda "beshlik" doirasidagi hamkorlik mexanizmi jiddiy tarkibiy va mazmun jihatidan o'zgarishlarga duch keldi. Sharqiy Osiyo masalalari bo'yicha xitoylik ekspert Xing Guangcheng fikricha:

*"Birinchiidan, o'zaro muzokaralar formati o'zgardi: "4+1" formatidan tashkilot besh a'zosining har biri muzokaralarning mustaqil tomonini ifodalaydigan shaklga o'tildi;*

*Ikkinchiidan, muzokaralar mavzusi kengaydi. Ilgari "beshlik" muzokaralari faqat harbiy sohada ishonch choralari va chegara hududlarida qurolli kuchlarni qisqartirish masalalari bilan cheklangan bo'lsa, 1997-yildan boshlab mintaqadagi harbiy va iqtisodiy hamkorlik masalalari muzokaralar sohasiga tobora kengroq kiritildi.*

Shanxay beshligi mintaqaviy xalqaro tashkilotga aylanish evolyusiyasini boshladi. Tashkilotning 2000-yildagi Dushanbe sammitida O'zbekiston Respublikasi birinchi marta kuzatuvchi sifatida qatnashdi. Ana shu sammitda «beshlik» negizida ko'p tarmoqli tashkilot tuzish to'g'risida taklif ilgari surildi. Tashkilot ta'sischilaridan biri sifatida ishtirok etish haqidagi qarorni O'zbekiston o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqib, Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy vaziyatni hisobga olgan holda qabul qildi.

2001-yilning 14-15-iyun kunlari Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston rahbarlarining Shanxayda bo'lib o'tgan uchrashuvida O'zbekiston Respublikasining tashkilotga qabul qilinishi bilan "beshlik" formati "oltilik" shaklini oldi hamda rasmiy ravishda **"Shanxay hamkorlik tashkiloti"** (ShHT) deb nomlana boshladi.

Markaziy Osiyoning muhim davlatlaridan sanalgan O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi tashkilotning xalqaro mavqeini oshiribgina qolmay, uning siyosiy nufuzi, o'zining mustaqil konsepsiyasiga ega bo'lishida muhim rol o'ynadi. ShHTning tashkil etilishi ko'p qutbli dunyoda uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirish, mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashga mo'ljallangan keng ko'lamlı, har tomonlama hamkorlikka asoslangan aloqalarni yo'lga qo'yishda muhim qadam bo'ldi.

##### *Iqtisod*

Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida iqtisodiy hamkorlik tashkilot faoliyatining muhim yo'nalishlaridan sanaladi. Tabiiy, mineral